

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'l yozma huquqida
UDK: 336.1

BO'TAYEV O'TKIR SHIRINBOYEVICH

**“IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH
SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI
MOLIYASINI SAMARALI TASHKIL ETISH MASALALARI”
(Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari misolida)**

5A230601 – Davlat moliyasini boshqarish

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
i.f.n., dots. A.H.Norqulov**

TOSHKENT – 2015

M U N D A R I J A

Kirish.....	3
I bob. Xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	10
1.1. Milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishda xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	10
1.2. Xizmat ko'rsatish korxonalarida moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning nazariy asoslari.....	25
1.3. Bozor munosabatlarini rivojlantirishda xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini tashkil etishning huquqiy asoslari.....	35
I bob bo'yicha xulosa.....	47
II bob. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasining holati va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	51
2.1. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar moliyasini tashkil etish amaliyoti.....	51
2.2. Xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy holati tahlili.....	60
2.3. Xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy munosabatlarini samarali boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni yumshatish yo'llari.....	79
II bob bo'yicha xulosa.....	90
III bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini samarali tashkil etish va ularning barqarorligini ta'minlash yo'llari.....	93
3.1. Xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasida yuzaga kelgan muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi	93
3.2. Xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini boshqarishning iqtisodiy-matematik modeli.....	100
3.3. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini samarali tashkil etish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	107
III bob bo'yicha xulosa.....	109
Xulosa.....	112
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	117
Ilovalar.....	123

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Bozor munosabatlari sharoitida xizmat ko'rsatish iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda vositachi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan bir qatorda, xizmat turlari ko'payib uning mamlakat yalpi ichki mahsulot (YIM)ida hissasi ortib bormoqda, xizmat sohasida yangi ish o'rinlari ochilib, xizmat ko'rsatish sifati oshib, aholi turmush farovonligi yaxshilanmoqda. Birgina misol, 2014-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foizga oshdi hamda bozor xizmatlari ko'rsatish hajmi 15,7 foizga o'sdi, ularning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 53 foizdan 54 foizga oshdi.¹

Shuni ta'kidlash joizki, xizmat ko'rsatish tarmoqlari va xizmat turlari o'zimizga xos tarzda rivojlanib kelgan va rivojlanmoqda. Bu ko'p hollarda xizmatlarning milliyligi bilan bog'liqdir, chunki shunday xizmatlar borki, ular faqat o'zimizgagina xosdir, misol uchun, hashar orqali ko'rsatiladigan xizmatlar, homiylik xizmatining ayrim turlari, milliy to'y-hashamlarda qilinadigan xizmatlar va hokazo. Ammo shuni e'tirof etish kerakki, mamlakatimizda ushbu o'zimizga xos xizmat sohasi kam tadqiq qilingan va mos ravishda iqtisodiy adabiyotlarda mazkur masalaga bag'ishlangan materiallar kam yoritilgan.

Hozirgi kunda jamiyat vakillarining zamonaviy, murakkab maishiy texnika, kompyuterlar va shaxsiy avtotransport bilan ta'minlanganligining keskin oshishi natijasida ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarning kengayishiga sharoit yaratadi. Zamonaviy xizmat ko'rsatish turlarining kengayishi va rivojlanishi yangi daromadli faoliyat turlarining yuzaga kelishiga, aholi bandligini ortishishiga zamin yaratadi. Yangi daromad turlarining yaratilishi va aholi daromadlarining oshishi esa, o'z navbatda, soliq solish bazasini kengayishiga, byudjet daromadlarining ko'payishiga olib keladi.

¹ Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, Xalq so'zi, 2015-yil, 17-yanvar, 1-2-bet.

Ushbu sohani rivojlantirishda Prezidentimizning “2012–2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi Qarori ijobiy natijalarni bermoqda. Ishlab chiqilgan dasturga muvofiq 2016-yilgacha mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 55 foizgacha oshirilishini nazarda tutilgan.¹

Xizmatlar ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish maqsadida unga qulay sharoit yaratish, uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarida band bo‘lgan aholi sonini yanada ko‘paytirish va shu asosda aholi daromadlarini oshirish hamda ichki iste‘mol bozorini sifatli turli-tuman zamonaviy xizmat turlari bilan to‘ldirish pirovard maqsad sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda.. Prezidentimiz I.A.Karimov aytib o‘tganlaridek, “Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining 50 foizdan ortig‘i ushbu tarmoqda mehnat qilmoqda”².

Respublikamizda xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan banklar, su‘gurta kompaniyalari, lizing va baholash xizmati sub‘yektlari, turistik va mehmonxona majmualari va axborot kommunikatsiya idoralari, aholini ovqatlantirish korxonalari va boshqa sub‘yektlar shug‘ullanadi. Taraqqiyotimizning bugungi bosqichi, ya‘ni milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishda ishlab chiqarish tarmoqlari bilan bir qatorda xizmat ko‘rsatish sohasining ham o‘rni kun sayin kengayib bormoqda.

Mamlakatimiz moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda xizmat ko‘rsatish korxonalari moliyasining mukammal tarzda yo‘lga qo‘yilganligi, moliyaviy jihatdan yuqori potensialga ega ekanligi hamda xizmat turlarining sifatli muhim rol o‘ynaydi. Xizmat ko‘rsatish korxonalari moliya tizimini bozor iqtisodiyotining xalqaro andozalariga mos ravishda rivojlantirish hozirgi davrda o‘ta dolzarb va ustuvor vazifalardan biri bo‘lmoqda va shu bilan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2012–2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi Qarori, Toshkent sh., 2012-yil 10-may, PQ-1754-son

² Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi, Xalq so‘zi, 2015-yil, 17-yanvar, 2-bet.

birgalikda xizmat ko'rsatish sohasining moliyaviy tizimi yurtimizning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan sohalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasi moliyasini samarali tashkil qilishning ijobiy jihatlari o'ziga xosdir, ya'ni xizmat ko'rsatish sohasining tashqi omillar o'zgarishiga bog'liq emasligi, ortiqcha iqtisodiy mablag' talab qilmasligi, yangi ish o'rinlarini yaratishda xarajatlarning kamligi va shu kabi bir qancha omillarning mavjudligidir.

Shuni alohida ta'kidlash joizk, xizmat ko'rsatish sohasi sub'ektlarining shakllanishi va taraqqiy etishida hamda xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasining yuqori samaradorlik bilan ishlashini ta'minlashda ayrim muammolarga ham duch kelinmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf qilish, uning nafaqat amaliy, balki bir qator nazariy masalalarini ham hal etish lozimligi mazkur soha faoliyati samaradorligini hamda moliyaviy potensialini oshirish evaziga mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini barqaror rivojlanishiga olib borilishini taqozo qilmoqda. Bularning barchasi mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi. Magistrlik dissertatsiya ishining tadqiqot ob'ekti bo'lib, respublikamiz viloyatlari markazlarida ko'p qavatli turar-joylarda istiqomad qiluvchi aholiga xizmat ko'rsatuvchi xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati, ya'ni Samarqand shahrida faoliyat yuritayotgan "Reyxan kommunal servis" hamda "Yunusobod kommunal sitora servis" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari hisoblanadi. Izlanish predmeti esa iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini samarali tashkil etish masalalari bilan bog'liq jarayondan iborat.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ushbu magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasi, xususan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati moliyasini tashkil etishning nazariy hamda metodologik jihatlari tadqiq qilib, ularni yanada yaxshilashga qaratilgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun tadqiqotning quyidagi vazifalari belgilab olindi:

- milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasi samarali tashkil etishning obyektiv zaruriligini ochib berish hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bilib olish;
- xizmat ko'rsatish korxonalarida moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning nazariy asoslari o'rganish;
- bozor munosabatlarini rivojlantirishda xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini tashkil etishning huquqiy jihatlarini asoslash;
- moliyaviy barqarorlikni ta'minlash sharoitida xizmat ko'rsatish korxonolari moliyasining holati va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
- xizmat ko'rsatuvchi korxonalar moliyasini tashkil etish amaliyoti o'rganish;
- xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy holati tahlil qilish;
- xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy munosabatlarini samarali boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni yumshatish yo'llari ishlab chiqish
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish korxonolari moliyasini samarali tashkil etish va ularning barqarorligini ta'minlash yo'llari bo'yicha tavsiyalar berish;
- xizmat ko'rsatish korxonolari moliyasida yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi bo'yicha takliflar berish;
- xizmat ko'rsatish korxonolari moliyasini boshqarishning iqtisodiy-matematik modelini ishlab chiqish
- iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xizmat ko'rsatish korxonolari moliyasini samarali tashkil etish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Magistrlik dissertatsiya ishi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi mamlakatimizda xizmat ko'rsatish korxonolari moliyasining samarali tashkil etilishiga olib kelishi mumkin.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasi va uni samarali tashkil etishga oid asarlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi bilan bog'liq tushunchalar mazmuni, tabiati, uning iqtisodiyotda tutgan o'rni xususida ancha tadqiqotlar qilingan, ko'plab adabiyotlar nashr etilgan. Ammo aynan xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasi, xususan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati moliyasi hamda uni samarali tashkil qilish borasidagi nazariy va amaliy masalalar yetarli darajada yoritilmagan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tadbirkorlik faoliyati hamda uning tarkibidagi xizmat ko'rsatish sohasi, korxonalar moliyasini samarali tashkil qilish bilan ko'plab olimlar shug'ullanishmoqda. Bular jumlasiga Y.A.Abdullayev, F.Karimov, U.Umarov, A.O'lmasov, A.Vahobov, M.Sh.Sharifxo'jayev, M.R.Rasulov, E.S.Fayziyev, Sh.Shodmonov, T.Jo'rayev, R.M.G'aybullayev, Sh.Ro'zinazarov, T.S.Malikov, N.H.Haydarov, J.R.Zaynalov, O.A.Ortiqov, M.Q.Pardayev, A.H.Norqulov, I.S.Ochilov rahbarligidagi bir guruh olimlarni kiritish mumkin. Mazkur olimlarning tadqiqotlari xizmat ko'rsatish sohasini shakllantirish, uni rivojlantirish va iqtisodiyotda tutgan o'rnini yuksaltirishga qaratilgan. Ammo xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini samarali tashkil qilish muammolari keng qamrovli bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga va muhim ahamiyatga egadir.

Xizmat ko'rsatish korxonalari, xususan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati moliyasini samarali tashkil qilish bo'yicha ichki imkoniyatlarni axtarib topadigan, ularni amaliyotga safarbar qiladigan, rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblab, uning miqtisodiy-matematik modelini tuzish va ta'sirchan boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan ilmiy yo'nalishlar hamda amaliy tavsiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va mos ravishda ushbu masalalarning iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmaganligi mazkur tadqiqot mavzusini tanlash, maqsad va vazifalarini belgilab olish uchun asos bo'ldi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Magistrlik dissertatsiya ishimizni yoritishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, sabab va oqibat, zamon va makon uslublari, qiyoslash, muvozanat, sotsiologik so'rov, zanjirli almashtirish, qayta hisoblash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, indeks kabi iqtisodiy tahlil va statistika usullardan foydalandik.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy va metodologik asosi sifatida jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda qo'llaniladigan olamni bilish, ilmiy dialektika nazariyalari, falsafa, iqtisodiy nazariya fanlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident I.A.Karimovning farmonlari, qarorlari, asarlari, nutq va maqolalari, mamlakatimiz va xorijiy davlatlar taniqli iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida yaxlit xulosaga kelish va mantiqiy bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan ilmiy-nazariy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida iqtisodiy tahlilning an'anaviy, matematik va statistik usullaridan ham keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini samarali tashkil qilishning nazariy va amaliy yo'nalishlarini tadqiq qilib, ularni baholash va tahlil qilish orqali uning samarali faoliyatiga ta'sir qulivchi omillarning nechog'lik ahamiyatli ekanligi yuzasidan takliflar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Bu quyidagilarda o'z aksini topgan:

- xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasi tushunchasining takomillashgan ta'rifi ishlab chiqildi va milliy hisoblar tizimi talablaridan kelib chiqqan holda uning tasnifi va har bir guruhiga aniqlik kiritildi;
- xizmat ko'rsatish sohasini alohida yo'nalishlari bo'yicha rivojlantirish va uning moliyasini samarali tashkil qilishning asosiy mezonlari ko'rsatib berildi;
- xizmat ko'rsatish korxonalarining mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'рни, kelajakda uning asosiy sohalardan biriga aylanishi va mazkur sohaning muammolari ilmiy-tadqiqot ishlarining doimiy ravishda

o'rganilishi lozim bo'lgan obyekti bo'lib qolishligi nazariy jihatdan asoslandi;

- xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasi davlat moliyasini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etishi nazariy va amaliy jihatdan asoslandi;
- xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini samarali tashkil obyektiv zarurligi nazariy jihatdan ochib berildi va uning iqtisodiy mazmuni o'rganildi;
- xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini samarali tashkil qilish bo'yicha va soha shu masalalar bo'yicha ta'lim muassasalarida o'qitish lozimligi asoslandi;
- xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini samarali tashkil qilishni ko'rsatkichlar tizimi, ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish orqali uning iqtisodiy-matematik modeli ishlab chiqildi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Magistirlilik dissertatsiya ishining tartibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Uning hajmi 122 betdan iborat bo'lib, tarkibida 30 ga yaqin jadvallar va 10 dan ortiq rasm va chizmalar mavjud. Magistirlilik dissertatsiya ishidagi taklif va tavsiyalar shirkat amaliyotida foydalanilsa, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati moliyasi yanada yaxshilanadi.

I BOB. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI MOLIYASINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

1.1. Milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishda xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Respublikamiz o'zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'lida shahdam qadamlar ila rivojlanib borar ekan, iqtisodiy o'sishning bir bosqichida asosiy vazifalar qatorida mahsulot ishlab chiqarish hamda aholiga xizmat ko'rsatish, servis faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bozor munosabatlari sharoitida xizmat ko'rsatish tarmoqlari ham iqtisodiyotning muhim bir sohasi sifatida rivojlanmoqda. Ushbu sohaning o'ziga xos xususiyatlari uning iqtisodiy va ijtimoiy tabiatidan kelib chiqishidir hamda ular bilan bevosita bog'liq holda rivojlanishidir. Xizmat ko'rsatish sohasining nechog'lik muhimligi milliy iqtisodiyotimiz tarkibida uning tarmoqlarini rivojlantirmasdan turib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda isloh qilish samarasiz natijalarga olib kelishligi bilan belgilanadi. Xizmat ko'rsatish sohasi jamiyat hayotini yanada yaxshilashga qaratilganligi sababli uning faoliyat doirasi juda keng.

Bozor iqtisodiyoti to'laqonli amal qilishi uchun uning infrastrukturasini ishlab turishi lozim. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, – “infrastruktura kompleksi iqtisodiyotimizning butun strukturasi tayanadigan poydevordir. Respublika butun xalq xo'jalik kompleksi ishining uyg'unligi, uning samaradorligi, shuningdek, chet el sarmoyalarini jalb qilish va o'zlashtirish imkoniyati butunlay infrastruktura tizimi rivojining holatiga va darajasiga bog'liqdir”¹.

Bu maqsadga erishish uchun ko'p jihatdan mamlakat iqtisodiyotida moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, ehtiyojlarni qondirish asosiy vazifa sifatida amalga oshiriladi.

Jamiyat o'zining ishlab chiqarish imkoniyatlarini ehtiyojlarga monand ravishda rivojlantirib borishi shart. Aks holda, inson ehtiyojlarining ko'p qismi qondirilmay qoladi. Ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi esa ishlab

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –T.:O'zbekiston, 1995-y, 240-b.

chiqarishga xizmat qiluvchi xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda tarmoqlarning xalqaro tasniflashtirilishida uch sektorga bo'linishi qabul qilingan: birlamchi (qishloq xo'jaligi, qazib olish sanoati), ikkilamchi (qayta ishlash sanoati) va uchlamchi (xizmatlar sohasi yoki ijtimoiy soha). Bugungi kunda iqtisodiy adabiyotlarda xizmatlar sohasining chegaralari to'g'risida turli xil fikrlar mavjud. Jumladan, ushbu sohaga turli xildagi xizmatlar hisoblangan maishiy xizmatlar, yo'lovchi transporti xizmatlari, aloqa xizmatlari, turar joy-kommunal xizmatlari, ta'lim, madaniyat, turistik-ekskursiya, jismoniy tarbiya va sport, tibbiy, sanatoriya-sog'lomlashtirish, huquqiy tavsifdagi xizmatlar va boshqa turdagi xizmatlarning qo'shilishi, ushbu xizmatlarga xos bo'lgan bir-biriga o'xshash ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari mazmunlariga ko'ra asoslangan hisoblanadi.

Insoniyat tamaddunining so'nggi bir asrlik davrida xizmat ko'rsatish sohasi shunchalik rivojlanib bordiki, u o'zining bu rivojlanishi bilan mamlakat iqtisodiyotining ham jadal sur'atlar bilan yuksalishiga sababchi bo'ldi. Hozirgi vaqtda respublika iqtisodiyoti xizmatlar sohasi va uning infratuzilmasi bilan chambarchas ajralmas ravishda rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, "... xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan ushbu soha yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, odamlarning farovonligini oshirishda yetakchi o'rin tutishini ko'rsatmoqda"¹.

So'nggi yillarda iqtisodiyotimizda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish foliyatida soliq yukining pasaytirilishi va soliq tizimining soddalashtirilishi evaziga bir qator samarasiz soliqlarning, ya'ni ekologiya solig'i (2007-yilda),

¹ Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, Xalq so'zi, 2015-yil, 17-yanvar, 2-bet..

savdo qilish huquqi uchun yig'implarning (2007-yilda) bekor qilinishi ham ta'sir qildi. Barcha iqtisodiyot tarmoqlaridagi xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi, byudjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar, Respublika yo'l fondiga to'lovlari o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etildi hamda jami hisoblangan 15,2 foizlik stavka 2015-yilga kelib 6 foizni tashkil etdi. Qolaversa, 2014-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga kamaytirildi.¹ Bu kabi imtiyozlar xizmatlar bozori tarkibida yangi servis ko'rsatish sub'ektlarining takomillashuviga zamin yaratib kelmoqda. Buning natijasida, 2014-yilda ushbu soha bo'yicha jami 82261,2 mlrd. so'mlik xizmatlar hamda 22683,1 mlrd. so'mlik pullik xizmatlar yaratildi.² Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, xizmat ko'rsatish sohasi umuman olganda o'sish tendensiyasiga ega.

Xizmat ko'rsatish tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, hamon xizmatning ta'rifi bo'yicha olimlarimiz bir to'xtamga kelishgan emas. Shu tufayli, fikrimizni xizmatning ta'rifini keltirishga qaratamiz.

Fikrimizcha, xizmatga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Xizmat deyilganda insonning, mehnat jamoasining, hududning, davlat va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga qaratilgan kishilarning naf keltiradigan ongli faoliyati tushuniladi.


Xizmat bir vaqtning o'zida ham iqtisodiy, ham ijtimoiy sohadir. Uning iqtisodiy sohaligi mazkur sohada mamlakat yalpi ichki mahsulotining bir qismi yaratilishi bilan izohlansa, ijtimoiy sohaligi xizmatlarning aksariyat qismi insonlar hayotini yaxshilash va yashashini qulaylashtirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270 sonli Qarori, Toshkent sh., 2014-yil 4-dekabr.

² "Экономика Узбекистана" информационно-аналитический бюллетень, Ташкент-2015, 10-бет.

Jahon iqtisodiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida "YIM tarkibida xizmatlar sohasini ulushi AQShda 78,5%, Germaniyada 69,1 %, Rossiyada 43,4 %ni ... tashkil etadi"¹.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ham xizmat ko'rsatish sohasining ulushi respublika YIMda yil sayin sezilarli tarzda o'zgarmoqda. Buni quyida keltirilgan rasm orqali ham bilishimiz mumkin.



1-rasm. Respublikamiz yalpi ichki mahsulotida xizmatlar sohasi ulushining o'sish dinamikasi²

Yuqoridagi rasmdan ko'rib guvohi bo'lishimiz mumkinki, xizmat ko'rsatish sohasining YIMdagi ulushi 2014-yilda 2000-yilga nisbatan qariyb 0,69 barobar oshgan.

Mamlakat asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining dinamikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2014-yilda ushbu ko'rsatkichlar ijobiy natijalarni bergan (1-jadval):

¹ Ortiqov O.A. Xizmatlar bozori va uning rivojlanish tendensiyasi. Maqola. O'zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. T.: "Iqtisod-moliya", 2015, 31-b.

² Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi¹

Ko'rsatkichlar	O'lch. bir.	2011	2012	2013	2014
YIM	mlrd. so'm	77750,6	96589,8	118986,9	144867,9
YIM aholi jon boshiga	ming so'm	2649,9	3244,0	3934,6	4709,7
Sanoat mahsulotlari	mlrd. so'm	41655,9	50730,6	61105,8	75193,5
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	mlrd. so'm	19633,6	24370,3	30849,4	36957,0
Asosiy kapitalga investitsiyalar	mlrd. so'm	171518,6	22067,0	27557,3	33715,3
Qurilish ishlari	mlrd. so'm	9438,1	11311,8	15080,8	19779,3
Yuk tashish	mln.tonna	1269,0	1343,9	1387,3	1455,8
Yo'lovchi tashish	mln. kishi	6341,8	6744,3	6988,0	7321,3
Xizmatlar – jami	mlrd. so'm	41083,3	51809,0	65337,6	82261,2
Pullik xizmatlar	mlrd. so'm	10520,9	13753,6	18278,6	22683,1
Chakana tovar aylanmasi	mlrd. so'm	28357,0	36917,8	47463,7	58643,4
Doimiy aholi soni (yiliga o'rtacha)	ming. kishi	29341,3	29775,0	30241,1	30759,2
Aholi bandligi (yiliga o'rtacha)	ming. kishi	11919,1	12223,8	12523,3	12818,4

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni foiz hisobida tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ijobiy natijalardan dalolat beradi (2-jadval).

**Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan, % da)²**

Ko'rsatkichlar	2011	2012	2013	2014
YIM	108,3	108,2	108,0	108,1
YIM aholi jon boshiga	105,5	106,6	106,3	106,2
Iste'mol narxlar indeksi (o'tgan yil dekabrga nisbatan)	7,6	7,0	6,8	6,1
Sanoat mahsulotlari	106,3	107,7	108,8	108,3
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	106,6	107,0	106,6	106,9
Asosiy kapitalga investitsiyalar	107,9	111,6	109,8	109,6
Qurilish ishlari	108,5	111,5	116,6	118,3
Yuk tashish	108,7	105,4	104,4	105,0
Yo'lovchi tashish	105,9	105,8	104,2	104,8
Xizmatlar – jami	113,2	114,2	114,3	115,4
Pullik xizmatlar	116,1	114,3	113,7	111,4
Chakana tovar aylanmasi	116,4	113,9	114,8	114,3
Doimiy aholi soni (yiliga o'rtacha)	102,7	101,5	101,6	101,7
Aholi bandligi	102,5	102,6	102,5	102,4

¹ “Экономика Узбекистана” информационно-аналитический бюллетень, Ташкент-2015, 10-бет.

² “Экономика Узбекистана” информационно-аналитический бюллетень, Ташкент-2015, 10-бет.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdagi, respublikamiz iqtisodiyotida turli tarmoqlarning o'sishida xizmat ko'rsatish hajmining oshishi anchagina sezilarli darajada bo'lgan.

2014-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmati 124,6 foizga oshgan hamda bu faoliyat turi xizmat ko'rsatish sohasining rivojiga eng katta hissa qo'shdi (3-jadval).

3-jadval

Turlari bo'yicha yaratilgan bozor xizmatlari¹

Xizmat turlari	2012-yil		2013-yil		2014-yil	
	mlrd. so'm	o'sishi, % da	mlrd. so'm	o'sishi, % da	mlrd. so'm	o'sishi, % da
Xizmatlar – jami	51121,1	113,1	65337,6	114,3	82261,2	115,4
shu jumladan turlari bo'yicha:						
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	3059,5	123,8	3583,1	121,9	4185,7	124,1
Kompyuter dasturlash xizmati	91,8	121,3	119,9	130,4	189,2	121,6
Moliyaviy xizmatlar	4274,7	115,2	5523,8	129,3	6794,9	133,9
Transport xizmatlari (logistik xizmat bilan)	14593,9	108	18127,2	105,8	22163,3	108,9
Qurilish xizmatlari	2354,2	127	2949,2	125,4	3955,1	118,3
Texnologik uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmati	321,2	108,3	328,4	124,2	418,4	123,3
Qishloq xo'jaligi texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash	64,2	140,8	77,2	118,2	109,3	124,6
Turistik xizmatlar (mehmonxona xizmati bilan)	236,9	118,3	306,7	116,1	374,7	116,0
Umumiy ovqatlanish va savo xizmati	11313,8	115,3	14628,6	116,6	18856,6	117,5
Maishiy xizmatlar	1100,3	124,0	2240	123,2	2976,6	120,7
Ta'lim xizmatlari	1382,9	106,4	1817,7	107,5	2173,0	110,2
Sog'liqni saqlash xizmati	483,7	135,1	635,6	127,2	845,3	114,2
Qishloq xo'jaligi sohadagi xizmatlari	–	–	476,5	119,7	507,3	112,5
Boshqa xizmatlar	11844	109,9	14523,7	111,3	18711,8	111,4

¹ “Экономика Узбекистана” информационно-аналитический бюллетень, Ташкент-2015, 58-bet.

Ushbu bozor xizmatlarini respublikamiz hududlari bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2014-yilda eng yuqori ko'rsatkichni Toshkent shahri (22720,7 mlrd. so'm) va boshqa viloyatlar egallab turibdi (4-jadval).

4-jadval

Hududlar kesimida yaratilgan bozor xizmatlari¹

Hududlar	2012-yil		2013-yil		2014-yil	
	mlrd. so'm	o'sishi, % da	mlrd. so'm	o'sishi, % da	mlrd. so'm	o'sishi, % da
O'zbekiston Respublikasi	51121,1	113,1	65337,6	114,3	82261,2	115,4
Qoraqolpog'iston Respublikasi	1507,4	108,2	2026,4	115,8	2627,8	112,6
viloyatlar:						
Andijon	2562,9	114,6	3458,9	120,9	4555,3	120,0
Buxoro	2511,5	117,4	3367,9	122,8	4329,6	119,6
Jizzax	954,2	117,3	1303,1	120,8	1682,6	120,6
Qashqadaryo	2521,1	119,7	3365,1	119,0	4525,1	118,0
Navoiy	1953,6	107,8	2440,1	116,7	2974,2	113,6
Namangan	2113,1	116,8	2855,5	122,9	3771,8	120,1
Samarqand	2995,0	118,1	4076,9	124,1	5324,0	121,2
Surxandaryo	1717,5	118,9	2336,4	120,5	3065,1	117,7
Sirdaryo	693,8	113,9	927,5	117,0	1124,5	117,0
Toshkent	4854,5	112,5	6126,1	115,4	7825,8	115,1
Farg'ona	3034,5	118,4	4077,6	122,5	5177,6	121,4
Xorazm	1445,7	119,4	1935,1	121,1	2498,8	118,9
Toshkent shahri	15291,4	115,7	18454,6	112,1	22720,7	112,0

Respublikamizda 2014-yil yakunlariga ko'ra jami 22683,1 mlrd. so'mlik pullik xizmatlar yaratildi (5-jadval).

5-jadval

Pulli xizmatlar (mlrd. so'mda)²

Yillar	Jami mlrd. so'm	Shu jumladana (mlrd. so'm)		O'sish, %da
		Rasman ro'yxatdan o'tgan korxonalar	Nodavlat sektor	
2012	13753,6	8881,9	4871,7	114,3
2013	18278,6	11087,3	7191,3	113,7
2014	22683,1	13262,7	9420,4	111,4

¹ “Экономика Узбекистана” информационно-аналитический бюллетень, Ташкент-2015, 57-bet.

² “Экономика Узбекистана” информационно-аналитический бюллетень, Ташкент-2015, 56-bet.

Mamlakat miqyosida pulli xizmatlarning hajmi asosan Andijon, Samarqand, Farg'ona viloyatlari hamda Toshkent shahrida asosiy salmoqni egallagan (6-jadval).

6-jadval

Pulli xizmatlar hududlar kesimida¹

Hududlar	2012-yil		2013-yil		2014-yil	
	mlrd. so'm	o'sishi, % da	mlrd. so'm	o'sishi, % da	mlrd. so'm	o'sishi, % da
O'zbekiston Respublikasi	13753,6	114,3	18278,6	113,7	22683,1	111,4
Qoraqolpog'iston Respublikasi	449,7	116,3	686	117,5	880,9	112,5
viloyatlar:						
Andijon	1291,0	110,2	1692,8	115,2	2115,9	113,1
Buxoro	746,5	113,5	1010,2	116,4	1264,6	112,1
Jizzax	312,8	104,9	419,3	117,8	536,9	115,4
Qashqadaryo	719,6	116,6	1003,2	116,8	1286,8	111,7
Navoiy	406,9	110,4	550,4	116,7	718,6	114,9
Namangan	790,2	116,8	1076,4	119,3	1386,2	117,7
Samarqand	1293,8	116,6	1744,9	118,3	2268,2	117,6
Surxandaryo	492,1	113,5	756	118,5	956,7	116,1
Sirdaryo	198,0	118,6	251,7	114,8	305,3	112,6
Toshkent	868,3	115,0	1196,9	118,6	1505,8	115,3
Farg'ona	1246,9	113,9	1720,5	119,3	2121,2	112,2
Xorazm	547,6	111,8	742,2	115,3	963,6	113,7
Toshkent shahri	3396,6	112,6	4223,8	111,9	5175,4	109,3

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilishimiz mumkin-ki, respublikamizda 2014-yilda ko'rsatilgan pullik xizmatlar miqdori viloyatlar kesimida tobora ko'payish tendensiyasiga ega.

2014-yilda respublikamizda bank-moliya xizmatlari 33,9 %ga oshdi. Tijorat banklari tomonidan xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish maqsadida jami 1245,1 mlrd. so'm miqdorda kredit ajratildi, bu esa 2013-yilga qaraganda 1,4 barobar ko'pdir.²

¹ “Экономика Узбекистана” информационно-аналитический бюллетень, Ташкент-2015, 57-bet.

² “Экономика Узбекистана” информационно-аналитический бюллетень, Ташкент-2015, 55-bet.

“Jo’ngina qilib aytganda, kechagina tushimizga ham kirmagan sharoitlar odatiy holga aylandi. Bunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlar jarayoni, jumladan, xizmat ko’rsatish sohasining o’rni alohida. E’tiborli jihati, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida eng muhim omillardan sanalgan xizmat ko’rsatish, dunyo tajribasidan ayon bo’layaptiki, yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta’minlash, farovonligini oshirishda yetakchi o’rin tutayotir”¹.

Xizmatlarning moliyaviy jihatdan yana bir xususiyati, ularning tovar sifatida sotilishi va bozor munosabatlari sharoitida kelishilgan narxda baholanishidadir hamda sarflangan harajat va olingan daromad o’rtasidagi farqdadir. Bu uning tabiati tovarga o’xshashligini belgilaydi, ammo mazkur soha moliyasining ko’pqirraligi boshqa iqtisodiy tarmoqlardan va ularda ishlab chiqarilgan tovarlardan ham farq qilishini o’zida ifoda etadi. Demak, xizmat ko’rsatish sohasi o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, bular quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- xizmatlar moddiy ne’mat tariqasida ko’zga ko’rinmaydi;
- xizmat ko’rsatuvchi sub’ektlarning aksariyati jismoniy shaxs sifatida namoyon bo’ladi;
- xizmat ko’rsatuvchilar yagona shaxs sifatida har biri o’ziga xosdir;
- xizmatlarni ishlab chiqaruvchilardan ajratib olish va ajratib sotish imkoniyati yo’q;
- xizmatlar oldi-sotdi jarayonida predmet sifatida namoyon bo’lmaydi;
- xizmat sifati o’zgarib turadi, ya’ni bir kishining xizmati bir davrda turli sifatga ega bo’lishi mumkin;
- xizmatni zahiraga olib qo’yib, saqlash imkoniyati yo’q;
- xizmatning o’zini egasidan ayri holda, bir joydan ikkinchi joyga ko’chirish imkoniyati yo’q;

¹ Toshev A. QULAY, SIFATLI VA TEZKOR yoki xizmat ko’rsatish sohasining taraqqiyoti xususida.– “Ishonch” gazetasi, 2015-yil, 10-fevral, 3-b.

- xizmatni faqat ko'rsatilayotgan xizmat jarayonida iste'mol qilish mumkin;
- xizmat natijasidan ayrim hollarda, keyinchalik ham foydalanish mumkin;
- xizmatning ishlab chiqarilishi va iste'mol qilinishi bir paytning o'zida sodir bo'ladi;
- xizmat ko'rsatuvchi va iste'mol qiluvchi sub'ektlar xizmat jarayonida bevosita birga bo'lishi mumkin va hokazo.

Xizmatning ushbu xususiyatlari uning iqtisodiy tabiatini ham belgilaydi. Chunki, xizmat ko'rsatish ko'zga ko'rinmasada, ushlab bo'lmasada, uning mavjudligi jarayonlardangina iborat bo'lgan tovar sifatida namoyon bo'ladi. Shu tufayli xizmatga alohida tovar sifatida qarash yoki uning nazariy masalalarini tahlil qilishda ushbu xulosalarga tayanish taqozo etiladi.

Xizmat sohasi moliyasining yana bir xarakterli tomoni shundaki, mazkur soha o'z taraqqiyoti bilan bir vaqtda boshqa sohalarni rivojlantiradi hamda inson kamoloti uchun tegishli sharoit va imkoniyatlar yaratadi. Demak, xizmat sohasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat insonni, balki butun bir tizimni takomillashtirish va rivojlantirish imkoniyatini ham yaratadi. Hozirgi milliy hisoblar tizimi amal qilib turgan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini bir qancha guruhlariga bo'linadi. Bular quyidagilar:

- iste'mol sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar moliyasi;
- ijtimoiy sohada ko'rsatiladigan xizmatlar moliyasi;
- ishlab chiqarish sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar moliyasi;
- taqsimot sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar moliyasi.

Ushbu xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasi guruhlarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Iste'mol sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar moliyasiga restoranlar, turli ovqatlanish shaxobchalari va mehmonxonalarda ko'rsatiladigan xizmatlar, transport

xizmatlari hamda inson shaxsiy holatini yaxshilashga ta'sir qiladigan uqalash, sataroshlik, pardozi-andoz kabi xizmatlar moliyasi kiradi.

Ijtimoiy sohada ko'rsatiladigan xizmatlar moliyasi bevosita inson kamoloti, uning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq xizmatlar moliyasidir. Bular jumlasiga ta'limning barcha turlari hamda tibbiy xizmatlar kabi inson kamoloti bilan bog'liq xizmat turlarining moliyasini kiritish mumkin.

Xizmatlar tizimida ishlab chiqarish sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar moliyasi yetakchi xizmat moliyasi turlaridandir. Bular jumlasiga moliya-kredit sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar, sug'urta xizmatlari, murakkab texnika va texnologik jarayonlarda qo'llaniladigan asbob-uskunalarni ta'mirlash, uy-joy kommunal xizmatlari, shuningdek, konsalting, huquqiy (yuridik) xizmat moliyasi singari turli maslahat berish xizmatlarining moliyasini kiritish mumkin.


Eng yirik xizmat ko'rsatish korxonalari moliyalaridan biri taqsimot sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar moliyasi bo'lib, ularga savdo, transport, vositachilik, brokerlik kabi xizmatlar moliyasini kiritish mumkin. Mazkur xizmatlar moliyasi bir qancha xizmatlar moliyasini o'zida qamrab olishi, mujassamlashtirishi bilan birgalikda ijtimoiy, ishlab chiqarish va iste'mol sohalari o'rtasida ko'prik vazifasini ham o'taydi.

Xizmatlar ko'plab sohalarni qamrab olganligi tufayli uni ijtimoiy-iqtisodiy hayotdan alohida tasavvur etib bo'lmaydi. Bunday xizmat sohasini iqtisodiyotning alohida tarmog'i sifatida keskin rivojlanish "huquqiga" ega, deyish mumkin.

Axborot nashrlarida ham ko'rib guvohi bo'lishimiz mumkin-ki, "Xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik va bozor turlari, chunonchi, telekommunikatsiya, moliya-bank, sug'urta va turizm-ekskursiya xizmatlari jadal rivojlanib borayotir. Xizmat ko'rsatish va servis sohasida 2012-yilda hamda 2013-yilning olti oyida tegishincha 21762 ta va 10596 ta ish o'rni yaratildi"¹.

¹ Ziyodinov M. XIZMAT KO'RSATISH VA SERVIS SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH aholi turmush tarzini yuksaltirishning muhim omili, –"Xalq so'zi" gazetasi, 2013-yil, 7-avgust, 2-b.

O'zbekistonda xizmatlar sohasi infratuzilmasi asosan ishlab chiqarish, tovar va xom-ashyo bozori, moliya-kredit munosabatlariga, aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish va axborot informatsiya turlari guruhlariga bo'linadi. Hozirda, O'zbekiston xizmatlar sohasi infratuzilma turlari amaliyotda, barcha me'yoriy hujjatlar, tuzilmalarda foydalanib kelinmoqda (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda xizmat qiluvchi infratuzilma turlari

Xuddi shunday, xizmatlar sohasi asosini O'zbekiston Respublikasi faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tasniflagichi tashkil etadi. Lekin, ushbu tasniflagich va xizmat qiluvchi infratuzilma orasida nomutanosiblik mavjud. Bunda turli xildagi, ko'p sonli xizmatlarni o'rganish, ulardan samarali foydalanish va ularni

rivojlantirish, yangilarini yaratish va boshqalarda, ularni tartibga solib tasniflash muhim hisoblanadi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasida tasniflashning asosiy maqsadi, xizmatlarning umumiy alomatlarini aniqlash, ularni alohida sinflari, guruhlar va xillarga birlashtirish yo'li bilan, umumiy nazariy nuqtai nazardan ushbu sohaga mansub bo'lgan moliyaviy masalalarga o'rganishga yo'naltirishdir. Tasnifning asosiy shartlariga: sinflar, guruhlar va xillarning ma'nodosh bo'lishi, barcha alomatlarni o'z ichiga olishi va alomatlarining takrorlanmasligini ta'minlash kiradi. Chunki ushbu alomatlar xizmat ko'rsatish sohasi korxonlarini modernizatsiyalash moliyaviy jihatdan tashkil etishga, budjetni solikli daromadlarini oshirishga, tijorat banklari bilan bog'liq munosabatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-oktabrda qabul qilingan "Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq kichik tadbirkorlik faoliyatiga kiruvchi xizmat ko'rsatish korxonalari turlari keltirib o'tilgan (21-ilova).


Xizmatlarni tasniflash borasida qator xalqaro tashkilotlar o'z qarashlariga ega bo'lib, ulardan biri Xalqaro valyuta fondining fikricha, barcha xizmatlar ikkiga bo'linadi: savdo qilinadigan va savdo qilinmaydigan xizmatlar.¹ Bunday tasnif xizmatlarning xalqaro savdoda qo'llanilishi nuqtai nazaridan keltirilgan. Savdo qilinadigan xizmatlarga ushbu jarayonni amalga oshirish mumkin bo'lgan xizmat turlari kiritilgan. Savdo qilinmaydigan xizmatlar esa faqat milliy davlatlarning o'zlarida amala oshiriladi, ya'ni ular shu davlat ichida yaratiladi, sotiladi va iste'mol qilinadi. Bunga misol sifatida uy-joy kommunal xizmatlari bilan bog'liq xizmatlarni kiritish mumkin.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan uyushmalar, korxonalar va tashkilotlarning yig'indisidan tashkil topadi va ular umumiy qonuniyatlar hamda oldilariga qo'yilgan maqsadga

¹ Киреев А.П. Международная экономика. Ч. 1. М.: Международные отношения, 2000. 265-б.

asoslangan holda yagona tizim sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Jamiyatda ijtimoiy sohaning rivojlanish darajasi aholining uy-joy xo'jaligi, turmush sharoiti va kommunal xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq. Uy-joy kommunal xo'jaligi tiziming rivojlanish darajasi aholi turmush sharoitining ichki tashkillashtirilishi va hayot tarzini belgilab beradi. Shuning uchun ham, respublikamizda aynan uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tarmog'ini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Aholiga bevosita shartnoma asosida ko'rsatilayotgan xizmat turlari tarkibidan kelib chiqib kommunal xo'jaligi tizimi tashkilotlari asosan 8 guruhga bo'linadi (3-rasm).



3-rasm. Asosiy kommunal xizmatlar turlari

Uy-joy kommunal xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari moliyasi quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi va mavjud muammolarni ilmiy asoslangan holda hal etishga xizmat qiladi:

- uy-joy kommunal xo'jaligi sohasining yagona tizim sifatida aholi hayot darajasini yaxshilashdagi rolini o'rganish, uning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirish;
- kommunal xo'jaligi sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini belgilaydi hamda moliyaviy masalalarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishning ilmiy asoslangan yo'llarini belgilaydi;
- uy-joy kommunal xo'jaligi tizimini boshqarishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish;
- kommunal xizmatlar narxini shakllantirish, tannarxni kamaytirish va to'lov tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganish;
- uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkiliy va iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish va uy-joy fondini boshqarishda progressiv usullar hamda fan va texnika yutuqlarini keng joriy etish masalalarini o'rganish;
- xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish hamda yuzaga kelgan ehtiyojlar uchun moliyaviy mablag'larni (kredit, grantlar, homiylar mablag'larini) jalb etish yo'llarini izlab topish va boshqa uy-joy xo'jaligini boshqarish bilan bog'liq iqtisodiy masalalarni o'rganish.

Xizmat ko'rsatish sohasi hamda uning moliyasining rivojlanishidan tadbirkorlar bilan bir qatorda davlatning o'zi ham manfaatdordir. Umuman, tadbirkorlikning rivojlanishi natijasida:

- davlat byudjeti mablag' bilan to'ldiriladi;
- yangi ish o'rinlarini tashkil qilish evaziga ishsizlik kamayadi;
- mamlakat bozori zarur mahsulotlar bilan boyitiladi;
- bozorda mahsulotlar narxining pasayishi ro'y beradi;
- aholi daromadlari va yashash farovonligi oshadi;
- tadbirkor o'z moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun kurashga intiladi;

- pirovardida mamlakatda yuqori iqtisodiy-moliyaviy o'sishga va barqarorlikka erishiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikning keskin rivojlanishi uchun faqat bunday muhitlarning o'zi yetarli bo'lmasdan, ularga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmani ham yaratish lozim. Bunday holatlarning aniq ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yanada mustahkamlash uchun hamda bu kabi xizmat turlari faoliyatini va uning moliyaviy masalalarini rivojlantirish hayotiy zaruriyat ekanligi haqidagi masalalarni kengroq tadbiq qilishdan oldin bu xizmat faoliyati va uning moliyaviy masalalariga doir nazariy hamda hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan chora-tadbirlar, huquqiy va me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

1.2. Xizmat ko'rsatish korxonalarida moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning nazariy asoslari

Bozor munosabatlari tobora rivoj topib borayotgan bir davrda mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining hissasi asta-sekinlik bilan oshib bormoqda. Yaqin tarixga nazar tashlaydigan bo'sak, iqtisodiyot deyilganda, asosan moddiy ishlab chiqarish tushunilar edi. Endilikda iqtisodiyot deyilganda uning ko'lami faqat ishlab chiqarish emas, balki minglab xizmat turlarini birlashtirgan sohalar majmuiga aylanib bormoqda.

Jamiyatimiz taraqqiyotining bosh omillaridan biri milliy daromadni yaratuvchanlik faoliyatida ishtirok etuvchi xo'jalik sub'ektlari faoliyatini samaradorligini oshirish va amaldagi iqtisodiy islohotlarning ustivor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda tadbirkorlik faoliyatini keng ko'lamda rag'batlantirish, milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, mamlakat milliy iqtisodiyotining eksport potensialini oshirish kabi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'nalishidagi islohotlar hisoblanadi. Buning uchun esa turli xil mulk shakllarida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va ularning ishlab chiqarish jarayoni samarasini o'sishidan

manfaatdorligini oshirish bo'yicha yetarli moliyaviy-iqtisodiy zamin yaratilish lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat asosida faoliyat yurituvchi har qanday xo'jalik sub'ektlari moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi bosh omillaridan biri ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiyasi, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar bo'yicha olingan pul tushumlari hisoblanadi.

Mahsulot realizatsiyasidan tushumning iqtisodiy mazmuni, birinchidan, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning iqtisodiy-moliyaviy natijalarini puldagi aks etishi hisoblanadi. Shuningdek mahsulot realizatsiyasidan tushum takror ishlab chiqarish jarayonidagi yaratilgan tovar hamda ko'rsatilgan xizmatlarning abstrakt va konkret mehnatini o'zida aks ettiradi, ya'ni takror ishlab chiqarish jarayonining qayta ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol bosqichlaridagi harajatlarning hamma elementlarini va foydani, ya'ni yangidan yaratilgan qiymatni o'z ichiga oluvchi asosiy moliyaviy kategoriya hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining moliyasi moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, u yalpi ichki mahsulotni yaratish, taqsimlash va sarflash jarayonlarini o'z ichiga oladi. U asosan jami ijtimoiy mahsulot va milliy daromad yaratiladigan moddiy ishlab chiqarish sohalariga xizmat qiladi.

Ilmiy izlanishlarimizda ta'kidlaganimizdek, "Mamlakatimiz moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasining mukammal tarzda yo'lga qo'yilganligi, moliyaviy jihatdan yuqori potensialga ega ekanligi hamda xizmat turlarining sifatliiligi muhim rol o'ynaydi"¹.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyasi tadbirkorlik faoliyati davomida xizmat ko'rsatish va uni sotishni tashkil qilish, o'zining moliyaviy resurslarini shakllantirish, mablag' bilan ta'minlashning tashqi manbalarini jalb qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan turli pul munosabatlarda vujudga keladi. Boshqa so'z bilan aytganda xizmat ko'rsatish korxonalarining barcha pulli munosabatlari moliyaviy munosabatlardir. Moliyaviy munosabatlar xizmat

¹ Bo'tayev O'.Sh. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasining ahamiyati. Maqola. Moliya-bank tizimini modernizatsiyalashning dolzarb masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. T.: "Iqtisod-moliya", 2015, 135-b.

ko'rsatuvchi korxonaning o'z kapitalini, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini tashkil qilish va sarflash bilan bir vaqtda sodir bo'ladi.

O'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy munosabatlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha guruhlanishi mumkin:

1) xizmat ko'rsatish korxonasini tashkil qilish vaqtida – ustav kapitalini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan ta'sischi o'rtasidagi pul munosabatlari. Ustav kapitali ishlab chiqarish fondlarini tashkil qilishning dastlabki manbai bo'lib hisoblanadi;

2) xizmat ko'rsatish va sotish bilan bog'liq bo'lgan o'zaro korxonalar o'rtasidagi pul munosabatlari. Bu asosan mol etkazib beruvchilar bilan xaridorlar o'rtasidagi munosabatlardir;

3) qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va joylashtirish, o'zaro kredit berish va qo'shma korxonalarni tashkil eishda hissa qo'shib qatnashish bilan bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish korxonalari o'rtasidagi pul munosabatlar;

4) harajatlarni mablag' bilan ta'minlash, foyda va aylanma mablag'larni taqsimlash va sarflash bilan bog'liq bo'lgan korxonalar bilan ularning filial, sex, brigada kabi bo'limlari o'rtasidagi pul munosabatlar;

5) daromadlarni taqsimlash va sarflash, aksiya va obligasiyalarni chiqarish va joylashtirish, aksiyalar bo'yicha dividendlar va obligasiyalar bo'yicha foiz to'lovlari to'lash bilan bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan ularning ishchi xodimlari o'rtasidagi pul munosabatlar;

6) xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan ularning yuqori tashkilotlari o'rtasida, xolding ichida, korxona a'zo bo'lgan uyushma va assosiasiyalar bilan vujudga keladigan pul munosabatlar. Moliyaviy munosabatlar markazlashtirilgan maqsadli pul fondlarini va rezervlarni tashkil qilish, taqsimlash va sarflash, marketing izlanishlarini, ilmiy-tekshirish ishlarini bajarish, ko'rgazmalar tashkil qilish, investisiya loyihalarini amalga oshirish va

aylanma mablag'larni to'ldirish uchun qaytarish sharti bilan moliyaviy yordamlar ko'rsatish jarayonida vujudga keladi;

7) soliq to'lovlari, byudjetdan tashqari fondlarni tashkil qilish, byudjetdan mablag' bilan ta'minlash va jarimalar qo'llash bilan bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan moliya tizimi o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlar;


8) tijorat banklarida pul mablag'larini saqlash, kredit olish va qaytarish, kredit bo'yicha foiz to'lovlarini to'lash, valyuta sotib olish va sotish jarayonida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan bank tizimi o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlar;

9) mulklarni, ishchi xodimlarning ayrim toifalarini va tadbirkorlik tavakkalchiliginihamda ko'rsatilgan xizmat turlarini sug'urtalash bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan sug'urta kompaniyalari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlar.

Yuqorida keltirib o'tilgan pul munosabatlar xizmat ko'rsatuvchi korxonalar moliyasining mohitini belgilaydi, chunki ularning vositasi bilan davlatning va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ixtiyoridagi turli pul fondlar tashkil qilinadi va sarflanadi. Pul fondlari ma'lum maqsadlar uchun tashkil qilinadi va belgilangan maqsadlar uchun sarflanishi kerak. Pul fondlari o'z maqsadiga sarflanmagan taqdirda moliya intizomi buzilgan deb hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining moliyasi quyidagi bir nechta tamoyillarga asosan tashkil etiladi (4rasm). Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy faoliyat sohalarini va pul mablag'larini sarflash yo'nalishlarini mustaqil tartibda belgilaydi. Xizmat ko'rsatish korxonalari qo'shimcha foyda olish maqsadida boshqa korxonalarning qimmatli qog'ozlarini sotib olish, ularning ustav kapitalini tashkil qilishda hissa qo'shib qatnashish bilan qisqa va uzoq muddatli moliyaviy investisiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Lekin xo'jalik jihatdan to'la mustaqillik haqida gap bo'lishi mumkin emas, chunki korxonalar faoliyatining ayrim tomonlarini davlat tartibga soladi. Haqiqatdan ham korxonalar qonun bilan belgilangan tartibda byudjetga va byudjetdan

tashqari fondlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi. Davlat eksport-import, valyuta va amortizasiya siyosatini belgilaydi.



4-rasm. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalari moliyasining tashkil qilinish tamoyillari

O'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash tamoyili tadbirkorlik faoliyatining asosiy shartlaridan biridir. Bu tamoyil o'zining mablag'lari hisobiga va zarur bo'lganida kredit hisobiga ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, sotish va investisiya harajatlari to'liq qoplanishini anglatadi.

Moddiy manfaatdorlik tamoyili. Tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi – foyda olish bilan belgilanadi. Xizmat ko'rsatish korxonalari ishchi xodimlari uchun bu tamoyil mehnat haqining yuqori darajasi bilan ta'min etilishi mumkin. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati rivojlanishi uchun iqtisodiy sharoitlar yaratilishi bilan amalga oshirilishi mumkin. Korxonaning o'zi yangi yaratilgan qiymatni taqsimlashda iqtisodiy asoslangan mutanosiblikka, ya'ni proporsiyaga rioya qilish bilan bu tamoyil amalda bajaralishiga yordam berishi kerak.

Moddiy javobgarlik tamoyili moliya-xo'jalik faoliyati yuritish va uning natijalari uchun ma'lum javobgarlik tizimi mavjudligini anglatadi. Shartnoma shartlarini, hisob-kitob intizomini, kreditlarni qaytarish muddatlarini va soliq

qonunlarini buzgan korxonalar jarimalar to'laydi. Zarar ko'rib ishlaydigan, o'zining to'lov majburiyatlarini bajara olmaydigan korxonalar bankrot deb e'lon qilinishi mumkin. Yaroqsiz mahsulot ishlab chiqargan hamda sifatsiz xizmat ko'rsatgan ayrim ishchi xodimlarga jarimalar solinadi, mukofotlardan mahrum qilinadi, mehnat intizomini buzgan taqdirda ishdan bo'shatiladi. Korxona rahbarlari soliq qonunchiligini buzganligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Moliyaviy rezervlarni tashkil qilish tamoyili biznesga sarflangan mablag'lar qoplanmay qolishining ma'lum xatarlari bilan bog'liq. Iste'molchilar uchun iqtisodiy kurashda tadbirkorlar o'zining ko'rsatgan xizmatlari uchun to'lanadigan pul mablag'larining o'z vaqtida kelib tushmaslik xatari ostida sotishga majbur bo'ladi. Korxonalarning moliyaviy harajatlari ham sarflangan mablag'larning qoplanmasligi xatari bilan yoki mo'ljaldan kam daromad olinishi bilan bog'liq. Bu tamoyil faoliyat yuritish davomida korxona mushkul ahvolga tushgan paytlarda moliyaviy ahvolni tiklash uchun yetarli bo'lgan rezervlar tashkil etilishini ko'zda tutadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining moliyasi bo'lib, umuman ijtimoiy mahsulot va xizmatni hamda milliy boylikni tashkil etgani va taqsimlangani uchun xalq xo'jaligi tarmoqlari moliyasining asosi hisoblanadi.

Korxonalarning moliyaviy munosabatlari adabiyotlarda quyidagi guruhlarga bo'lib ko'rsatilgan: ¹

- xom-ashyo yetkazib beruvchi korxonalar bilan;
- korxona filiallari bilan;
- ishchi xodimlari bilan;
- yuqori tashkilot, holding kompaniyalari bilan;
- davlat moliyaviy tizimi bilan;
- bank tizimi bilan;
- sug'urta tashkilotlari bilan;

¹ Заяц Н.Е., Василевская Т.И. Финансы предприятий. – Минск: “Вышэйшая школа”, 2005 г., 8-10 стр.

- investitsion institutlar bilan.

Ba'zi adabiyotlarda esa moliyaviy munosabatlar asosan ikkita sohani o'z ichiga qamrab oladi:¹

1. Davlatning markazlashtirilgan pul fondlarini shaklanishi va sarflanishi bilan bog'liq iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar;
2. Iqtisodiy sohalarda tashkilotlarning nomarkazlashgan pul fondlari aylanmasini bilan bog'liq iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar.

Umumiy qilib aytganda, xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasi o'z moliyaviy munosabatlarini amalga oshirish nuqtai nazardan 4 guruhga bo'linadi:

1. Boshqa korxona va tashkilotlar bilan.
2. Korxonaning ichki moliyasi.
3. Yuqori tashkilotlar bilan.
4. Moliya-kredit tizimi bilan.

Moliya-kredit tizimi bilan aloqalar quyidagilar:

1. Turli darajadagi byudjet daromadlari bilan.
2. Banklar bilan.
3. Sug'urta tashkilotlar bilan.
4. Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar bilan.
5. Moliyaviy fond va qimmatli qog'ozlar bozorlari bilan.
6. Investitsiya fondlari bilan.

Korxona pul fondlari bilan moliyaviy munosabatlari:

1. Ustav kapitali.
2. Asosiy vositalar fondi
3. Aylanma mablag'lar fondi.
4. Qo'shimcha kapital.
5. Zaxira kapital
6. Jamg'arma fondi
7. Valyuta fondi.
8. Investitsiya fondi.

¹ Владимирова М.П., Темиров В.С., Теунаев Д.М. Финансы. – Москва: “Кнорус”, 2006 г., 11 стр.

9. Amotizatsiya fondi.

10. Iste'mol fondi.

11. Byudjetga to'lovlar fondi va boshqa fondlar.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyasi ham umumdavlat moliyasi bajaradigan taqsimot va nazorat funksiyalarini bajaradi.

Taqsimot – bu ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va iste'mol o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in. Taqsimot funksiyasi tufayli moliya takror ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatadi, uning barcha bosqichlarida iste'mol qilingan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish vositalarini qoplash, turli shakllardagi daromadlarni barpo etish, hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ehtiyojlarini qondirish va xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun zarur bo'ladigan, maqsadli fondlarni tashkil etishga faol ta'sir ko'rsatadi. Ushbu funksiya asosida umumdavlat ehtiyojlari ta'minlanadi, noishlab chiqarish soxasini saqlash va rivojlantirish uchun resurslar shakllantiriladi. Lekin taqsimot funksiyasi, uning serqirraligiga qaramasdan, moliyaga xos barcha xususiyatlarni to'liq ochib bermaydi.

Gap shundaki, moliya korxonalarining va butun tarmoq iqtisodiyotining ahvolini ma'lum kategoriyalar vositasida obyektiv aks ettirish, shu bilan birga ularni nazorat qilish layoqatiga ham ega. Mazkur xususiyat nazorat funksiyasi orqali nomayon bo'lib, buxgalteriya, statistik va operativ (tezkor) hisobotlardagi ko'rsatkichlarda mujassamlashgan moliyaviy axborotlar vositasi bilan amalga oshiriladi. Bu ko'rsatkichlar korxona faoliyatini va uning natijalarini har tomonlama baholash imkonini beradi, ya'ni foyda va rentabellik darjasi xo'jalik faoliyatining natijasini belgilaydi, zararlar va yo'qotishlar mavjudligi mazkur korxona ishlarini jiddiy taxlil qilish zarurligidan dalolat beradi. Tahlillar asosida aniqlangan noxush holatlarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, moliya so'm bilan nazorat qilish orqali faoliyat samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatadi. U xizmat ko'rsatuvchining boshqa korxonalar bilan, ya'ni etkazib berilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlarga haq to'lashda, shartnoma majburiyatlariga rioya qilishda

hamda moliya-kredit muassasalari bilan o'zaro munosabatlarida, ya'ni soliqlar bo'yicha to'lovlar, bank kreditlarini olish va qaytarish, byudjetdan mablag' bilan ta'minlashda amalga oshiriladi. Korxona ichida mehnatning miqdori va sifati, asosiy va aylanma mablag'larni, hamda rag'batlantirish fondlarini tashkil etish va ishlatish so'm bilan nazorat qilinadi.

Nazorat funksiyasi tomonidan yuborilgan "signallar" tegishli ko'rsatkichlarning miqdor parametrlari orqali o'z aksini topganligi bois, moliyaviy axborotlarni ishonchliligi to'grisidagi masala keskinlashadi. Chunki sifatli axborot bilan taminlangandagina asosli va samarali qarorlar qabul qilish mumkin. Nazorat funksiyasi taqsimot funksiyasidan ajralmagan holda amalga oshiriladi. Ularning birgalikda amal qilishi moliyaning iqtisodiy mohiyatini to'laligicha ro'yobga chiqaradi.

Izlanish natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaning funksiyalari va ularni turkumlash bo'yicha iqtisodchi olimlar orasida yagona fikr yo'q. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan moliya sohasida dunyoga taniqli olimlar jumladan, A.M.Birman, E.A.Voznesenskiy, A.M.Aleksandrov, M.Z.Pizengols, S.I.Kovanov, S.B.Valter, N.P.Jevtyak, N.G.Socheva va boshqalarning asarlarini tahlil qilish natijasida moliya asosan ikkita funksiya bajarishi ta'kidlangan. Masalan, professor N.H.Haydarov ta'kidlashicha, «moliyaning ichki mohiyatini to'liq ochib beruvchi funksiyalari haqidagi olimlar va yetuk amaliyotchilar fikrlaridan tahliliy xulosa chiqarib, moliya asosan ikkita funksiyani bajaradi, deyishga asos bor va ular:

1. Taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi.
2. Nazorat funksiyasi.

Moliyaning yuqorida ko'rib chiqilgan funksiyalari barcha tarmoqlar va xo'jalik sub'ektlar uchun umumiydir. Professor N.H.Haydarov ayib o'tganlaridek, "Xizmat ko'rsatish sohasidagi moliyaviy munosabatlar sanoat tarmog'i yoki qurilish sohasiga qaraganda qisman farq qiladi. Xizmat ko'rsatish sohasida Tovar va mahsulotlar yoki asosiy vositalar bilan bo'ladigan moliyaviy munosabatlar ko'lami boshqa tarmoq va sohalarga qaraganda nisbatan sezilarsiz

bo'lsa-da, lekin iqtisodiy muomala munosabatlari bir necha bor yuqori bo'ladi. Mana shu kabi xususiyatlar, o'z navbatida, moliyaviy munosabatlarning o'zgacha bo'lishiga asos bo'ladi"¹.

Xizmat ko'rsatish faoliyatining turli shakllarida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlari asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarini shakllantirish, turli shakldagi xo'jalik operatsiyalari moliyaviy natijalarini taqsimoti jarayonidagi pul jamg'armalari hisobiga tashkil qilinuvchi moliyaviy resurslar vositasida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda 2006-yildan Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining "Faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning statistik tasnifi" asosida xalqaro talablarga to'la uyg'unlashgan "O'zDT 010:2006. O'zbekiston Respublikasi faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tasniflagichi" joriy etildi. Har bir xizmat turning o'ziga xos moliyaviy munosabatlari yo'lga qo'yilgan. Ushbu tasniflagichga ko'ra respublikamiz iqtisodiyotida 40 dan ortiq xizmat ko'rsatish turlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda (20-ildavda keltirilgan)².

Ularning xar biri moliyaviy munosabatlarning aktiv ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritish imkoniyatlarini oshiradi.

Ma'lumki, korxonaning oldidagi byudjetga to'lovlar va ajratmalar, byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar shaklidagi tulovlarning nafakat foydadan to'lanadi, balki ularning ma'lum qismi, tannarxni tarkibiga ham kiritiladi. Shuning uchun ham korxonaning xususiy moliyaviy resurslarini shakllanish manbalari yalpi foyda emas balki yalpi daromad hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy resurslarni shakllantirishning asosiy manbai xo'jalik sub'ektlari darajasida yalpi daromad va amortizatsiya hisoblanadi. Umumiy olib qaraganda uning bosh manbai mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushum hisoblanadi. Chunki, yalpi daromadni shakllanishi ham amortizatsiya ajratmalarini shakllanishini, ham tannarx

¹ Haydarov N.H. Xizmat ko'rsatish sohasida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish. Maqola. O'zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. I qism, T.: "Iqtisod-moliya", 2015, 28-b.

² Jadval O'zDT 010:2006. "O'zbekiston Respublikasi faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tasniflagichi". ma'lumotlari asosida tuzildi va muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.

harajatlari elementi sifatida mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushum taqsimlanishi natijasida chiqariladi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar doirasida shakllantiriladigan moliyaviy resurslarning o'lchami, zaruriy kapital quyilmalarni moliyalashtirish, aylanma mablag'larni ko'paytirish, hamma turdagi moliyaviy majburiyatlarni amalga oshirish, ijtimoiy xarakterdagi ehtiyojlarni ta'minlash imkoniyatlarini aniqlaydi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushumning tarkibiy elementi sifatida moliyaviy resurslar fondli va nofondli ko'rinishlarda foydalaniladi. Chunki, moliyaviy resurslarni bir qismi hisobiga turli xil pul fondlari shakllantiriladi, shuningdek uning ma'lum bir qismi, korxonaning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning moliyasi o'z kapitalini va pul mablag'larining maqsadli fondlarini tashkil qilish va sarflash bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlarni belgilaydi.

1.3. Bozor munosabatlarini rivojlantirishda xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini tashkil etishning huquqiy asoslari

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy nuqtalaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iborat. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, – “Mustahkam huquqiy negiz bo'lgandagina o'zini oqlamagan eski tizimni to'la ishonch bilan qayta qurish, madaniy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan yangi jamiyat qurish mumkin. Hozirgi mutlaqo yangi siyosat – iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni aks ettiruvchi yangi qonunlar majmuiga biz barpo etayotgan yosh ijtimoiy binoga barqarorlik, demokratik xarakter baxsh etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Respublikaning barcha aholisi manfaatlarini ta'minlashga, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar mavjud bo'lgandagina, tub o'zgarishlarning kuchli ijtimoiy asoslari yaratiladi. O'zbekistonning yorqin kelajagiga ishonch uyg'otiladi. Shu sababli birinchi bosqichda biz islohotlarning o'z huquqiy negizini yaratishga

asosiy e'tiborni qaratib keldik"¹.

Yillar davomida mamlakatimizda qonun chiqarish tiziminig o'zini emas, balki qonun va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda qabul qilish mexanizmi ham vujudga keldi. Natijada mamlakatimizda bozor munosabatlariga o'tishning qator huquqiy va asoslarining jahon andozalari talablariga mos bo'lgan shakllari yaratildi va yaratilib borilmoqda. Shu o'rinda bozor infrastrukturasini yaratish va uning faoliyatiga xos jarayonlarni tartibga solishni ta'minlaydigan qonun me'yorlari faol shakllantirib borildi. Ularning asosiy qoidalari "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi, "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi, "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida" kabi qonunlarda o'z aksini topgan.

Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi ilgari davlat tasarrufida bo'lgan korxonalarning turli mulkchilik shaklida faoliyat yuritishini taqazo etdi. Chunki mulk o'z egasini topmas ekan bozor sharoitida raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarilmaydi, sifatli xizmatlar ko'rsatilmaydi va bozorda o'z o'rnini topish hamda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish samarasiz bo'ladi.

1991-yil 15-fevralda respublikamizda "Korxonalar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Undan keyin "Yer to'g'risida", "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati va uni qo'llab-quvvatlash to'g'risida", "Ijara to'g'risida", "Aksionerlik jamiyatlari va aksiyadorlarni xuquqlarni ximoya qilish to'g'risida", "Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida", "Bankrotlik to'g'risida", "Xususiy korxonalar to'g'risida" va boshqa bir qator qonunlar qabul qilinib turli mulkchilik shaklidagi korxonalarning faoliyat yuritishining huquqiy asoslarini yaratib berdi. Bu qonunlar respublikamizga chet el investitsiyalarini kirib kelishi uchun keng yo'l ochib berdi, chunki qonunlarda chet el investitsiyalariga juda ham ko'p moliyaviy yengilliklar berish ko'zda tutilgan.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: "O'zbekiston", 1995, 29-b.

Xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasining asosiy elementlaridan bo'lgan moliya-bank tizimi infratuzilma tizimida alohida o'rin tutadi, chunki, bozor islohoti pulga asoslangan. Shu boisdan moliya-kredit sohasini isloh etishga katta e'tibor berildi.

Bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan bir sharoitda respublikada ishlab chiqarish bilan bir qatorda xizmat ko'rsatish sohasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar ham ushbu soha rivoji uchun mukammal jihatdan ishlab chiqqan me'yoriy-huquqiy hamda iqtisodiy siyosati natisida ijobiy natijalarga erishmoqda. Respublikamizda keyingi yillarda xizmat ko'rsatishni yanada rivojlantirish hamda uning sifatini tobora yaxshilashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirish borasida hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlardagi asosiy vazifa ham aynan demokratik jamiyatga asoslangan iqtisodiy tizimni takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu sohani rivojlantirishda Prezidentimizning "2012–2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Qarori ijobiy natijalarni bermoqda. Ishlab chiqilgan dasturga muvofiq 2016-yilgacha mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 55 foizgacha oshirilishini nazarda tutilgan (8-jadval).¹

Ishlab chiqilgan dastur ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasining asosiy yo'nalishlarini 2012-2016 yillarda rivojlantirish ko'rsatkichlariga asosan hududlarda asosiy e'tibor komputer va axborot texnologiyalarini, moliyaviy xizmatlarni, qurilish xizmatlarini hamda savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirish pirovard natija sifatida qaralgan. Ushbu yo'nalishlarning o'sish tendensiyasini joriy yillarda o'rtacha 2,3 barobarga yetkazish maqsad qilib belgilangan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2012–2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Qarori, Toshkent sh., 2012-yil 10-may, PQ-1754-son

**2012–2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish
sohasining asosiy yo‘nalishlarini rivojlantirish ko‘rsatkichi
(taqqoslama qiymatda)**

o‘tgan yilga nisbatan % da

№	Xizmat turlari	Xizmatlarning o‘shish rejasi					2016-yil 2011-yilga nisbatan, %da
		2012- yil	2013- yil	2014- yil	2015- yil	2016- yil	
	YIM da xizmatlarning ulushi (%)	52,0	52,5	53,0	54,0	55,0	
	Xizmatlar– jami	114,9	115,6	116,2	116,9	117,4	2,1 barobar
	shu jumladan:						
1.	Aloqa va axborotlashtirish xizmati (mobil aloqa, “Internet” setiga ulanishni ta’minlash, televideniya kabel aloqasi, pochta va elektraloqa xizmatlari bilan)	116,9	117,2	117,5	117,8	118,1	2,2 barobar
2.	Kompyuter dasturlash xizmati (elektron ta’lim va konsultatsiya xizmatlari bilan)	118,0	118,4	118,8	119,8	119,8	2,4 barobar
3.	Moliyaviy xizmatlar (bank, sug’urta, moliyaviy lizing xizmatlari bilan)	116,0	116,3	116,9	117,3	117,7	2,2 barobar
4.	Transport xizmatlari (logistik xizmatlar bilan)	111,2	112,5	113,7	115,0	115,7	1,9 barobar
5.	Qurilish xizmatlari (bino qurish va ta’irlash xizmatlari va injener uskunalarini ta’irlash bilan)	115,9	116,7	117,4	118,1	118,4	2,2 barobar
6.	Texnologik uskunalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’irlash xizmati	116,8	117,8	118,3	119,1	119,3	2,3 barobar
7.	Qishloq xo‘jaligi texnikalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’irlash xizmati	117,2	117,8	118,2	118,7	118,8	2,3 barobar
8.	Turistik xizmatlar (mehmonxona xizmati bilan)	116,1	116,6	117,5	118,9	119,1	2,3 barobar
9.	Savdo va umumiy ovqatlanish	118,4	118,5	118,6	118,8	119,0	2,4 barobar
10.	Maishiy xizmatlar	117,0	117,6	118,1	118,9	119,2	2,3 barobar
11.	Ta’lim xizmatlari	110,6	111,5	112,8	113,6	114,0	1,8 barobar
12.	Sog‘liqni saqlash xizmatlari	117,6	118,0	118,3	118,6	118,8	2,3 barobar
13.	Boshq xizmatlar	115,5	115,9	116,1	116,6	116,9	2,1 barobar

Bugungi kunda ham xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan bo‘lib qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan dasturga muvofiq respublikada «Mikrokreditbank» OATB mablag'lari hisobidan 2012–2016 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga yo'naltiriladigan jami 189 924 mln. so'mlik imtiyozli kredit resurslarining maqsadli foydalanilishi nazarda tutilgan. Shundan joriy yilda soha rivoji uchun 45 900 mln. so'mlik imtiyozli kredit resurslari ajratilish rejasi belgilangan (9-jadval).¹

9-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida “Mikrokreditbank” OATB mablag'lari hisobidan 2012-2016 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan imtiyozli kredit resurslarining hajmi

mln. so'm

№	Hududlarning nomlanishi	2012–2016 yillar	shu jumladan:				
			2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil
	O'zbekiston Respublikasi	189 924	21 180	27 594	35 590	45 900	59 660
	shu jumladan:						
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	12 138	1 381	1 760	2 270	2 925	3 802
2.	Andijon viloyati	18 570	2 075	2 697	3 479	4 487	5 832
3.	Buxoro viloyati	13 744	1 529	1 997	2 576	3 323	4 319
4.	Jizzax viloyati	14 414	1 631	2 090	2 696	3 477	4 520
5.	Qashqadaryo viloyati	20 440	2 180	2 986	3 851	4 967	6 456
6.	Navoiy viloyati	12 752	1 425	1 852	2 389	3 081	4 005
7.	Namangan viloyati	12 282	1 372	1 784	2 301	2 968	3 857
8.	Samarqand viloyati	9 651	1 078	1 402	1 808	2 332	3 031
9.	Surxandaryo viloyati	14 252	1 592	2 070	2 670	3 444	4 476
10.	Sirdaryo viloyati	12 220	1 263	1 792	2 311	2 980	3 874
11.	Toshkent viloyati	14 990	1 675	2 177	2 808	3 622	4 708
12.	Farg'ona viloyati	13 404	1 497	1 947	2 511	3 239	4 210
13.	Xorazm viloyati	14 706	1 677	2 131	2 748	3 544	4 606
14.	Toshkent shahri	6 361	805	909	1 172	1 511	1 964

Bu esa respublikamiz hududlarida xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida 2006 – 2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2012–2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida”gi Qarori, Toshkent sh., 2012-yil 10-may, PQ-1754-son

jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2006-yil 17-apreldagi PQ-325-sonli Qarori bilan belgilangan quyidagi ro'yxat bo'yicha xizmat ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun foyda solig'i hamda yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlarning amal qilish muddati 2017-yilning 1-yanvarigacha uzaytirildi:

1. Moliyaviy, bank xizmatlari

- a) Lizing xizmatlari
- b) Sug'urta bozorining professional ishtirokchilarining xizmatlari
- c) Auditorlik xizmatlari
- d) Buxgalteriya hisobini yuritish xizmatlarin
- e) Mikro kreditlash xizmatlari
- f) Tashkilotlarga soliq maslahati ko'rsatish xizmatlari

2. Maishiy xizmatlar

- a) Poyafzal ta'mirlash va charmdan mahsulot tayyorlash xizmati
- b) Soatsozlik xizmatlari
- c) Maishiy elektron va elektr jihozlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (televizorlar, audiovideoqurilmalar, kompyuterlar, printer texnikalari, muzlatkichlar, kondisionerlar va b.)
- d) Qishloq joylardagi sartaroshxona va go'zallik salonlari xizmatlari
- e) Qishloq joylardagi kiyim tikish va ta'mirlash xizmatlari
- f) Qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurilishi asosida barpo etilgan joylarda choyshablarni yuvish uchun qabul qiladigan korxona xizmatlari
- g) Qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurilishi asosida barpo etilgan joylarda ximyoviy tozalash korxonalari xizmatlari

3. Boshqa xizmatlar

- a) Veterenar xizmatlari
- b) Ta'lim xizmatlari, kompyuter bilan ishlash xizmatlari bilan
- c) Sanatoriya, bolalarni sog'lomlashtirish muassasalari, bolalar sport muassasalari va seksiyalari
- d) Bolalarga, nogironlarga, keksa fuqarolarga g'amxo'rlik qilish xizmatlari

- e) Rieltorlik xizmatlari
- f) Informatsion-resurs markazlari, informatsion-kutubxona markazlari, elektron ta'lim xizmatlari
- g) Qishloq joylarda yakka tartibda uy-joylarni qurish xizmatlari
- h) Qishloq joylarda yo'l infratuzilma kompleksi xizmatlari
- i) Qishloq joylarda kompyuter dasturlash (maslahat berish bilan), xizmatlari.

Yuqoridagi dasturga muvofiq sanab o'tilgan xizmat ko'rsatish korxonalari uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlari, ularning yalpi daromadlari tarkibining 80 foizidan ortiq qismini xizmat ko'rsatish sohasidan kelib tushadigan daromadlar tashkil qilsagina qo'llaniladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash hamda baholash natijasida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot tarkibida uning hajmini oshirish imkoniyati oshadi, ya'ni bunda xizmat ko'rsatish sohasining ulushi xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligi, eksport tovarlar tarkibida xizmatlarning ulushi, bu sohaga sarflangan investitsiyalarning hajmi va uning moddiy boylik zaxirasi bilan belgilanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasining barcha tarmoqlarini mamlakatimizning aholi yashash manzillari, qishloq va tumanlarda keng miqyosda rivojlantirish borasida ham izchil islohotlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013 – 2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori ham ushbu soha rivoji borasida me'yoriy-huquqiy asos bo'lmoqda.

Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal va muvozanatlashgan tarzda rivojlantirish, qishloq aholisining zamonaviy yuqori texnologik va bozor xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, buning asosida yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlari oshirilishini ta'minlash maqsadida hamda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasi moliyasini yanada rivojlanishi borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilishi

ushbu qarorda belgilangan va imtiyozli kreditlar ajratilishi ko'zlangan (10-jadval)¹.

10-jadval

Tijorat banklari kesimida 2013 – 2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun tijorat banklarining kreditlari

mln. so'm

№	Tijorat banklari	2013 – 2016 yillar	shu jumladan:			
			2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil
	O'zbekiston Respublikasi	406 409,7	75 709,9	90 852,0	109 021,1	130 826,7
	shu jumladan:					
1.	“Xalq bank” DTB	91 395,5	17 026,0	20 431,2	24 517,4	29 420,9
2.	“Mikrokreditbank” OATB	67 433,3	12 562,1	15 074,5	18 089,4	21 707,3
3.	TIF Milly banki	40 980,6	7 634,2	9 161,1	10 993,3	13 192,0
4.	“Asaka” DATB	29 327,7	5 463,4	6 556,1	7 867,4	9 440,8
5.	“Agrobank” OATB	54 432,7	10 140,3	12 168,6	14 601,3	17 522,5
6.	“O'zsanoatqurilishbank” OATB	20 407,8	3 801,8	4 562,1	5 474,5	6 569,4
7.	“Ipoteka-bank” ATIB	25 646,3	4 777,7	5 733,2	6 879,6	8 255,8
8.	“Qishloq qurilish bank” OATB	40 962,3	7 630,8	9 157,0	10 988,4	13 186,1
9.	Boshqa tijorat banklari	35 823,5	6 673,6	8 008,2	9 609,8	11 531,9

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadigi, iqtisodiy islohotlarni yanada rivojlantirish yo'lida xizmat ko'ratish sohasining rivoji nafaqat shahar markazlarida, balki respublikamizning turli chekka qishloqlarida ham yo'lga qo'yilganligi bo'yicha ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy asos fikrimizning yaqqol tasdig'i bo'lib turibdi.

So'nggi yillarda respublikada servis sohasi va xizmat ko'rsatish sohalarini qo'llab-quvvatlash borasida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, bu sohadagi alohida olingan tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qator dasturiy yo'nalishlar provardida xizmat ko'rsatish va servis sohasining rivojlanishiga, shuningdek uy-joy xo'jaligiga xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan o'sishiga olib kelmoqda. Buning qonuniy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 21-maydagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2013 – 2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori, Toshkent sh., 2013-yil 17-aprel, PQ-1957-son.

“O‘zbekiston Respublikasida 2010-yilga qadar xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi PQ-640-sonli va 2011-yil 17-apreldagi “Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to‘g‘risida”gi PF-2832-sonli Farmonlarini va mazkur hujjatlar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini isloh qilishga kirishildi. Davlat tasarrufida bo‘lgan uy-joy fondi xususiylashtirildi, tarmoqning asosiy Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi¹ qabul qilindi, ushbu kodeks 11 ta bo‘lim va 141 moddadan iborat, kommunal xo‘jaligi tizimi faoliyatini bozor mexanizmi tamoyillari asosida tashkil etishni ta‘minlovchi qonuniy-me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va uni kompleks rivojlantirishga qaratilgan aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Konsepsiyasi² hamda tegishli dasturlar ishlab chiqildi. Mazkur hujjatlar asosida respublika uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab respublikamizda davlat uy-joy fondining xususiylashtirilishi ko‘p kvartirali uy-joylarda mulkchilik huquqining o‘zgarishiga olib keldi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida davlatga tegishli bo‘lgan uy-joy fondi xususiylashtirildi, ya‘ni uyning yagona egasi – davlat – o‘z huquqlarini sobiq kvartira ijarachilariga berdi va ular nafaqat o‘z xonadonlarining egasiga, ayni paytda uydagi umumiy mulk egasiga aylandi.

Xususiylashtirish jarayonini tashkil etish va fuqarolarni ortiqcha ovoragarchiliklarsiz o‘zlari ijarada turgan uy-joylarini xususiylashtirishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 1-martdagi 114-sonli Qarori bilan “O‘zbekiston

¹ O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda 713-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan, 1999-yil 1-apreldan amalga kiritilgan.

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 3-noyabrda 461-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Konsepsiyasi”.

Respublikasidagi davlat uy-joy fondini xususiylashtirish, uni saqlash va undan foydalanish to'g'risida"gi Nizom ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

1993-yil 7-mayda "O'zbekiston Respublikasida davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonunga muvofiq davlat uy-joy fondini xususiylashtirish 1994-yilning may oyiga qadar deyarli to'liq yakunlandi. Shu davrda respublikadagi davlat ko'p xonadonli uy-joy fondining deyarli 98 %i xususiylashtirildi.

Uy-joy fondi boshqaruvi tizimini o'zgartirishdan asosiy maqsad – yangi uy-joy mulkdorlariga mulklarini saqlash bo'yicha huquqlar, vazifalari, va moliyaviy mas'uliyatini ularning zimmasiga yuklashdan iborat.

Tajriba va sinovlar natijasi Respublikada ko'p kvartirali uy-joydan foydalanish va uni saqlashning samarali va maqbul shakli Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati (XUJMSH) ekanligini ko'rsatdi. Hozirgi kunda ularning faoliyati O'zbekistonda har to'rtinchi kishi hamda shahar aholisining 70 %dan ortig'iga o'z samarasini ko'rsatmoqda. Huquqiy asosga ega bo'lgan dastlabki uy-joy mulkdorlar shirkati 1999-yilning oxirida – aprel oyida O'zbekiston Respublikasining "Uy-joy mulkdorlari shirkati to'g'risida"gi Qonun qilinganidan so'ng paydo bo'ldi. 2006-yil 22-fevralda yangi tahrirdagi "Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bugungi kunda respublikada 4753 ta xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyat yuritmoqda hamda o'z tarkibidagi 29371 ta ko'p qavatli uylarga xizmat ko'rsatmoqda.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 17-apreldagi PF-2832 "Kommunal xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to'g'risida"gi Farmoniga asosan iste'molchilarning to'lov intizomi pastligicha oldini olish, resurslar sarfining hisobga olinishi zarur darajada ta'minlanlash, tarmoqdagi bir qator korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy ahvoli yaxshilash, ta'mirlash-tiklash ishlarini o'z

¹ <http://uzkommunhizmat.uz/> sayti ma'lumotlari.

vaqtida o'tkazish, yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini ochishga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 26-fevraldagi PF-3038-son "Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyatini rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati uchun qulay sharoit yaratish, uy-joy fondini saqlashda va undan tegishli foydalanishni ta'minlashda, ta'mirlash-tiklash ishlarini o'z vaqtida o'tkazishda, uy-joylar atrofidagi hududni obodonlashtirishni yaxshilashda mazkur shirkatlarning rolini oshirish, shuningdek ularning moddiy-texnikaviy va moliyaviy bazasini mustahkamlash asos qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 1-martdagi 74-son "Uy-joy mulkdorlari shirkatlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati uchun zarur qulay shart-sharoitlar yaratish asos qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-avgustdagi PQ-445-son "O'zbekiston "O'zkommunxizmat" agentligi faoliyatini takomillashtirish va kommunal xo'jalik korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq O'zbekiston "O'zkommunxizmat" agentligi faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishni ta'minlash, kommunal xizmatlar uchun tariflarning asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik asosiy vazifa qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 4-oktyabrdagi 454-son "Uy-joy mulkdorlari shirkatining namunaviy ustavini va uy-joylarni xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati boshqaruviga berish va uy-joy fondini saqlash va tuzatish masalalarida davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 12-apreldagi 64-son "Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va turar-joylarga xizmatlar ko'rsatishning aniq bozorini

shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari xizmat ko'rsatish sohasining yanada mukammalashuviga asos bo'ldi.

Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, "O'zkommunxizmat" agentligining 2006-yil 25-dekabrda 104, 17, 01-1371-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy mol-mulkni, yer uchastkasini va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining mol-mulkini saqlash bo'yicha joy mulkdorlarining majburiy badallarini shakllantirishda harajatlar tarkibini aniqlash hamda uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha pudrat tashkilotlarining xizmatlari uchun rentabellikning cheklangan darajasini joriy etish bo'yicha" Nizomga muvofiq XUJMSh notijorat tashkilot bo'lganligi sababli asosiy faoliyati doirasida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq barcha turdagi soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilingan. Daromadlar va harajatlar smetasini tuzish, shuningdek majburiy badallarni aniqlash chog'ida yuqoridagi to'lovlar hisobga olinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 25-apreldagi 11/3-son "Tijorat banklari tomonidan uy-joy mulkdorlari shirkatlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi Qaroriga muvofiq XUJMShlariga o'z moliyaviy-iqtisodiy ahvolini yanada barqarorlashtirish hamda xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy asos ishlab chiqildi.

Yuqorida keltirib o'tilgan huquqiy asos bozor munosabatlarini yanada mustahkamlash uchun xizmat qilmoqda. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, erkin iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning taraqqiyoti sohada huquqiy-me'yoriy bazani izchil va doimiy takomillashtirib borish bilan bog'liq ekan. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda qabul qilingan tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlantirishga oid qonunlar, farmonlar, hukumat qarorlari va sohalar bo'yicha tegishli vazirliklarning me'yoriy hujjatlari mamlakatimiz iqtisodiyotini bosqichma-bosqich erkinlashtirib borishga qaratilmoqda. Chunki, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishidan tadbirkorlar bilan birga davlatning o'zi ham manfaatdordir. Zero, tadbirkorlikning rivojlanishi natijasida:

- davlat byudjeti mablag' bilan to'ldiriladi;
- yangi ish o'rinlarini tashkil qilish evaziga ishsizlik kamayadi;
- mamlakat bozori zarur mahsulotlar bilan boyitiladi;
- bozorda mahsulotlar narxining pasayishi ro'y beradi;
- aholi farovonligi oshadi;
- tadbirkor o'z yashovchanligini ta'minlash uchun kurashga intiladi;
- pirovardida mamlakatda yuqori iqtisodiy o'sishga erishiladi.

I bob bo'yicha xulosa

Shunday qilib biz ilmiy ishimizning ushbu bo'limida xizmat ko'rsatish sohasi o'zi qanday faoliyat va uning moliyaviy masalalari, bu soha tizimining umuminsoniy faoliyat va shaxsiy insoniy faoliyat taraqqiyotidagi roli va ahamiyati, uning tarkibiy elementlari va vazifalari nimadan iborat, ularning huquqiy asoslari hamda xizmat ko'rsatish korxonalarida moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning nazariy asoslari va xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatining o'ziga xos jihatlari hamda xizmat ko'rsatish sohasi moliyasining huquqiy va me'yoriy asoslariga to'xtalib o'tishga harakat qildik.

Muxtasar qilib aytganda, asosiy vazifalarimizdan biri xizmat ko'rsatish sohasini va uning moliyaviy barqarorligini boshqa tarmoqlarga nisbatan jadal rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini ilg'or qo'llagan holda xizmat ko'rsatish sohasining yangi tarmoqlarini kashf qilish, sohada tadbirkorlik faoliyatini yanada kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, qishloq joylarida istiqomat qilayotgan aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini ko'paytirish taraqqiyotimizning bugungi bosqichida inson manfaatlari uchun xizmat qilishi shart va bundan asosiy maqsad moliyaviy-iqtisodiy samaradorlikka erishishdir.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda quyidagi asosiy yo'nalishlarning bajarilishi respublikamiz iqtisodiyotini yanada yuksalishiga olib keladi, ya'ni:

- ✓ xizmatlar ko'rsatish sohasida tadbirkorlarning faolligini yanada kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida rasmiyatchilik to'siqlarini bartaraf etish;
- ✓ shahar va qishloqlarda zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish orqali band bo'lgan aholi sonini bir necha barobar oshirish;
- ✓ aloqa va axborot xizmatlari, uyali aloqa xizmatlari, interaktiv televideniya xizmatlarini, yangi istiqbolli – yuridik, konsalting, bank, moliya, sug'urta, lizing va baholash xizmat turlarini jadal rivojlantirish;
- ✓ xizmatlar eksportini ko'paytirish va qo'shimcha imtiyozlarni yanada takomillashtirish;
- ✓ eng asosiysi, foyda solig'i hamda yagona soliq to'lovi bo'yicha yanada imtiyozlarning joriy etishi;
- ✓ xizmatlar ko'rsatish sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash albatta o'zining ijobiy samarasini beradi.

Bugungi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti eng avvalo, inson manfaatlarini ko'zlaydi. Insonga munosib turmush tarzini yaratish vazifasini ijobiy hal etilishi esa xizmat ko'rsatish sohasining taraqqiyotiga bog'liq hisoblanadi.

Shunday qilib, xizmatlar, ularning turlari va ular bilan bog'liq muammolar xususida hali olimlar ham, xalqaro tashkilotlar ham aniq bir to'xtamga kelishgan emas. Yuqoridagi bobda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, xizmatga berilgan ta'rifimizga asoslanib, ularni quyidagi guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiq:

- ✓ inson kamoloti bilan bog'liq xizmatlar;
- ✓ oila ravnaqi bilan bog'liq xizmatlar;
- ✓ mehnat jamoalari takomillashuvi bilan bog'liq xizmatlar;
- ✓ hudud taraqqiyoti bilan bog'liq xizmatlar;
- ✓ davlat ravnaqi bilan bog'liq xizmatlar;
- ✓ jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq xizmatlar.

Taraqqiyotimizning bugungi bosqichida u xoh xizmat ko'rsatish sohasi, xoh ishlab chiqarish bo'lsinki, ulardan ko'zlangan asosiy maqsad inson manfaatlarini uchun xizmat qilishi va iqtisodiy samaradorlikka erishishdir.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan xizmatlarning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq barcha soha va tarmoqlarni qamrab olishi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, xizmat ko'rsatish sohasi, insonni iqtisodiy va biologik sub'ekt sifatida takomillashtiradi. Chunki, inson ishlab chiqarish jarayonida o'zining bevosita jonli mehnati bilan ishtirok etadi va mehnatining sifati hamda samaradorligi uning malakasiga bog'liqdir. Insonning malakasi esa ta'lim xizmatlarining sifatiga bog'liq bo'lib, bu unga iqtisodiy sub'ekt sifatida qarashni taqozo etadi. Insonga biologik sub'ekt sifatida qaralishi uning iqtisodiy sub'ekt ekanligi bilan bevosita bog'liqdir, chunki sog'lom odamgina samarali mehnat qilishi, jamiyatga ko'proq naf keltirishi mumkin. Shu tufayli xizmat jarayonida insonlar uchun sog'lom turmush tarzini yaratishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ikkinchidan, turli xizmatlar natijasida ishlab chiqarish va iqtisodiyotning boshqa real sektorlari rivojlanishi uchun tegishli sharoitlar yaratib beriladi, ko'p hollarda u ishlab chiqarish sohasining infratuzilmasi sifatida namoyon bo'ladi, chunki shunday xizmatlar borki, ularsiz ishlab chiqarishni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu tufayli xizmat bevosita ishlab chiqarish sohasida ham keng qo'llaniladi.

Uchinchidan, xizmat ko'rsatish sohasi aholi bandligini oshirish bilan birga ularning moddiy farovonligini yuksaltirish imkoniyatini ham tug'diradi. Xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini ochish ancha arzon va bu uning xususiy sektorda tez rivojlanish imkonini yaratadi. Ish o'rinlarining ochilishi, kishilarni ish bilan band qilish ularning daromadlari tarkibida tadbirkorlikdan olinadigan daromadlarni ko'paytirish oilalar farovonligini oshirish imkoniyatini beradi.

To'rtinchidan, xizmat ko'rsatish sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotini yaratishda, uning iste'mol bozorini to'ldirishda katta hissa qo'shadi. Xizmat ko'rsatishni rivojlantirish mamlakat xizmat bozorini xizmatlar bilan to'ldiradi va

jamiyatning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkoniyatini yaratadi, mamlakat yalpi ichki mahsuloti ko'payishini ta'minlaydi. Shu tufayli mamlakat yalpi ichki mahsulotida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 2016-yilga borib qariyb 55 foizdan ko'proqqa oshirilishi ko'zda tutilganligi bejiz emas.

Beshinchidan, xizmat ko'rsatish sohasi o'z moliyaviy munosabatlarini shakllantirishi bilan bir qatorda, foyda ko'radilar, davlat byudjetini soliq bilan to'ldirib borishda ishtirok etadi. Har bir xizmat ko'rsatuvchi sub'ekt yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat yoki mahalliy byudjetga soliq to'laydi, shu bilan birga ularning bir qismi yollangan xodimlar sifatida oylik maosh bilan ta'minlangan bo'ladilar, natijada ular daromad solig'i bilan davlat byudjetining shakllanishiga o'z hissalarini qo'shadilar.

II BOB. MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONOLARI MOLIVASINING HOLATI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

2.1. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar molivasini tashkil etish amaliyoti

Mamlakatimizda hukumatimizning servis sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan siyosati tufayli yil sayin xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan mulkdorlar safi kengayib, soni ortib bormoqda. Natijada ulardan tushadigan tushumlar ham o'smoqda.

Magistrlik dissertatsiyamizning izlanish obyekti sifatida xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanadigan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining molivaviy holati bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borildi. Shu nuqtai nazardan, quyida xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati molivasining tashkil etish amaliyoti, uning molivaviy holati tahlili hamda uning molivaviy munosabatlarining samarali tashkil etishiga ta'sir etuvchi omillarni yumshatish kabi masalalarga to'xtalib o'tamiz.

Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkati ko'p kvartirali bitta yoki yaqin, zich joylashgan, obodonlashtirish elementlari bo'lgan umumiy yer uchaskasi bilan qamrab olingan bir necha uydagi xususiy turar joylar mulkdorlarining birlashmasidir.

Shirkat xususiy turar joylar mulkdorlarining tashabbusi bilan tashkil etiladi, u notijorat tshkilot bo'lib, o'z ustaviga muvofiq o'zini o'zi boshqarish asosida faoliyat yuritadi.


Shirkat o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli barcha mol-mulk bilan javob beradi va o'z a'zolarinining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Shirkat a'zosi shirkatning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkat uy-joy fondini birgalikda boshqarish va uni saqlash, asrash va ta'mirlashni, ko'p kvartirali uydagi turuar joylar mulkdorlarining umumiy mol-mulkidan foydalanishini ta'minlash uchun tashkil etiladi.

Shirkatning faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ixtiyoriylik;
- tashkiliy va moliyaviy jihatdan mustaqillik;
- o'zini o'zi boshqarish;
- ochiqlik va oshkoralik;
- o'z ishini bozor mehanizmlariga muvofiq shartnoma asosida tashkil etish;
- kommunal xizmatlar va ta'mirlash xizmatlari bozoridagi raqobat;
- uy-joy mulkdorlari oldida muntazam hisobot berish.

Hozirgi kunda respublikamizda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari soni 4753 tani (2015-yil 1-yanvar holatiga) tashkil etmoqda (5-rasm).



5-rasm. Respublika xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari tasarrufidagi 29391 ta ko'p qavatli uylarning tarkibi¹

Yuqoridagi rasmda keltirilgan diagrammadan xulosa qilish mumkinki, respublikada xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari asosan 1 uyli hamda 6 uyli va undan ortiq ko'p qavatli uylarda yashovchi aholiga xizmat ko'rsatadi.

Xizmat ko'rasish korxonalari o'z faoliyat doirasidan kelib chiqib hisobot davrida "Aholiga pulli xizmat ko'rsatish to'g'risida" hisobotni davlat statistika organiga taqdim etadi (1-ilova). Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari har

¹ <http://www.uzkommunhizmat.uz> sayti statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

hisobot davri uchun “Xususiy uy–joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati to’g’risida” hisobotini davlat statistika organiga taqdim etadilar (2-ilova).

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini samarali tashkil etishda boshqaruv kompaniyalari ish faoliyatini olib boradilar. Ularning soni viloyatlar kesimida quyidagicha (11-jadval).

11-jadval

**Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga xizmat ko’rsatayotgan
Boshqaruv kompaniyalari to’g’risida
MA’LUMOT¹**

№	Hududlar nomi	XUJMSh soni	XUJMShlarga xizmat ko’rsatuvchi Boshqaruv kompaniyalar soni	Bir boshqaruv kompaniyasiga to’g’ri keladigan shirkatlar soni
	Respublika bo’yicha:	4753	356	12
1	Qoraqolpog’iston R.	105	8	12
2	Andijon viloyati	163	12	11
3	Buxoro viloyati	115	8	14
4	Jizzax viloyati	98	4	24
5	Qashqadaryo viloyati	147	6	24
6	Navoiy viloyati	28	9	4
7	Namangan viloyati	256	13	19
8	Samarqand viloyati	174	8	21
9	Surxandaryo viloyati	60	4	15
10	Sirdaryo viloyati	121	5	24
11	Toshkent viloyati	423	53	7
12	Farg’ona viloyati	616	17	36
13	Xorazm viloyati	72	12	6
14	Toshkent shahri	2375	202	11

Shirkatni tashkil etish to’g’risidagi qaror ko’p kvartirali uydagi barcha joy mulkdorlari uchun majburiydir. Joy mulkdorlarining tashkiliy umumiy yig’ilishi, qoida tariqasida, quyidagi kun tartibi bilan o’tkaziladi:

- shirkatni tashkil etish to’g’risida;
- shirkatning ustavini tasdiqlash to’g’risida;

¹ <http://www.uzkommunhizmat.uz> sayti statistic ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

- shirkat boshqaruvi raisi va a’zolarini saylash to’g’risida;
- shirkatning taftish komissiyasini saylash to’g’risida.

Magistrlik dissertatsiya ishini tayyorlash yuzasidan ilmiy-tadqiqot amaliyoti davrida Toshkent shahri “Mirobod” tumanida faoliyat ko’rsatib kelayotgan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati tahlil qilindi (3-ilova) hamda davlat byudjeti oldidagi qarzдорliklari o’rganib chiqildi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining ustavida quyidagilar bo’lishi kerak:

- shirkatning to’liq nomi, faoliyatining sohasi va maqsadi, joylashgan pochta manzili;
- joy mulkdorlari shirkatga birlashgan ko’p kvartirali uylarning manzili;
- shirkatning huquq va majburiyatlari;
- shirkat a’zolarining huquq va majburiyatlari;
- majburiy badallarning miqdorlarini belgialash va shirkat a’zolari tomonidan ularni to’lash tartibi;
- umumiy mol-mulkni, shirkatning yer uchastkasini va mol-mulkini hamda boshqa faoliyatini boshqarish tartibi;
- shirkatning boshqarish organlari va taftish komissiyasining miqdor tarkibi hamda saylanish muddati to’g’risidagi ma’lumotlar, ularning vakolatlari, qarorlar qabul qilish tartibi.


Shirkat taftish komissiyasi shirkat a’zolarining umumiy yig’ilishi tomonidan shirkat a’zolari orasidan kamida uch nafardan iborat tarkibda ko’pi bilan ikki yil muddatga saylanadi. Shirkat taftish komissiyasi a’zolari bir vaqtning o’zida shirkat boshqaruvining a’zolari bo’lishi mumkin emas. Shirkat taftish komissiyasi shirkat a’zolarining umumiy yig’ilishiga mas’uldir. Shirkat taftish komissiyasi shirkatning moliyaviy-xo’jalik faoliyatini tekshiradi. Shirkat taftish komissiyasi shirkat a’zolarining umumiy yig’ilishiga shirkatning moliya-xo’jalik faoliyatini tekshirish natijalari to’g’risida har yili hisobot taqdim etishi shart. Shuningdek, shirkat a’zolarining umumiy yig’ilishi shirkatning moliya-xo’jalik faoliyatini tekshirish uchun belgilangan tartibda auditorlik tashkilotini

jalb etishi mumkin. Xususiyy uy-joy mulkdorlari shirkatining mol-mulki pul mablag'lari, binolar, inshootlar, uskunalar, asbob-anjomlar, transport vositalari hamda shirkat mablag'lari hisobiga va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa usullarda olingan o'zga mol-mulkdan, shuningdek, shirkatning yer uchastkasidagi ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish elementlaridan iborat bo'ladi.

Shirkatning pul mablag'lari quyidagilardan iborat:

- shirkat a'zolarining majburiy badallari;
- shirkat a'zolarining ixtiyoriy badallari;
- yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriyalari;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar (foyda);
- boshqa daromadlar va tushumlar.

XUJMShlari ko'rsatgan xizmatlaridan tushgan tushum quyidagi fondlarni shakllantirish uchun asos bo'ladi (6-rasm).



6-rasm. XUJMShlarining ko'rsatgan ish va xizmatlari realizatsiyasidan tushgan tushumi

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati yuridik maqomga ega bo'lgan mustaqil korxona bo'lib, uning moliyaviy xo'jalik faoliyati tegishli uy-joy fondini ekspluatatsiya qilish va undan foydalanishni tashkil etishni ta'minlashga yo'naltiriladi. Shirkatning moliyaviy mablag'lari asosan shirkat a'zolarining majburiy badallari, xonadon egalarining ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'laydigan maqsadli to'lovlari, tadbirkorlik hisobidan daromadlar, ya'ni ijaraga joy berish, tashqariga xizmat ko'rsatish, tegishli yerdan daromad olish va boshqalar, kommunal to'lovlarni yig'ishda yordam ko'rsatish evaziga kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalardan olingan daromadlardan, homiylik va vasiylik mablag'laridan tashkil topadi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining moliyaviy mablag'lari uy-joy fondini foydalanishga yaroqli holda saqlash, shirkat ishchi xodimlari mehnatlariga haq to'lash va binoni kapital ta'mirlash va qayta tiklash uchun zahira fondiga mablag' yig'ish uchun sarflanadi.

Shirkat moliyaviy harajatlari asosan ikki guruhga:

- ishlab chiqarish harajatlariga;
- ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan harajatlarga bo'linadi.

Shirkatning moliyaviy faoliyatini tashkil etish boshqa korxona va tashkilotlarnikidan keskin farqlanadi. Buning sababi, xususiy mulkdorlar shirkat oldiga ikki muhim vazifani qo'yadilar.

Birinchi vazifa, uy-joy fondini talab darajasida ekspluatatsiyaga yaroqli holda saqlash, barcha turdagi bajarilishi lozim bo'lgan joriy ta'mirlash ishlarini sifatli va o'z muddatida bajarilishini ta'minlash bo'lsa, ikkinchisi yashovchilardan yig'iladigan majburiy to'lovlar miqdorini kamaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shu sababli shirkatning moliyaviy faoliyatini rejalashtirish yillik harajatlarni miqdorini o'rganishdan boshlanadi.

Shirkat harajatlarni dasturining birinchi varianti turar joy binosining texnik va sanitariya holatini baholash davomida aniqlangan va uy-joy mulkdorlari tomonidan xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha bildirilgan, Xususiy uy-joy

mulkdorlari shirkati tomonidan mo'ljallangan barcha ishlar hajmi to'liq ro'yxatini, ya'ni rejaning birinchi loyihasini bajarish ehtimoliga asoslanadi.

Xizmat ko'rsatish, saqlash, ta'mirlash va ehtiyot qismlarni almashtirishlar bo'yicha ishlarni har xil uslubda baholash, muayyan turdagi ishning qiymati shirkat shtatidagi xodimlar tomonidan bajarilganda, yoki bir martalik shartnoma asosida yollanadigan mutaxassis bajarganda uning qiymati qanday bo'lishini aniqlash orqali ishlar ijrosi rejalarining turli variantlari harajatlarni aniqlash turli pudratchilar raqobatlashadigan bozorda bu ishning qiymati qancha turishini bilish tavsiya etiladi. Ijro turlari bo'yicha bajariladigan ishlarning toliq ro'yxati va hajmi uchun harajatlar dasturi rejalashtirilayotgan davrda yirik harajatlar ko'zda tutilayotgan bo'lsa, bu ishlar uchun harajatlarning dasturini tayyorlash tavsiya qilinadi va u umumiy yig'ilishda, shirkatning yillik dasturini muhokama qilishda uni asoslashga yordam beradi.

Shirkat a'zolari umumiy yig'ilishi vakolatiga shirkat shtatidagi xodimlarning oylik miqdori va mehnatiga haq to'lash va mukofotlash to'g'risidagi Nizomni qabul qilish kiradi, shuning uchun shtat jadvali va ish haqi hajmi bo'yicha, shuningdek, shirkat xodimlarning har bir toifasi, jumladan, shirkat mulkini malakali boshqarish uchun chetdan yollangan yoki yollamoqchi bo'lgan ijrochi direktor boshqaruvchini mukofotlash bo'yicha alohida takliflar tayyoriash tavsiya etiladi. Dasturning Xususiy uy joy mulkdorlari shirkati xodimlari va jalb qilinadigan mutaxassislar mehnatiga haq to'lashni nazarda tutuvchi qismida maxsus fondlarga chegirmalar bilan bog'liq harajatlarni ham ko'rsatish lozim.

Agar umumiy yig'ilish qarori bo'yicha saylangan shirkat raisi, boshqaruv va taftish komissiyasi a'zolariga mehnatlari uchun haq to'lanadigan bo'lsa, shu haq miqdori daromadlar va harajatlar dasturida alohida band bilan aks ettiriladi.

Dastur loyihasida shirkatning ishlab chiqarishga oid bo'lmagan harajatlarni ham ko'zda tutish lozim, shuningdek, kutilmagan harajatlarga haq to'lash yoki badallarni vaqtida to'lanmasligini qoplovchi zahira fondini ko'zda tutish tavsiya qilinadi.

Ishlar rejasi hamda daromadlar va harajatlar dasturini tuzishda shirkatning hisobot hujjatlarida foydalanilgan shakllardan foydalanish mumkin. Ishlar rejasining birinchi loyihasi bo'yicha barcha mo'ljallanayotgan harajatlar summasi aniqlangach, shirkat yillik dasturining daromad qismi tuziladi va kelgusi yilga shirkat a'zolari majburiy to'lovlarining mo'ljallanayotgan hajmi, ya'ni ularga tegishli bo'lgan umumiy maydonning 1 kv.m.ga xizmat ko'rsatish tannarxidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi.

Dasturning daromad qismi uning harajat qismidan kam bo'lmasligi kerak. Dasturning daromad qismi shirkat a'zolarining majburiy badallari, ya'ni doimiy va oylik badallari, noturar joylar mulkdorlarining binoni saqlash va ta'mirlashga qaratilgan badallari, shirkatning boshqa daromadlari, masalan, xonalar ijarasi va boshqa turdagi tadbirkoriik faoliyati va hokazo tushumlar, masalan, homiylik yordami hisobidan shakllanadi. Shirkat a'zolarining yashashga mo'ljallanmagan (noturar joy) xonalar mulkdorlarining majburiy to'lovlarini hisoblashda shirkatning qo'shimcha ravishda jalb qilinadigan daromadlarini e'tiborga olish kerak, ushbu qo'shimcha daromadlar ko'p bo'lsa, a'zolarining majburiy badallari hajmi kamayishi mumkin.

Majburiy badal miqdorini turarjoy binosining 1 kv.m. maydoniga xizmat ko'rsatish tannarxini aniqlash formulasi asosida hisoblab chiqish mumkin. So'ngra joriy yilga mo'ljallangan majburiy to'lovlar hajmi o'tgan yilgi badallar miqdori bilan qiyoslanadi va xonalar mulkdorlarining bunday harajatlarni qoplash uchun to'lov qobiliyati baholanadi. Agar shirkat boshqaruvi mulkdorlar rejalashtirilayotgan harajatlarni to'lashga layoqatli, deb topsa, daromadlar va harajatlar dasturi loyihasini umumiy yig'ilish e'tiboriga havola qilish mumkin. Agar shirkat boshqamvi rejalashtirilayotgan harajatlarni to'lashga turar joylar mulkdorlarining ko'pchiligi layoqatli emas, deb topsa, ishlar rejasi loyihasini takomillashtirish (qisqartirish) ustidagi ish davom ettiriladi. Bunday holda boshqaruv ayrim ish turlarini kechiktirilgan ishlar ro'yxatiga o'tkazishi (ularning muhimlik darajasini va shirkat a'zolari xohishini e'tiborga olib), yoki ayrim ish turlarini bajarish usullarini o'zgartirish haqida asoslangan qaror qabul qilishi

lozim. Shu tarzda ishlar rejasining ikkinchi varianti va tegishli harajatlar dasturi (ishlar ro'yxati hajmini qisqartirib) ishlab chiqiladi. Rejalar va harajatlar dasturi ishlar rejasi va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining moliyaviy resurslari mos kelmaguncha davom ettiriladi. Dasturda albatta kelgusi kapital ta'mirlashlar uchun markaziy fondiga to'lovni (hozirgi kunda umumiy to'lovlar miqdorining 30 %) ko'zda tutilishi zarur.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining daromadlar va harajatlar dasturining namunaviy shakli quyidagi tarkibdagi daromad va harajatlardan tashkil topadi (12-jadval) hamda jadvalning to'liq tartibi 22-ilovada keltirilgan:

12-jadval

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining daromadlar va harajatlar dasturi namunasi

№	Moddalar nomlanishi	Bir oyga	Bir yilga
<i>Daromadlar</i>			
	Daromadlar tarkibi...		
	Jami daromadlar		
<i>Harajatlar</i>			
<i>1. Ishlab chiqarsih harajatlari</i>			
	Ishlab chiqarish harajatlari tarkibi...		
	Ishlab chiqarish harajatlari - jami:		
<i>2. Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan harajatlar</i>			
	Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan harajatlar tarkibi...		
	Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan harajatlar— jami:		
	Jami harajatlar		

Magistrlik dissertatsiya ishini tayyorlash yuzasidan ilmiy-tadqiqot amaliyotimiz davrida Samarqand shahrida faoliyat yuritib kelayotgan 145 ta xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari jami 911 ta ko'p qavatli turar joylarda istiqomad qiluvchi aholining farovon turmush hayoti uchun xizmat qilib kelmoqda (4-ilova).

Ilmiy ishimizning tahlil qilayotgan bobning keying qismida “Reyxan kommunal servis” XUJMSH hamda “Yunusobod kommunal sitora servis” XUJMSHlarining moliyaviy holati bo'yicha tahlil natijalarini ko'rib chiqamiz.

2.2. Xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy holati tahlili

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida xizmat ko'rsatish va sotish xarajatlari, ularni rejalashtirish va moliyalashtirish holati bu:

- kompleks ravishdagi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi;
- korxonalar faoliyatidagi butun xizmat ko'rsatish va xo'jalik omillarining harakati, ularning o'zaro aloqadorligi natijasidir;
- korxonalarining mo'tadil xizmat ko'rsatish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanish ifodasidir;
- korxonalarining boshqa xo'jalik sub'ektlari, organlari va tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni haqiqiy aks ettirishidir.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining ichki va tashqi omillar ta'siri ostida shakllangan moliyaviy holati, ularning istiqbolini aniqlash bilan birga, bu korxona bilan yuridik aloqada bo'lgan boshqa tashkilotlar va korxonalarining moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish, ya'ni moliyaviy tahlil – bu keng ko'rsatkichlar yordamida, kompleks usullaridan foydalanib korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir. Moliyaviy tahlil ko'p qirrali murakkab protsess bo'lib, u tashkil qilinishi, buning uchun esa bir qator talablarga asoslanishi kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat:

- ❖ absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqalarni borligini bilish;
- ❖ moliyaviy tahlil mobaynida absolyut va nisbiy ko'rsatkichlardan birgalikda foydalanish;
- ❖ moliyaviy tahlil mantiqiy ravishda amalga oshirilib, u induktiv usulga – alohida hodisalardan umumiy hodisalarga o'tish, moliyaviy holatning bir shakl ko'rinishidan umumiy ko'rinishga o'tish va deduktiv usulga – umumiy hodisalardan alohida hodisalarga o'tishga asoslanib tahlil qilish;

- ❖ hamma foydalanilayotgan ko'rsatkichlar bir xil, asoslangan usulda aniqlanishi lozim;
- ❖ moliyaviy holatni tahlil qilishda tahlil qilinayotgan korxona ko'rsatkichlarini boshka korxonalar, o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlari va ilg'or korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;
- ❖ moliyaviy tahlilning har tomonlama bo'lishligi va korxonalarning umumiy moliyaviy holatiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil etish;
- ❖ moliyaviy tahlilni samarali o'tkazish uchun kerakli ma'lumotlarni oldindan tayyorlash va bu borada asosiy tasdiqlangan moliyaviy manbalar bilan cheklanmasdan birlamchi buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanish;
- ❖ moliyaviy tahlil ob'ektiv ravishda tashkil qilinib, u korxonalarning moliyaviy holati real darajasini ifodalashi lozim;
- ❖ moliyaviy tahlil o'z vaqtida o'tkazilib, tahlil yakunlariga asoslanib, moliyaviy holatni yaxshilash choralari o'z vaqtida amalga oshirishga imkon berish;
- ❖ moliyaviy tahlil kompleks ravishda o'tkazilib, unda moliyaviy holatning hamma shakl va yo'nalishlari ifodalanishi lozim;
- ❖ moliyaviy tahlil o'z vaqtida va haqqoniy bo'lib, u moliyaviy holatni ko'tarishga bag'ishlangan tadbirlarni ishlab chiqib, ularni amalga oshirishga imkon berishi kerak;
- ❖ moliyaviy holatni tahlil qilish myayyan vaqtda o'tkazilishi lozimki, tahlil yakunlari qo'yilgan maqsadni amalga oshirib, korxona boshqaruvini takomillashtirishga imkoniyat tug'dirishi lozim;
- ❖ moliyaviy tahlil barcha yig'ilgan va umumlashtirilgan ma'lumotlarga asoslanib, kerakli ko'rsatkichlardan foydalanib, bu ko'rsatkichlarning asosiligi to'g'ri usullarda aniqlanishi lozim.

Korxonalar ko'p turdagi iqtisodiy aloqalarni, jumladan, xom-ashyo va materiallar sotib olish, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarni bajarishadi. Shuningdek, davlat byudjeti, moliya, bank, sug'urta va kreditorlar

bilan munosabatda bo'linadi. Ularga hisob berishni belgilangan muddatda amalga oshirish, moliyaviy tartib intizomiga rioya qilish katta ahamiyatga ega.

Bozor sharoitida moliyaviy barqarorlik va to'lovga qobiliyatlilik korxonaning muhim iqtisodiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik balansdagi ma'lumotlar asosida o'rganiladi. Undagi ko'rsatkichlarni bir-biri bilan taqqoslab, mablag'lar o'rtasidagi nisbat va o'zaro bog'lanish aniqlanadi.

Korxonaning moliyaviy holatini o'rganishda bir qator moliyaviy koeffitsientlar tizimidan foydalaniladi. Moliyaviy koeffitsientlarni odatda quyidagi shartli guruhlariga ajratish mumkin (7-rasm).



7-rasm. Moliyaviy koeffitsientlarning shartli guruhlari

Rentabellik koeffitsienti – korxona foydalilik darajasini xarakterlaydi, ya'ni bu bevosita mulkning shakli bo'yicha daromadlarning yuzaga chiqish o'zni yoki bazasi bo'yicha, foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar bo'yicha yoki mustaqil birliklar bo'yicha aniqlanishi mumkin bo'lgan korxona foydalilik darajasi.

Likvidlik koeffitsienti – mablag'larning joylanishi, ularning pulga aylanish darajasi, yaqin va uzoq davriylikdagi to'lov majburiyatlarining oqlanishi, joriy aktivlar va passivlarning o'zaro farqlanishidagi zaruriy shartlarning saqlanishiga aytiladi.

To'lov qobiliyati koeffitsienti – moliyaviy resurslarni samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishi moliyaviy barqarorlik mohiyatini ifodalaydi.

Bozor indikator – bozor qiymati va buxgalteriya hisobida aks etgan baho, ya'ni nominal qiymat va tannarx orasidagi farq summolari o'rganiladi.

O'z navbatida rentabellik koeffitsientlari ham to'rtta shartli guruhlariga bo'linadi (8-rasm).



8-rasm. Rentabellik koeffitsientlarning shartli guruhlari

Xususiyl kapital rentabelligi. Bu rentabellik turi har bir so'mlik xususiyl kapitalimiz hisobiga to'g'ri kelgan sof foyda qiymati o'rganiladi. Buning uchun,

$$\frac{SOF \quad FOYDA}{XUSUSIY KAPITALNING \quad YILLIK \quad O'RTACHA \quad QIYMATI}$$

ko'rinishida hisob-kitob ishlarini bajarishimiz kerak. Xususiyl kapitalning o'rtacha yillik qiymatini topish uchun yil boshidagi va yil oxiridagi summalarini yig'indisini ikkiga bo'lib aniqlaymiz.

Jami investitsiyalar rentabelligi. Bu ko'rsatkichni aniqlashimiz uchun,

$$\frac{SF + (KF * FS_K) + A_R}{JA}$$

kabi hisoblashish ishlarini bajarishimiz lozim.

Bu yerda:

SF – Sof foyda;

KF – Kreditlar uchun foiz;

FS_K – Foyda solig'ining korektirovka qilingan stavkasi;

AR – Rezervlar uchun ajratma;

JA – Jami aktivlarning o'rtacha qiymati.

Bu yerda aktivlarning o'rtacha qiymati jami mablag'larning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qiymatini yig'indisini ikkiga bo'lgan holda topamiz. Bu yerda zahiralar uchun ajratma, kredit uchun soliqlar va foyda solig'ining korrektirovkasi sof foyda hisobidan bo'lganligi uchun bu qiymatlarning yig'indisi hisobot yilining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida keladi.

Leveridj. Bu xususiy kapitalning o'sgan qismini ko'rsatib, u quyidagicha aniqlanadi, ya'ni xususiy kapital rentabelligi koeffitsienti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsienti olinadi. Kelib chiqqan natija qanchalik yuqori bo'lsa korxonaning xususiy kapitalini shunchalik o'sganligini beradi.

Sotish rentabelligi. Bu sof foydadaning mahsulot sotishdan tushgan tushumga nisbatidir.

$$\frac{SOF \quad FOYDA}{MAHSULOTNI \quad SOTISHDAN \quad TUSHGAN \quad TUSHUM}$$

Avvalo, XUJMSklarining turar joy xonasi umumiy maydonining 1m² ini saqlash va undan foydalanish xarajatlarining hisoblanish tartibi bo'yicha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu xarajatlar xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan yig'ilib, shirkat daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi. Uy-joy mulkdorlaridan undirilgan undiriladigan to'lov shirkatning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasi asosida shakllantirilib, uning yig'indisi smetaning daromad qismida ko'rsatilgan tushumlari miqdorini hosil qiladi.

Turar joy xonasi umumiy maydonining 1 kv.m maydonini saqlash va foydalanish bilan bog'liq to'lovlarni hisoblashda O'zbekiston Respublikasi "O'zkommunxizmat" agentligining 2004-yil 9-avgustdagi 86-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Uy-joy mulkdorlari shirkatlari uchun foydalaniladigan 1 m² maydonga qilinadigan foydalanish xarajatlari miqdorini aniqlash yuzasidan uslubiy tavsiyalar" asos bo'lib hisoblanadi.

Tarif miqdorini belgilash uchun xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati muayyan hisobot davrida uy-joy fondining foydalaniladigan jami maydoni bo'yicha oladigan daromadlarini aniqlashi lozim. Bu daromadlar tarkibini xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi, ya'ni energiya manbalari, materiallarning narxi, lavozim maoshlari va shu kabilar hamda rejalashtirilgan foydadan tashkil topadi. Bunda XUJMSHning harajatlarini qoplash uchun belgilangan tartibda yo'naltiriladigan boshqa daromad manbalari chiqarib tashlanadi. Tarif miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$T = \frac{(S + F) - Q}{N}$$

Bunda: T – turar joy xonasi umumiy maydonining 1 m² ini saqlash ta'mirlash haqi (tarif);

S – xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi;

F – uy-joy fondidan foydalanish korxonasi (xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati) foyda ko'rib ishlashi uchun zarur bo'lgan foyda (davr xarajatlari va moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar);

Q – uy-joy fondidan foydalanish tashkilotlarining xarajatlarini qoplash uchun belgilangan tartibda yonaltiriladigan boshqa daromad manbalari. Mazkur daromad tarkibiga uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish uchun fuqarolar tomonidan to'lanadigan mablag'lar hisobga olinmaydi va uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

– O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq fiiqarolaming ayrim toifalariga uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash haqida imtiyozlar berilgani munosabati bilan daromadning kamomadini budjetdan qoplash uchun ajratilgan mablag'lar;

– kommunal xizmatlarni sotib daromad oladigan korxonalaiga binolar ichidagi suvquvur, oqovaquvur, issiqlik va elektr tarmoqlari hamda qurilmalarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha kelib tushadigan qoplama mablag'lari;

- turar joy binolaridagi ijaraga olingan noturar joy xonalari ijarachilaridan kelishilgan tariflarda, ammo shirkat a'zolari uchun belgilangan foydalanish xarajatlari tarifidan kam bo'lmagan tariflarda undiriladigan yig'imlar;

- uy-joy mulkdorlari shirkati hududida joylashgan sport-sog'lomlashtirish markazlaridan pullik xizmat ko'rsatish asosida foydalanuvchilardan kelib tushadigan mablag'lar;

- budjetdan tashqari mablag'lar va boshqa manbalardan kelgan mablag'lar, jumladan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq homiylar tomonidan ajratiladigan mablag'lar;

- kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalardan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga kelib tushadigan ajratmalar. Bu mablag'lar rejalashtirilgan aholi to'lovlari tushumi 75 foizdan ortiq hajmda bajarilganda 7% miqdorida va 100% bajarilgan taqdirda 15% miqdorida ajratiladi hamda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatiga birlashtirilgan uylarni ta'mirlash va hududlarni obodonlashtirishga yo'naltiriladi;

- xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga qarashli hududdagi fuqarolar tomonidan o'rnatilgan shaxsiy avtomobil garajlari va boshqa imoratlar egalaridan olinadigan foydalanish xarajatlari;

- uylarni mukammal ta'mirlash uchun mahalliy budjetdan ajratilgan mablag'lar;

N – shirkatga tegishli uy-joy fondining foydalaniladigan umumiy maydoni (noturar joy fondi sifatida ijaraga beriladigan maydon bu hisobga kirmaydi).

Uy-joy umumiy maydonining 1 m² ini tarifini aniqlashda quyidagi koeffitsientlardan foydalaniladi (13-jadval).

Mazkur koeffitsientlar uy-joyning turi, iste'mol sifatlari va boshqa mahalliy sharoitga bog'liq ravishda o'zgartirilishi mumkin.

Iste'mol sifatlari har xil bo'lgan turar joy uylarida turarjoy xarajatlari tariflarini aniqlash uchun, avvalo turar joy uylari uchun asos qilib olinadigan tarifni aniqlash va umumiy maydonning 1 kv.m sathining tarifi miqdoriga tuzatish kiritish uchun mazkur koeffitsientlarni qo'llash lozim.

Uy-joy umumiy maydonining 1 m² ini tarifini aniqlashda foydalaniladigan koeffitsientlar

1) qulay-shinamlilikning barcha turlariga, shu jumladan liftlar, maishiy chiqindi quvurlariga ega bo'lgan ko'p qavatli turarjoy uylarida	K1 = 1,2
2) qulay-shinamlilikning hamma turlari mavjud bo'lgan, ammo liftlar va maishiy chiqindi quvurlari bo'lmagan uylarda	K2 = 1,0
3) markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, liftlar, maishiy chiqindi quvurlari bo'lmagan uylar	KZ = 0,9
4) liftlar bo'lmagan, issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, markazlashtirilgan tartibda isitilmaydigan muhimligi past uylar	K4 = 0,8
5) markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, markazlashtirilgan tartibda isitilmaydigan, oqovaquvur, liftlar va maishiy chiqindi quvurlari bo'lmagan uylar	K5 = 0,7

Samarqand shahrida faoliyat yuritayotgan, moliyaviy-iqtisodiy ahvoli nisbatan biroz salbiy bo'lgan “Reyxan kommunal servis” XUJMSHning moliyaviy holati bilan tanishadigan bo'lsak, ushbu shirkat 2006-yil 9-oktyabrda №83-sonli reestr tartib raqami bilan shahar hokimligi ro'yxatidan o'tgan (5-ilova). Shirkat rekvizitlari bilan tanishadigan bo'lsak, Sogdiana massivi 35-a uyda joylashgan, shirkat STIRi – 300020283. Shirkat Nizomiga muvofiq (6-ilova) dastlab Sogdiana massivi № 40, 41-uylarda joylashgan ko'p kvartirali uydagi turar-joy mulkdorlari birlashmasidan tashkil topgan, keyinchalik tasarrufiga massivda joylashgan 34, 35, 36, 37, 38, 40, 41, 43, 44 uylarni olgan va xizmat ko'rsatib kelmoqda (4-ilova).

“Reyxan kommunal servis” XUJMSHning 2014-yilgi aktivlarining turlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq muddatli aktivlari mavjud emas hamda joriy aktivlari kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan (7-ilova) (14-jadval).

14-jadval

**“Reyxan kommunal servis” XUJMSHning 2013-2014 yildagi
aktivlari to’g’risida ma’lumot**

№	Aktivlarning turlari	2013-yil		2014-yil		Farqi (+,-)	
		ming so’m	hissasi, %	ming so’m	hissasi, %	ming so’m	hissasi, %
1	Uzoq muddatli aktivlar	0	0	0	0	0	0
2	Joriy aktivlar	68 014,0	100,0	67 662,7	100,0	-351,3	0
	JAMI	68 014,0	100,0	67 662,7	100,0	-351,3	—


“Reyxan kommunal servis” XUJMSHda 2013-2014-yillarda o’z mablag’ manbaalari qiymatining ko’payishi kuzatilgan, majburiyatlarning hissasi esa 1,5% ga kamaygan (7-ilova) (15-jadval).

15-jadval

**“Reyxan kommunal servis” XUJMSHning 2013-2014 yildagi mablag’
manbalarining tarkibi to’g’risida
M A’ L U M O T**

№	Mablag’ manbaalarining turlari	2013-yil		2014-yil		Farqi (+,-)	
		ming so’m	hissasi, %	ming so’m	hissasi, %	ming so’m	hissasi, %
1	O’z mablag’ manbaalari	0	0	1 000,0	1,5	1 000,0	1,5
2	Majburiyatlar	68 014,0	100,0	66 662,7	98,5	-351,3	-1,5
	JAMI	68 014,0	100,0	67 662,7	100,0	-351,3	—

“Reyxan kommunal servis” XUJMSH 2014-yil taqdim qilinadigan moliyaviy natijalari to’g’risidagi hisobotiga asosan joriy yilni ijobiy natija bilan yakunlagan, ya’ni korxonaning sof foydasi 3 784,0 ming so’mni tashkil etgan, ammo o’tgan yilga nisbatan shirkat sof foydasi 49,8 % ga kamaygan (9-ilova) (8-rasm).



9-rasm. "Reyxan kommunal servis" XUJMSHning foyda ko'rsatkichining o'zgarish dinamikasi (so'mda)

Shirkatning 2014-yilgi yillik hisoboti ko'rsatkichlarida keltirilgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish korxonasining jami sof foydasi 3 784,0 ming so'mga teng bo'lgan (8-ilova) (16-jadval).

16-jadval

"Reyxan kommunal servis" XUJMSHning 2014-yil bo'yicha moliyaviy natijalari haqida ma'lumot

(ming so'm)

№	KO'RSATKICHLAR	O'tgan yilning shu davriga nisbatan	Hisobot davrida	Farqi (+/-)
1	Mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum	38 124,0	43 215,0	5 091,0
2	Sotilgan mahsulot(tovar, ish, xizmat)larning tannarxi	25 882,9	30 214,0	4 331,1
3	Mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	12 241,1	13 001,0	759,9
4	Davr xarajatlari	14 966,2	18 217,3	3 251,1
5	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	0	0	0
6	Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	7 541,0	3 784,0	-3 757,0
9	Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	7 541,0	3 784,0	-3 757,0
10	Favqulotda foyda va zararlar	--	--	
11	Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)	7 541,0	3 784,0	-3 757,0
12	Daromad (foyda) solig'i	--	--	
13	Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	--	--	
14	Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	7 541,0	3 784,0	-3 757,0

Shirkat moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisoboti ma'lumotlari asosida tuzilgan jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu shirkat Davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etgan hisobotida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Ya'ni, shirkat asosiy faoliyatining foydasi (zarari) noto'g'ri hisob-kitob qilingan. Qayta hisob-kitob natijalari shuni ko'rsatadiki, hisobotning 040-satri "Davxarajatlari" ko'rsatkich summasi noto'g'ri hisob-kitob qilingan. Shu tariqa asosiy faoliyatning foydasi (zarari) o'z-o'zidan noto'g'ri shakllangan. Bu esa umumxo'jalik faoliyatining noaniqligiga olib kelgan hamda hisobotning foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) qismi mutlaqo xato natijani keltirib chiqargan.

Ilmiy ishimizning izlanish obyekti bo'lgan "Reyxan kommunal servis" XUJMSH yil yakunida zarar bilan chiqqan, ya'ni moliyaviy natijalar tog'risidagi hisobot haqiqatda quyidagicha keltirilishi kerak edi (17-jadval).

17-jadval

"Reyxan kommunal servis" XUJMSHning 2014-yil bo'yicha moliyaviy natijalarining haqiqatdagi ma'lumoti¹

(ming so'm)				
№	KO'RSATKICHLAR	O'tgan yilning shu davriga nisbatan	Hisobot davrida	Farqi (+/-)
1	Mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum	38 124,0	43 215,0	5 091,0
2	Sotilgan mahsulot(tovar, ish, xizmat)larning tannarxi	25 882,9	30 214,0	4 331,1
3	Mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	12 241,1	13 001,0	759,9
4	Davxarajatlari	17 974,0	21 444,0	3 251,1
5	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	0	0	0
6	Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	-5 732,9	-8 443,0	-2 710,1
9	Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	-5 732,9	-8 443,0	-2 710,1
10	Favqulotda foyda va zararlar	--	--	
11	Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)	-5 732,9	-8 443,0	-2 710,1
12	Daromad (foyda) solig'i	--	--	
13	Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	--	--	
14	Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	-5 732,9	-8 443,0	-2 710,1

¹ Tahlil natijalari asosida muallif ishlanmasi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, amaliyotda aynan shirkat buxgalteriya hisobining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi mavjud kamchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

“Reyxan kommunal servis” XUJMSHning Xususiy uy joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati to'g'risida 2014-yil uchun Davlat statistika hisobotini tahlil qiladigan bo'lsak, joriy yilda shirkat a'zolarining majburiy badallari yuzasidan qarzidorlik 1 252,0 ming so'mni tashkil qilgan (9-ilova) (18-jadval).

18-jadval

**“Reyxan kommunal servis” XUJMSHning Xususiy uy joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati to'g'risida 2014-yil uchun Davlat statistika hisoboti
MA'LUMOTI**

Ko'rsatkichlar nomi	Yil davomida
Umumiy mol-mulkni, yer uchastkasi va shirkatning mulkini saqlashga qaratilgan shirkatning pul mablag'lari <i>shu jumladan:</i>	68 080,8
– turar-joy egalarining majburiy badallari	68 080,8
Bank kreditlari	20 000,0
Shirkatning umumiy mol-mulkini saqlash bilan bog'liq xarajatlar <i>shu jumladan:</i>	43 719,2
– uylarni joriy va kapital ta'mirlash uchun xarajatlar	23 400,0
– ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	3 851,2
– ma'muriy xarajatlar	4 868,0
– boshqa xarajatlar	11 600,0
Debitorli qarzidorlik <i>shu jumladan :</i>	26 830,0
– shirkat a'zolarining majburiy badallari bo'yicha muddati o'tgan qarzidorlik	1 252,0
Kvartiralarini ta'mirlash xarajatlari (aholi mablag'lari hisobiga)	2 100,0
<u>Ma'lumot uchun:</u> Shirkat a'zolarining turar-joy umumiy maydonining 1 m ² ga belgilangan majburiy badalning miqdori	380,0

“Reyxan kommunal servis” XUJMSH 2014-yilda moliyaviy-iqtisodiy ahvoli sust bo'lganligi sababli, DT “Xalq banki” Samarqand viloyat filialidan 42 mln. so'm miqdorda kredit olgan hamda joriy yilda kreditning 68 %, ya'ni 28,5 mln. so'mi qoplangan (10-ilova).

Magistrlik dissertatsiya ishimizning jozibadorligini yanada oshirish maqsadida, ilmiy-tadqiqot amaliyoti davrida Samarqand shahridagi moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ko'zga ko'rinarli darajada nisbatan ijobiy bo'lgan, yana bir shirkat "Yunusobod kommunal sitora servis" XUJMSHning moliyaviy holati tahlili bilan tanishib chiqamiz.

"Yunusobod kommunal sitora servis" XUJMSH 2010-yil 22-fevral kunidan e'tibor Samarqand shahar hokimligi Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatini davlat ro'yxatdan o'tkazish tog'risida guvohnomaga asosan, № 129 reestr tartib raqami bilan ko'p kvartirali xonadonlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda (11-ilova). Shirkat STIRi 301511312.

"Yunusobod kommunal sitora servis" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati Nizomiga muvofiq Samarqand shahar Sattepo massivida bunyod etilgan № 43, 44, 45, 148 uylar manzillaridagi ko'p qavatli uylarning 192 xonadonda yashovchi 398 ta mulkdorlar tomonidan tashkil etilib, Samarqand shahar "Tinchlik" XUJMSHdan ajralib chiqqan (12-ilova). Shirkatning yuridik manzili O'zbekiston Respublikasi, Samarqand shahar Sattepo massivi 47-uy 21-xonadonda joylashgan. Hozirda shirkat o'z tasarrufiga 47-uyni ham olgan va xizmat ko'rsatib kelmoqda (4-ilova). "Yunusobod kommunal sitora servis" XUJMSHning 2014-yilgi aktivlarining turlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq muddatli aktivlari mavjud emas hamda joriy aktivlari kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan (13-ilova) (19-jadval).

19-jadval

"Yunusobod kommunal sitora servis" XUJMSHning 2013-2014 yildagi aktivlari to'g'risida ma'lumot

№	Aktivlarning turlari	2013-yil		2014-yil		Farqi (+,-)	
		ming so'm	hissasi, %	ming so'm	hissasi, %	ming so'm	hissasi, %
1	Uzoq muddatli aktivlar	0	0	0	0	0	0
2	Joriy aktivlar	72 263,1	100,0	56 839,7	100,0	-15 423,4	0
	JAMI	72 263,1	100,0	56 839,7	100,0	-15 423,4	—

“Yunusobod kommunal sitora servis” XUJMSHda 2013-2014-yillarda o‘z mablag’ manbaalari qiymatining kamayishi kuzatilgan, majburiyatlarning hisssasi esa 22,5 % ga ko‘paygan (13-ilova) (20-jadval).


20-jadval

“Yunusobod kommunal sitora servis” XUJMSHning 2013-2014 yildagi mablag’ manbalarining tarkibi to‘g‘risida

M A’ L U M O T

№	Mablag’ manbalarining turlari	2013-yil		2014-yil		Farqi (+,-)	
		ming so‘m	hissasi, %	ming so‘m	hissasi, %	ming so‘m	hissasi, %
1	O‘z mablag’ manbalari	41 045,4	56,8	19 516,2	34,3	-21 529,2	-22,5
2	Majburiyatlar	31 217,7	43,2	37 323,5	65,7	6 105,8	22,5
	JAMI	72 263,1	100,0	56 839,7	100,0	-15 423,4	—

“Yunusobod kommunal sitora servis” XUJMSH 2014-yil yil yakunlariga ko‘ra joriy yilni ijobiy natija bilan yakunlagan, ya’ni korxonaning sof foydasi 149,1 ming so‘mni tashkil etgan va o‘tgan yilga nisbatan shirkat sof foydasi ikki barobar ko‘paygan (14-ilova) (10-rasm).



10-rasm. “Yunusobod kommunal sitora servis” XUJMSHning foyda ko‘rsatkichining o‘zgarish dinamikasi (so‘m)

Shirkatning 2014-yilgi yillik hisoboti ko'rsatkichlaridan ko'rinib turibdiki, xizmat ko'rsatish korxonasining mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,1 % ga, mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari) o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,5 % ga oshgan (14-ilova) (21-jadval).

21-jadval

“Yunusobod kommunal sitora servis” XUJMSHning 2014-yil bo'yicha moliyaviy natijalari haqida ma'lumot

(ming so'm)

№	KO'RSATKICHLAR	O'tgan yilning shu davriga nisbatan	Hisobot davrida	Farqi (+/-)
1	Mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum	60 459,5	72 636,5	12 177,0
2	Sotilgan mahsulot(tovar, ish, xizmat)larning tannarxi	41 963,5	52 935,0	10 971,5
3	Mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	18 496,0	19 701,5	1205,5
4	Davr xarajatlari	18 421,5	19 552,4	1130,9
5	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	0	0	0
6	Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	74,5	149,1	74,6
9	Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	74,5	149,1	74,6
10	Favqulotda foyda va zararlar	--	--	--
11	Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)	74,5	149,1	74,6
12	Daromad (foyda) solig'i	--	--	--
13	Foydadan boshqa soliqlar va yig'implar	--	--	--
14	Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	74,5	149,1	74,6

“Yunusobod kommunal sitora servis” XUJMSHning Xususiyy uy joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati to'g'risida 2014-yil uchun Davlat statistika hisobotini tahlil qiladigan bo'lsak, joriy yilda Umumiy mol-mulkni, yer uchastkasi va shirkatning mulkini saqlashga qaratilgan shirkatning pul mablag'lari 72 636,4 ming so'mni tashkil qilgan (15-ilova) (22-jadval).

**“Yunusobod kommunal sitora servis” XUJMSHning Xususiy uy joy
mulkdorlari shirkatlarining faoliyati to’g’risida 2014-yil uchun Davlat
statistika hisoboti MA’LUMOTI**

Ko’rsatkichlar nomi	Yil davomida
Umumiy mol-mulkni, yer uchastkasi va shirkatning mulkini saqlashga qaratilgan shirkatning pul mablag’lari <i>shu jumladan:</i>	72 636,4
– turar-joy egalarining majburiy badallari	72 636,4
Bank kreditlari	--
Shirkatning umumiy mol-mulkini saqlash bilan bog’liq xarajatlar <i>shu jumladan:</i>	40 636,4
– uylarni joriy va kapital ta’mirlash uchun xarajatlar	30 000,0
– ijtimoiy sug’urtaga ajratmalar	2 859,3
– ma’muriy xarajatlar	--
– boshqa xarajatlar	7 777,4
Debitorli qarzdorlik	31 818,0
Kvartiralarini ta’mirlash xarajatlari (aholi mablag’lari hisobiga)	--
<u>Ma’lumot uchun:</u> Shirkat a’zolarining turar-joy umumiy maydonining 1 m ² ga belgilangan majburiy badalning miqdori	300,0

“Yunusobod kommunal sitora servis” XUJMSH 2014-yilda moliyaviy-iqtisodiy ahvoli yanada rivojlantirish, pul mablag’larining aylanma harakatini yaxshilash maqsadida hamda xizmat ko’rsatish faoliyatini takomillashtirish uchun OATB “Qishloq qurilish bank” Samarqand mintaqaviy filialidan 2014-yilning 26-may sanasida tuzilgan №114-sonli kredit shartnomasiga asosan yiliga 10 %lik stavka asosida 2 yil muddatga 15 mln. so’m miqdorda kredit olgan (16-ilova). Joriy yilda kredit to’liq qoplangan hamda o’tgan yillardan qolgan kredit qarzdorligining bir qismi to’langan (17-ilova).

Ko’rsatkichlar to’g’risida to’g’ri xulosa chiqarish uchun, eng avvalo ularni ilmiy asoslangan holda tasniflash lozim. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy holatini baholashda koeffitsientlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, moliyaviy koeffitsientlar orqali moliyaviy holatining ma’lum bir

jihatlariga baho berish imkoni yuzaga keladi. Respublikamizdagi xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan moliyaviy koeffitsientlarni quyidagi ko'rsatkichlar orqali tahlil qilib chiqamiz hamda taqqoslaymiz.

Buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida moliyaviy koeffitsientlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\textit{O'z mablag'larining manbalari (480 satr)}}{\textit{Balans jami (780 satr)}}$$

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti – bu ko'rsatkich odatda 0,5 koeffitsientni ko'rsatsa ijobiy holat hisoblanadi. Sababi shu holdagina tashqi omillar ta'siridan holi mustaqil faoliyat olib boradi.

2. To'lov qobiliyati koeffitsienti quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\frac{\textit{Joriy aktivlar (390 satr)}}{\textit{Majburiyatlar (770 satr)}}$$

To'lov qobiliyati koeffitsienti – bu ko'rsatkich odatda 2-3 oraliqda bo'lishi korxona uchun ijobiy ko'rsatkich hisoblanadi, ya'ni korxonada mavjud joriy majburiyatlardan korxonada mavjud aktivlar 2-3 barobar ko'p bo'lishi lozim.

3. Qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat koeffitsienti quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\frac{\textit{Majburiyatlar (770 satr)} - \textit{uzoq muddatli majburiyatlar (490 satr)}}{\textit{O'z mablag'larining manbalari (480 satr)}}$$

Qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat koeffitsient – bu ko'rsatkich odatda 1 koeffitsientdan kichik bo'lishi maqsadga muvofiq, bu degani korxona mavjud majburiyatlarni o'z mablag'lari bilan qoplay olishi kerak

4. Zahira va xarajatlarni o'z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsienti quyidagi tartibda aniqlanadi:

***O'z mablag'lari manbalari (480 satr) + uzoq muddatli majburiyatlar (490 satr) –
– uzoq muddatli aktivlar (130 satr)***
Tovar – moddiy zahiralari (140 satr)

Zahira va xarajatlarni o'z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsienti – bu ko'rsatkich odatda 0,2 koeffitsientdan kichik bo'lmasligi lozim, ya'ni korxonada mavjud TMZ ning kamida 20 foiz qismini ishchi kapital qoplay olishi lozim.

5. Mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsienti quyidagi tartibda aniqlanadi:

***O'z mablag'lari manbalari (480 satr) + uzoq muddatli majburiyatlar (490 satr) –
– uzoq muddatli aktivlar (130 satr)***
O'z mablag'larining manbalari (480 satr)

Mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsienti – bu ko'rsatkich odatda 0,1-0,5 koeffitsient oralig'ida bo'lishi ijobiy holat.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar koessitsientlarini qo'llagan holda ilmiy ishimizning izlanish obyekti bo'lgan “Reyxan kommunal servis” XUJMSH hamda “Yunusobod kommunal sitora servis” XUJMSHlarning taqqoslab tahlil qilamiz (23-jadval).

23-jadval

**“Reyxan kommunal servis” va “Yunusobod kommunal sitora servis”
XUJMSHlarning moliyaviy holatini moliyaviy koeffitsientlar bo'yicha tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	“Reyxan kommunal servis” XUJMSH		“Yunusobod kommunal sitora servis” XUJMSH	
		2013-yil	2014-yil	2013-yil	2014-yil
1	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	--	0,0148	0,5680	0,3434
2	To'lov qobiliyati koeffitsienti	1	0,0150	2,3148	1,5229
3	Qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat koeffitsienti	--	66,6627	0,7606	1,9124
4	Zahira va xarajatlarni o'z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsienti	--	--	--	--
5	Mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsienti	--	1	1	1

1. Bu ko'rsatkich "Yunusobod kommunal sitora servis" XUJMSHda yil boshida 0,5680 ko'effitsientni ko'rsatgan bo'lsa, yil oxirida 0,3434 ko'effitsientga yetgan. Korxonaning moliyaviy mustaqillik ko'effitsienti yil boshiga nisbatan yil oxirida 0,2246 ko'effitsientga kamaygan. Yil boshidagi moliyaviy mustaqillik yil oxiriga kelib o'z kuchini yo'qotgan.

2. "Yunusobod kommunal sitora servis" XUJMSHda yil boshida bu ko'rsatkich 2,3148 ko'effitsientni ko'rsatgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 1,5229 ko'effitsientga yetgan, to'lov qobiliyati ko'effitsientini yil boshiga nisbatan 0,7919 ko'effitsientga kamaygan, korxona yil boshiga nisbatan yil oxirida to'lov qobiliyati biroz yomonlashgandan dalolat beradi.

3. Bu ko'rsatkich yil boshida 0,7606 ko'effitsientni, yil oxirida 1,9124 ko'effitsientni ko'rsatgan, qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat ko'effitsienti o'tgan yilga nisbatan 1,5672 ko'effitsientga o'zgarishi korxona o'tgan yilga nisbatan qarz mablag'larini qoplash darajasi oshmayotganligidan dalolat beradi, lekin bu korxona korxona ijobiy natijaga erishdi degani emas. Korxona qarz mablag'larini imkon qadar qisqartirishi va o'z mablag'lar miqdorini oshirib borishi lozim.

4. Ikkala shirkatda bu ko'rsatkichni tahlil qilish besamar ekanligini xulosa qilishimiz mumkin. Chunki shirkat faoliyatida uzoq muddatli majburiyatlar va tovar-moddiy zaxiralar mavjud emas. Agar ushbu ko'effitsientning yil sayin oshishi kuzatilsa, korxonada mavjud ishchi kapital tovar-moddiy zaxiralarni to'liq qoplay olishidan dalolat beradi.

5. Shirkatlarda bu ko'rsatkich 1 ko'effitsientga ega ekanligi aniqlandi. Lekin bu ko'effitsient ijobiy yoki salbiy xulosa berishga asos bo'la olmaydi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, shirkat faoliyatida uzoq muddatli majburiyatlar va tovar-moddiy zaxiralar mavjud emas.

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, "Yunusobod kommunal sitora servis" XUJMSH yil boshida yil oxiriga nisbatan ijobiy natija ko'rsatgan, moliyaviy holati yaxshilangan, lekin korxona bundan-da yaxshiroq natija ko'rsata oladi,

buning uchun mavjud qarz mablag'larini imkon qadar qisqartirishi lozim, shu orqali korxona moliyaviy holati bundanda yaxshilanishi mumkin.

2.3. Xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy munosabatlarini samarali boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni yumshatish yo'llari

Korxonalar moliyaviy holatini umumiy baholashdan keyingizi moliyaviy tahlil bosqichi bo'lib, korxonalarning moliyaviy mustahkamligi tahlili hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotda moliyaviy mustahkamlikka va balans likvidligiga bir xil ta'rif berishadi va aniqlanayotgan ko'rsatkichni yoki moliyaviy mustahkamlik yoki balans likvidligi, ya'ni korxonalarning olingan qarzlarini qaytarib berish qobiliyatiga egalik deb tushuniladi. Moliyaviy mustahkamlik va balans likvidligi – bu o'z mazmuniga ega bo'lgan ikki xil moliyaviy ko'rsatkichlar bo'lib, korxonalar moliyaviy faoliyatini har xil nuqtai nazardan ifodalaydi.

Moliyaviy mustahkamlik ko'rsatkichi kompleks sifatidagi ko'rsatkich bo'lib, u:

- korxonalarning murakkab bozor munosabatlari davrida xizmat ko'rsatish salohiyatini saqlab qolish imkoniyatini;
- korxona mablag'laridan erkin ravishda foydalanish imkoniyatini borligini;
- xizmat ko'rsatishni to'xtamasdan uni sotish imkoniyati borligini;
- korxonalar faoliyatining umumiy mustahkamligini;
- korxonalar faoliyatiga to'g'ri boshqaruvlik qilinayotganligi;
- korxonalarda mavjud moliyaviy resurslarni bozor munosabatlarining talablariga javob berishligini;
- korxonalarning zaxira va xarajatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qoplovchi manbalar borligi darajasini ko'rsatadi.

Demak, moliyaviy mustahkamlik xizmat ko'rsatish korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlanadi. Moliyaviy

mustahkamlikka xizmat ko'rsatish korxonalarining butun xo'jalik, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik faoliyatining hamma yo'nalishlari ta'sir ko'rsatadi. Unga ham ichki, ham tashqi omillar, shart sharoitlar ta'sir etadi.

Ichki omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- korxonada ishlab chiqarishning barqarorligi;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- korxona nizom fondining hajmi;
- korxona xarajat va daromadlarining nisbati;
- o'z mablag'larining manbalari va korxona majburiyatlarining nisbati;
- korxona aylanma mablag'lari tarkibi.

Xizmat ko'rsatish korxonalar o'z faoliyati boshqa korxona va tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalarda bo'lar ekan, korxonalar moliyaviy mustahkamligiga tashqi omillar ham ta'sir etadi, ular tarkibida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- korxonaning xizmatlar bozoridagi holati;
- korxonaning eksport va import aloqalari;
- korxonaning boshqa korxonalar, ta'minlovchi va iste'molchi korxonalar bilan aloqalarda ishga oid aktivligi;
- bank organlari, debitor va kreditorlar bilan aloqalar;
- respublikada amalga oshiralyotgan iqtisodiy siyosat, soliq, narx-navo va moliya, bank siyosati, texnika, texnologiya siyosati.

Shunday qilib, moliyaviy mustahkamlikka xizmat ko'rsatish korxonasi ichidagi va undan tashqaridagi vaziyat, omillar, shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatar ekan, lekin shu bilan birga moliyaviy mustahkamlikning darajasi xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning hozirgi va kelgusi faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, moliyaviy mustahkamlikning darajasiga binoan xizmat ko'rsatish korxonasida quyidagi muammolar yechiladi:

- ✓ korxona xodimlariga o'z vaqtida ish haqi to'lab turish;
- ✓ ta'minlovchi va iste'molchi korxonalar bilan iqtisodiy aloqalarni kerakli darajada olib borish;

- ✓ banklardan olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarib turish;
- ✓ davlat byudjetiga tegishli soliq va to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazib turish;
- ✓ boshqa korxona va tashkilotlardan olingan qarzlarni o'z vaqtida qaytarib turish;
- ✓ korxona xodimlarini moddiy rag'batlantirib borish;
- ✓ korxona jamoasining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash;
- ✓ korxonani texnikaviy darajasini ko'tarib turish.

Demak, moliyaviy mustahkamlik bir qancha omillar, shart-sharoitlar ta'sirining yakuni bo'lib, u o'z navbatida korxona faoliyatining ko'p tomonlariga ta'sirini ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish sub'ektlarning moliyaviy mustahkamligini o'rganish va tahlil etishdan asosiy maqsad uning moliyaviy mustahkamligini yanada oshirish bo'yicha imkoniyatlariga baho berishdan iboratdir. Yuqoridagi fikr-mulohazalarimizdan ko'rdikki, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining moliyaviy mustahkamligini yaxshilash va uni kuchaytirib borish ushbu korxonalarning moliyaviy holatini yaxshilanib borishidan dalolat ekan. Shunday ekan bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy mustahkamligini kuchaytirish yo'llari sifatida quyidagilarni sanab o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:


- ✓ korxona aylanma aktivlarining aylanish tezligini oshirish;
- ✓ korxonada muddati o'tgan debitorlik qarzdorlikka yo'l qo'ymaslik va debitorlik qarzlari salmog'ini qisqartirib borish;
- ✓ ishlab chiqarish xarajatlaridan samarali foydalanish evaziga olinadigan yalpi foydani o'stirish va shu yo'l orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;
- ✓ normativdan oshiqcha aylanma aktivlarni hosil etmaslik;
- ✓ korxonaning kreditorlik qarzlarni kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- ✓ korxonadagi yuqori likvid aktivlarning aylanishini yanada tezlashtirish;

- ✓ korxonaning o'z mablag'lari manbalarini oshirish yo'llarini izlab topish;
- ✓ korxona majburiyatlari ulushini umumiy manbalardagi hissasini tobora kamaytirish;
- ✓ tovar va xizmatlar bozorini chuqur o'rgangan holda yuqori talab mavjud bo'lgan xizmat turlarini yaratish va xizmatlar ko'rsatish;
- ✓ ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirib borish orqali bozordagi mavqeini mustahkamlab olish;
- ✓ yuqori rentabelli xizmat turlarini ishlab chiqarishni tashkil etish orqali xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarning moliyaviy mustahkamligini yanada barqarorlashtirish va kuchaytirish mumkin bo'ladi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining asosiy vazifalaridan biri uy-joylarni foydalanishga yaroqli holda topshirish shartlari mukammal va joriy ta'mirlashni, shu jumladan tomlarni ta'mirlash, uylar ichidagi muhandislik kommunikatsiyalarini almashtirish va ko'p kvartirali uy-joylarning umumiy foydalaniladigan joylarini mukammal ta'mirlash ishlarini sifatli bajarishdir.

Uy-joylarni joriy ta'mirlash ishlarini olib borishning rejaviy dasturini yuritish, xarajatlarni oldindan rejalashtirish muammolari hali ham dolzarb masallardan biri bo'lib qolmoqda. Joriy ta'mirlash ishlariga ketadigan xarajatlarni rejalashtirishning aniq ifodasini aniqlash qiyin muammolardan bo'lishiga qaramasdan, amaliyotda sarflanadigan xarajatlarga nisbatan yaqinroq qiymatini toppish mumkin.

Uy-joylarni ichki joriy ta'mirlash ishlari ko'proq istiqomat qiluvchilar zimmasida bo'lganligi sababli, binoning qolgan joylarida bajariladigan ta'mirlash ishlaritasnifini quyidagi tartibda tuzish mumkin: zinapoya va maydonchalarini ta'mirlash; tom ustki yopmasini ta'mirlash; deraza va eshik romlarini ta'mirlash; ichki pardozlash ishlari; muhandislik tarmoq uzatkichlarini ta'mirlash; biriktirilgan uchastka maydonlarini obodonlashtirish va boshqalar. Ta'mirlash ishlarini bajarish va ularning samaradorligiga bir qator omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi (11-rasm).



11-rasm. Uy-joylarni joriy ta'mirlashga ta'sir etuvchi omillar

Xususiyl uy-joy mulkdorlari shirkatining qisqa muddat uchun tom ustki qismini joriy ta'mirlashdagi harajatlari quyidagi shartli formula bilan aniqlanishi mumkin:

$$C^{tom} = I \cdot (K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 \cdot K_4 + C_1 \cdot S_1 + C_2 \cdot S_2)$$

Bu yerda: C^{tom} – qisqa vaqt oralig'ida joriy ta'mirlash uchun ketgan bir yillik xarajat (ming so'm);

C_1, C_2 – bajarilayotgan joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun talab etilgan narxlar;

I – qurilish montaj ishlari xarajatlarning oshishini hisobga oluvchi koeffitsient;

K_1 – o'rnatilgan antennalar sonini hisobga oluvchi koeffitsient;

K_2 – uy-joy fondining joriy ta'mirlash vaqtida sifatli erta tugallangan ishlarni e'tiborga oluvchi koeffitsient;

K_3 – ta'mirlab bo'lmaslik darajasini hisobga oluvchi koeffitsient;

K_4 – tom ustiga chiqish joylarini hisobga oluvchi koeffitsient;

S_1, S_2 – joriy ta'mirlab bo'lgan joylar maydoni yuzi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining qisqa muddatli joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirishda hisobot davri mobaynida shirkatlarning moliyaviy-iqtisodiy mustahkamligi qanchalik barqaror bo'lsa, aholi ko'p kvartirali uylariga ko'rsatiladigan xizmatlar hamda uning sifati shunchalik ijobiy bo'ladi. Shirkat faoliyatida moliyaviy munosabatlarning samarali tashkil etilishida quyidagi omillarning ta'siri sezilarli bo'ladi:

- shirkat faoliyatining to'g'ri va samarali yo'lga qo'yilishi;
- shirkat faoliyatida xo'jalik shartnomalarini ishonchli bo'lishi;
- shirkat faoliyatining uy-joy mulkdorlari oldida "shaffoflik"ning bo'lishi;
- xizmat ko'rsatish korxonasi rahbar xodimlarining yetuk malakali, mutaxassis kadrlardan tashkil topishi hamda ishga mas'uliyat bilan yondashishi;
- uy-joy mulkdorlari majburiy badallarining o'z vaqtida hamda to'liq ta'minlanishi;
- uy-joy mulkdorlari badallari evaziga ko'rsatilgan xizmatlarning sifatli bo'lishi;
- korxona sof foydasining ko'payishi;
- shirkat rentabelligini oshirishga xizmat qiluvchi koeffitsientlarga ta'sir etuvchi omillarni, balans moddalini takomillashtirish;
- imtiyozli kreditlarni, turli xil grant va investitsiyalarni jalb qilishi;
- buxgalteriya hisobining to'g'ri va mukammal yo'lga qo'yilishi va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilgan bir qator omillarning ta'sirini kuchaytirish hamda ularni to'g'ri yo'lga qo'yish xizmat ko'rsatish korxonasining, ayniqsa xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining nafaqat moliyaviy munosabatlarini, balki uning kelajakda samarali hamda barqaror faoliyat yuritishining kafolati bo'la oladi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari moliyaviy munosabatlarining samarali tashkil etilishiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan milliy valyutadagi kreditlardir.

Ma'lumki, kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo'lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma'lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit rivojlanishining birinchi bosqichida ko'zga tashlangan edi. Keyinchalik esa ular umumdavlat va xalqaro kredit qonunchiligida yaqqol o'z aksini topdi. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular kreditning qaytarib berishliligi, kreditning muddatliligi, kreditning ta'minlanganligi, maqsadliligi va to'lovlilik tamoyillaridir.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash ham, kreditning tamoyillaridan kelib chiqib, quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- kreditning qaytarilishi;
- kreditning to'lovliligi;
- kreditning ta'minlanganligi;
- kreditning muddatliligi;
- kreditlardan maqsadli foydalanish;
- xatarlarni har tomonlama baholash;
- garov qiymatini hisobga olish.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tijorat banklari tomonidan milliy valyutada kreditlashda kreditlash subyekt xususiy uy-joy mulkdorlarining uydan foydalanishni ta'minlash, uning saqlanishini birgalikda boshqarish va ta'minlash, umumiy foydalanishdagi ob'yektlarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlari, tartibini aniqlash, umumiy mulkdagi mol-mulkning lozim darajasidagi holatini ta'minlash maqsadidagi birlashmalar – xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari hisoblanadi.

XUJMSHga kreditlar quyidagi maqsadlarga ajratiladi:

- ❖ turar-joylarining ichki muhandislik kommunikatsiyalarini va umumiy foydalaniladigan joylarini rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirini amalga oshirishga;

- ❖ joriy va kapital ta'mirlashni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik zaxiralarni, jihozlar va uskunalarni sotib olishga.

Kreditlarni berish muddatlari kreditlanadigan tadbirlarning qoplanish muddatlariga bog'liq bo'ladi, jumladan, turar joylarining ichki muhandislik kommunikatsiyalarini va umumiy foydalaniladigan joylarni rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirini amalga oshirishni moliyalashga kreditlar, muddatini uzaytirish huquqisiz, 24 oygacha muddatga berilishi mumkin. Shuningdek, boshqa maqsadlar uchun beriladigan kreditlar muddati, kreditlanayotgan faoliyat turini xususiyatidan kelib chiqqan holda, banklar tomonidan mustaqil belgilanadi.

Respublikada xususiy uy-joy mulkdorlari beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari imtiyozli bo'lib, ular Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori darajada beqilganmaydi.

Kreditlar, qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobraqami ochilgan bank tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan mos ravishda tasdiqlangan ob'yektni kapital ta'mirlashning loyiha-smetasi hujjatlari hamda manzil ro'yxati, uy-joy jamg'armasining kapital ta'mirini moliyalash manbalarini tushuntirgan holda moliyalash rejasi mavjud bo'lganda, amalga oshiriladi.

XUJMSH kreditlarini olish uchun bankka quyidagi hujjatlarini taqdim etishi shart:

- kredit buyurtmasi;
- uy-joy mulkdorlari yig'ilishining kredit olish zarurligi haqidagi, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bayonnomasi;
- qarz oluvchining bank hisobraqamiga pul tushumi ko'rsatilgan biznes-reja;
- mahalliy (tuman) Davlat soliq xizmati organi tasdiqlangan oxirgi hisobot davriga buxgalteriya balansi (1-shakl), 90 kundan oshgan qarzдорlik bo'yicha taqqoslash dalolatnomasi va moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl);

Olingan kreditlarni qaytarmaslik xatarining oldini olish maqsadida qarz oluvchi tez va erkin sotilish talablariga javob beradigan ta'minotga ega bo'lishi kerak. Qarz oluvchi bankka quyidagi ta'minot turlaridan birini taqdim etishi mumkin:

- mol-mulk yoki qimmatbaho qog'ozlar garovini;
- uchinchi shaxslarning kafilligini;
- sug'urta kompaniyasining qarzdor tomonidan kreditni qaytarmaslik xatarini sug'urtalanganligi haqida sug'urta polisini;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vaziriar Kengashining, viloyatlar Toshkent shahar hokimliklarining kafilligini.

Banklar, o'zlari bilan doimiy aloqaga ega bo'lgan, bank hisob raqamida muntazam pul oqimi mavjud, yaxshi obro' va kredit tarixiga ega qarz oluvchilarga ishonchli kreditlar berish huquqiga egadirlar.

Kreditni qaytarilish ta'minotining shakllaridan biri sifatida mol-mulk garovi xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Garov haqida"gi Qonuniga muvofiq, har qanday mol-mulk, shu jumladan, buyumlar, mulkiy huquqlar garovga qo'yilishi mumkin. Banklar tomonidan likvidli mol-mulk, shu jumladan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari, transport vositalari va boshqa qarz oluvchining likvidli aktivlari garov sifatida qabul qilinadi. Bunda, qarz oluvchi oilasining normal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan uy, kvartira, uy-jihozlari va asbob-anjomlar, kiyim- kechak va boshqa jihozlar garov predmeti bo'la olmaydi.

Kredit berish haqida qaror qabul qilishda bank mijozning kreditni qaytara olish qobiliyati bilan bir qatorda, kredit bitimining boshqa har xil jihatlarini, shu jumladan, taqdim etilgan ta'minotni xaridorgirligini, qarz oluvchining kredit tarixini, uning rahbari obro'sini, oldingi ish joylari, malakasi, ilgari olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarilishining ta'minlanganligini va h.k.larni e'tiborga oladi. Kredit berish haqida qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab, qarz oluvchiga kredit varaqchasi ochiladi va uning yordamida kredit ustidan nazorat qilish amalga oshiraladi.

Kreditlar alohida ssuda hisobraqami ochish va ushbu hisob raqamidan qarz oluvchining to'lov topshiriqnomasi asosida to'lovni amalga oshirish yo'li bilan beriladi. Kredit hisobidan to'lanishi lozim bo'lgan to'lov topshiriqnomalariga, ushbu kreditni olib boruvchi kredit xodimi tomonidan rozilik imzosi qo'yiladi. Bunda u ssuda hisob varag'idan amalga oshiriladigan to'lovlarning maqsadli yo'nalishini qat'iy nazorat qilib borishi lozim.

Kreditni qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobraqamiga o'tkazish qat'iyon taqiqlanadi. Ssuda hisob raqamidan kapital ta'mirlashni moliyalashtirish XUJMSH tomonidan bankka XUJMSH bilan pudratchi tashkilotlar o'rtasida tuzilgan shartnomadagi manzil dasturida ko'zda tutilgan barcha ishlar hajmiga hamda ob'yektga ajratilgan mablag'lar yoyilmasi ko'rsatilgan shartnomaning alohida shartlari taqdim etilganidan keyin amalga oshiriladi.

Pudrat tashkilotini tanlash tender savdolari natijalari bo'yicha amalga oshiriladi va bu 1999-yil 15-fevralda 637-son bilan ro'yxatga olingan «Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash uchun uy-joyi ta'mirlash-ekspluatatsiya tashkilotlarni tanlov asosida aniqlash tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Kreditni qaytarish muddatlari, pul oqimining kelib tushish istiqboliga qarab, bir necha bosqichda qoplashni ko'zda tutuvchi jadval shaklida taqdim etilishi mumkin.

Kreditni qaytarish muddati yetib kelganda va qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobraqamida pul mablag'lari mavjud bo'lmagan taqdirda, kredit muddati o'tgan ssudalar hisobraqami orqali undirib olishga taqdim etiladi, u bo'yicha muddatli majburiyatnomalar esa 2-kartotekaga joylashtiriladi va kalendar navbati tartibida qaytariladi. Bunda, birinchi navbatda, asosiy qarz summasi undirib olinadi.

Tijorat banklari kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoringni amalga oshirib boradilar. Monitoring jarayonida mijozning xo'jalik-moliyaviy faoliyati, uning tuzilgan shartnomalarga muvofiq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarini bajarishini, ko'rsatiladigan xizmatlar

hajmini, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlari va yo'qotishlarini, muomala xarajatlarini, foydasini, o'z aylanma mablag'larining mavjudligi dinamikasini, tovar-moddiy boyliklari zaxiralari ahvoli, aylanma mablag'larining aylanishi tahlil qilinadi. Bank qarz oluvchining kreditga layoqatliligi bo'yicha doimiy monitoringni amalga oshiradi va uning ko'rsatkichlarini kredit yig'ma jildida tizimlab boradi.

Bankka taqdim etilgan garovning holatiga va kreditdan samarali hamda maqsadli foydalanilishi kredit shartnomasida kelishilgan shartlarga muvofiq joyida o'rganiladi.

Kapital ta'mirlash va boshqa obodonlashtirish ishlarini moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha, amalga oshiriladigan monitoring jarayonida bank kreditlangan ob'yektda bajarilgan ishlar hajmining nazorat o'lchovini kredit shartnomasida belgilab qo'yilgan shartlar va muddatlarda, amalga oshiradi.

Nazorat o'lchovi natijalari bo'yicha bank tomonidan bajarilgan ishlar hajmi oshirib yozilganligi aniqlangan holda, bu summa bank tomonidan kredit shartnomasida belgilangan tartibda muddati o'tgan ssudalar hisob raqamiga o'tkaziladi va undirib olinadi.

Kredit shartnomasida kreditdan maqsadga muvofiq foydalanmaganlik uchun, shu jumladan, bajarilgan ishlar hajmini oshirib ko'rsatilganligi uchun, jarima sanksiyalari ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

Berilgan kreditlardan boshqa maqsadlarda foydalanganlik holati aniqlanganda, bank kredit shartnomasida belgilangan tartibda kreditning nomuvofiq ishlatilgan qismini qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisob varag'idan muddatidan oldin undirib olish huquqiga ega.

Qarz oluvchi tomonidan asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmasa, garovga qo'yilgan mulk, qarz oluvchining roziligi mavjudligidan qat'i nazar, uni keyinchalik sotish huquqi bilan, bank mulkiga o'tadi.

Qarz oluvchi tomonidan qarz va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida qaytarilmagan holda, bank quyidagi huquqlarga ega:

– qarzдорlarning ikkilamchi hisob raqamlariga, shu jumladan, boshqa bankda ochilganlariga ham, ijro etilishi majburiy bo'lgan, to'lov talabnomalarini qo'yish;

– qarzдор tomonidan kredit bo'yicha asosiy qarzдорlik va unga hisoblangan foizlar kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmagan taqdirda, bank, mazkur qarzlarni qaytarishni qarzдорlarning likvidli mol-mulki, shu jumladan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari, transport vositalari, kompyuter hamda korxona va tashkilotlarning boshqa likvidli aktivlari hisobiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4- dekabrda 422-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Banklarni kreditlari bo'yicha qarzдорlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzдорlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tatibiga muvofiq qaytarish huquqiga ega.

Bu omillarning xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini samarali tashkil etilishiga ijobiy ta'siri faoliyat doirasining yanada kengayishiga olib keladi.

II bob bo'yicha xulosa

Korxonaning iqtisodiy salohiyati va undan foydalanish to'g'risida to'liq xulosa chiqarish uchun albatta ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim. Ammo, ko'rsatkichlar sonining ko'pligi yoki ozligiga qarab o'rganilayotgan ob'yekt yoki kategoriyaning baholash uchun yetarli yoki kam degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Shu tufayli ko'rsatkichlardan to'g'ri va oqilona foydalanish yo'llarini ishlab chiqish asosiy vazifa sanaladi.

Respublikamiz viloyatlari shahar va markazlarida bunyod etilgan ko'p qavatli uylarga servis xizmatlarini ko'rsatishda quyidagi jihatlarning e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- ✓ joriy ta'mirlashda mahalliy xom-ashyodan foydalanish, natijada tannarxning arzonlashuviga olib keladi;
- ✓ bajariladigan ta'mirlash ishlarining bajarilishini optimal rejalashtirish ishning o'z vaqtida va sifatli bajarilishiga imkon yaratadi;

- ✓ ishlarni bajarilish hajmini bajaruvchilar o'rtasida teng va tekis taqsimlanishi nizolar paydo bo'lishining oldini olishga erishiladi;
- ✓ tom usti ishlarini bajarishda faqat mutaxassislarni jalb etib, tender savdosini o'tkazish orqali ishlarni taqsimlash – ishning sifatli bajarilishini ta'minlaydi;
- ✓ joriy ta'mirlashda bajariladigan ishlarga ta'sir etuvchi omillarni to'g'ri baholash orqali samaradorlikka erishish mumkin;
- ✓ joriy ta'mirlash ishlarini baholashda xarajatlarga ta'sir etuvchi koeffitsientlar ham e'tiborga olinishi zarur.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni e'tiborga olgan holda aholi ko'p qavatli yashash uy-joylariga servis xizmatini ko'rsatish faoliyatining hamda uning moliyaviy munosabatlarining samaradorligi yanada yaxshilanishi quvonarli holdir.

Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini moliyalashning kreditlash usulini qo'llash, xizmat ko'rsatish sohasining doimiy pul tushumini ta'minlovchi tizim subyektlari faoliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir etadi. Chunki bu usulda xizmat ko'rsatish korxonalari o'z faoliyatini bir me'yorda olib borishi uchun bankning qat'iy kafolatlangan va faoliyat uchun belgilangan me'yor, chegara doirasida kredit mablag'laridan bema'lol foydalanishlari mumkin.

Kredit mablag'laridan foydalanish davrida xizmat ko'rsatish korxonlari uchun har bir kredit mablag'i uchun shartnoma tuzish va shartnoma tuzish bilan bog'liq bo'lgan rasmiyatchilikdan forig' bo'ladilar. Shuningdek, banklarga bu usulda kreditlash jarayonida subyekt tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini nazorat qilib boorish va kreditlarni qaytarib borishni rejalashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, doimiy naqt pul tushumiga ega bo'lgan xizmat ko'rsatish soha tizimi subyektlari faoliyatini rag'batlantirish yo'li bilan, bank tashkilotiga xizmat ko'rsatish korxonalarini naqt pul bilan ta'minlash bilan bog'liq muammolarning hal etilishiga olib keladi.

Shunday qilib, ilmiy ishimizning mazkur bobida biz moliyaviy barqarorlikni ta'minlash sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasining

holati va unga ta'sir etuvchi omillar tahlilini o'rganib chiqdik va mazkur masalalarni o'rganish davomida olingan dastlabki ilmiy xulosalar asosida bir qator ilmiy va amaliy takliflarni ishlab chiqdik.

Ushbu holatlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish uchun hali qilinadigan ishlar ko'lami juda keng. Buni amalga oshirish uchun tadbirkorlarning o'zlaridan ham katta tashkilotchilik va tashabbuskorlik talab etiladi.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI MOLIYASINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA ULARNING BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

3.1. Xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasida yuzaga kelgan muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi

Respublikamizda iqtisodiyotning barcha sohalari kabi uy-joy kommunal xo'jaligi sohasiga eski tizimdan konstruktiv ijro jihatidan nomukammal bo'lgan ko'p xonadonli uylar va ularni saqlash hamda ta'mirlashning samarasiz tizimi, sohani boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik uslubiga asoslangan, budget mablag'lari hisobidan boqimanda kun ko'rishga o'rganib qolgan iqtisodiy samarasiz tizim meros bo'lib qoldi.

Mamlakatimiz mustaqilligining e'lon qilinishi davlat qurilishi sohasida ham tub islohotlar zaruriyatini yuzaga keltirdi. Odamlar aslo kechiktirib bo'lmaydiagn muammolar – oziq-ovqat, transport, savdo, sog'liqni saqlash, uy-joy qurilishi, mehnat rejimi va unga haq to'lash, dam olish sharoitlari kabi muammolarning hal etilishini kutar edilar.¹

O'tish davrida boshqaruv tizimining maqsadga muvofiqligi, samarasi va sifati yaqqol namoyon bo'ladi, chunki bunda eskirib, talabga javob bermay qolgan davlat institutlari yangilari bilan almashtiriladi. Bu davrda markaziy hukumat ko'p qavatli uylarni ta'mirlash, uy-joyni har taraflama saqlash, kommunal xizmatlar bo'yicha to'lovlarni yig'ish kabi muammolarni hal etishni mahalliy darajaga o'tkazib bergani shu bilan izohlanadi.

“... kommunal uy-joylarni saqlash muammosi kun tartibidan tushmayotganini tan olish ham zarur. “Ijtimioy fikr” jamoatchilik fikrini o'rganish markazi hisoblariga ko'ra 2011-yilning 20-24-oktabr kunlari mamlakatimizning 12 viloyatida, Qaroqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida so'rov o'tkazildi. 1100 kishidan iborat respondentlarga “O'z uyingizda, xonadoningizda quyidagi kommunal xizmatlar qay dararajada ko'rsatiladi yoki

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O'zbekiston”, 2011-yil, 46-b.

siz ulardan qay darajada foydalana olasiz?” degan savol bilan murajaat qilinganida javoblar quyidagicha taqsimlangan:

“butun kun davomida barqaror” – elektr energiya – 44,3%, tabiiy gaz – 44,6%, vodoprovod suvi – 44,8%, hammom, vanna – 39,9%, chiqindini olib chiqib ketish – 31,4%.

“Barqaror emas, bir kunda bir necha marotaba foydalanish imkoniyatiga egaman” – elektr energiya – 55,4%, tabiiy gaz – 42,2%, vodoprovod suvi – 33,5%, hammom, vanna – 26,4% chiqindini olib chiqib ketish – 16,2%.


“Foydalanish imkoniyatiga ega emasman” – elektr energiya – 0,3%, tabiiy gaz – 13,2%, vodoprovod suvi – 21,7%, hammom, vanna – 33,7%, chiqindini olib chiqib ketish – 52,4%. (Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. №1. 2012. 25-b.).”¹

Bozor iqtisodiyoti shunday mexanizm va tamoyillarga asoslanganki, iqtisodoyotda barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tegishli me’yor va muvozanat holatida bo’lishi talab etiladi, mamlakatda ushbu me’yor va muvozanat ta’minlanmasa iqtisodiyotda turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatli holatlar vujudga keladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda xizmat ko’rsatuvchi korxonalarda mazkur masalalarga tegishli darajada amal etilmasligi oqibatida qarzdorlik bilan bog’liq ayrim muammoli holatlar paydo bo’lmoqda.

Ximat ko’rsatish tarmog’ining asosiy bo’g’inlaridan biri hisoblangan, ko’p qavatli aholi yashash uylariga xizmat qiluvchi xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari qarzdorligi nafaqat shu korxonalarining moliyaviy holatiga balki, ularning salbiy oqibatlari mamlakat milliy iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga ham ta’sir ko’rsatadi. Shu jihatdan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari qarzdorligining vujudga kelish sabablari va ularni bartaraf etish yo’llarini aniqlab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi rasmda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarida vujudga keladigan salbiy oqibatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan (12-rasm).

¹ Malikova G, Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari tajriba va muammolar. Huquq va burch. №4/2014. 49-b.



12-rasm. Korxonalar qarzdorligining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari

Rasmdan ko'rinib turibdiki, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari qarzdorligi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari qarzdorligining iqtisodiy oqibatlari sifatida mamlakatda zanjirsimon to'lovni amalga oshirmaslik muammolarini vujudga kelishi, mamlakatda investitsiya hajmi qisqarishiga, yalpi talab hamda yalpi taklif qisqarishiga olib keladi.

Zanjirsimon to'lovni amalga oshirmaslik muammolarning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri shundaki, ular bir-biriga bog'liq ravishda rivojlanib boradi. Masalan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarida vujudga kelgan debitorlik qarzi kommunal xo'jaliklar, issiqlik manbai, elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar, pudrat shartnomasi asosida ishlovchi qurilish-ta'mirlash tashkilotlari, tijorat banklaridan olingan kredit summalarini qoplash, shuningdek ularga mol yetkazib beruvchi tashkilotlar va davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar bo'yicha boqimandalikni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Qarzdorlikning iqtisodiy oqibatlarining keyingisi mamlakatda investitsiya hajmlari qisqarishi hisoblanadi. Ma'lumki, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari olgan moliyaviy daromadlarini iste'molga, investitsiyaga va

jamg'armaga yo'naltiradi. Daromadlarni mazkur uch yo'nalish boyicha sarflanish uchun bitta shart bajarilishi lozim. U ham bo'lsa, ushbu uchta bosqich to'liq amalga oshishi uchun dastlab birinchi bosqich, ya'ni iste'mol to'liq ta'minlangandan so'ng keying bosqichlar hisoblangan investitsiya va undan so'ng jamg'arma bosqichlarini amalga oshirish uchun korxonada imkoniyat paydo bo'ladi. Agar xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarida ushbu jarayonning birinchi bosqichi, ya'ni iste'mol to'liq mablag' bilan taminlanmasa uning joriy faoliyatida muammolar vujudga keladi. Demak, korxona iste'molni qondirish uchun moliyaviy mablag'ga ega bo'lishi, undan so'ng jamg'arma va investitsiyani shakllantirish uchun zarur moliyaviy mablag'lar yetarli darajada ta'minlanga bo'lishi lozim. Aynan shu jarayonda uy-joy mulkdorlari xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari oldidagi majburiy badallari yuzasidan debitor qarzlar hajmi yuqori bo'lib, ushbu summalarni undirishda muammolar mavjud bo'lsa, bunday sharoitda ushbu jarayonning ikkinchi va uchinchi bosqichlarini amalga oshirishning imkoniyati bo'lmaydi. Natijada jamg'arma va investitsiyaga sarflanishi lozim bo'lgan mablag'larga korxonada imkoniyat chegaralanib qoladi.

Bozor iqtisodiyotida shunday mexanizm mavjudki, talab taklifni shakllantiradi. Ya'ni, talab ehtiyojning pul bilan ta'minlangan qismi bo'lib, ehtiyojning pul bilan ta'minlanishi uchun korxona tashkilotlar xodimlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan mablag'ni berib turishlari lozim bo'ladi. Biroq, bunday imkoniyat korxonalar o'rtasida zanjirsimon to'lovni amalga oshirilmasliklar mavjud bo'lib turgan bir sharoitda bo'lmaydi. Natijada mamlakat miqyosida yalpi talab pasayishi ro'y beradi. Yalpi talabning pasayishi esa yalpi taklifning pasayishiga olib keladi.

Mazkur vaziyat tahlillaridan ko'rinib turibdiki, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarida qarzdorlik vujudga kelishi dastlab iqtisodiy jihatdan salbiy oqibatlarni vujudga keltiradi. Agar iqtisodiy jihatdan salbiy oqibatlarni bartaraf etish yuzasidan tegishli va aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmasa buning ijtimoiy jihatdan salbiy oqibatlari namoyon bo'ladi. Uning ijtimoiy

jihtadan salbiy oqibatlari sifatida (12-rasm) mamlakatda ishsizlik darajasining ortishini, aholi turmush darajasining pasayishi va so'nggi ko'rinishi sifatida ijtimoiy tanglik holati vujudga kelishini ta'kidlashimiz mumkin.

Qarzdorlik masalalari nafaqat xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari balki, mamlakat miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy ega ekanligi sababli uni boshqarish va bartaraf etish masalalari yuzasidan turli qarashlar mavjud. Masalan, B.A.Ogonyans¹ debitor qarzdorlikni boshqarishda 6 bosqichli jarayonlardan foydalanilganda, uni qisqartirishga erishiladi, deb hisoblaydi. Tadqiqotchi A.T.Jo'rayev² esa ayrim tarmoq korxonalarida majburiyatlar ularning o'z mablag'laridan ham ortiq bo'lishiga yo'l quyilishi muammoning muhim jihatlardan biri deb baholaydi. Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy masalalaridan biri, bu resurslar va harajatlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashdir, deb hisoblaydigan qarashlar ham mavjud³.

Qarzdorlikning ijtimoiy salbiy oqibatlaridan hisoblangan ishsizlik darajasini pasayishga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu holat, aynan iqtisodiy oqibatlardagi mamlakatda yalpi taklif pasayishi natijasida ro'y beradi. Chunki, yalpi taklifning pasayishi xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarida yangidan ish joylari tashkil etilmasligidan tashqari, mavjudlarini ham qisqartirishga olib keladi. Qarzdorlikning ijtimoiy salbiy oqibatlarining dastlabkisi hisoblangan ishsizlik darajasining ortishi keyingi bosqichni, ya'ni aholi turmush darajasini pasayishiga olib keladi. Chunki mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan ishchidarning ish bilan ta'minlanmasligi ularning yashash darajasining pasayishiga olib keladi va oxir oqibat mamlakatda ijtimoiy tanglik holati yuz beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga kelgan turli darajadagi muammolarni, shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalari debitorlik qarzlari bilan bog'liq salbiy ijtimoiy-iqtisodiy holatlarni qator yechimlari mavjud. Xususan, mazkur

¹ Огоньянц Б.А. "Организация работы предприятия по погашению дебиторской задолженности". Т., 11 октябрь 2011 г., Материалы МНПК, 16 стр.

² Jo'rayev A.T. «Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida majburiyatlar hisobi». Т., 21-22-may 2010-yil, Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 224-bet.

³ Kenjayeva G.N. Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy masalalari. Т., 26-27-may 2011-yil, Ilmiy amaliy konferensiya materiallari, 143-bet.

magistrlik dissertatsiya ishimiz doirasida ularning ayrimlarini quyida keltirishni maqsadga muvofiq deb topdik.

1. Xizmatdan foydalanuvchilar bilan iqtisodiy aloqalarni rejalashtirish va amalga oshirish siyosatini shakllantirish. Xususiyy uy-joy mulkdorlari shirkati sotilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlarga to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq kelib tushishining asosiy shartlaridan biri, xizmatdan foydalanuvchilarning moliyaviy barqarorligi va to'lovga layoqatliligi hisoblanadi. Demak xizmat ko'rsatuvchi xizmatdan foydalanuvchi bilan iqtisodiy shartnomalarni tuzishda uning moliyaviy barqarorligi va to'lovga layoqatliligiga ishonch hosil qilishi juda muhim hisoblanadi.

Odatda xizmat ko'rsatuvchiga xizmatdan foydalanuvchining moliyaviy barqarorligi va to'lovga layoqatliligini aniqlash mushkul masalalardan biri hisoblanadi. Lekin xizmat ko'rsatuvchiga xizmatdan foydalanuvchining mulkchilik shakli, shirkatning daromadi, shirkat umumiy yig'ilishidagi ma'lumotlar, shuningdek, shirkatning shirkatlar umumiy ro'yxatidagi reytinggi va taftish komissiyasining xulosalari asosida xizmat ko'rsatiladigan obyekt to'g'risida tegishli axborotlarni to'plash va ularni tahlil qilish zarurdir.

2. Qarzdorlik hisobidan vujudga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy zararni baholash va nazorat qilish. Xususiyy uy-joy mulkdorlari shirkati qarzdorligini modernizatsiyalashning tartibli tizimining birinchi bosqichida amalga oshirilgan ishlar to'liq samara bermaganda, shuningdek obyektiv va subyektiv sabablar natijasida va fors-major holatlarda debitor yoki kreditor qarzdorlik vujudga kelishini tabiiy holat sifatida qabul qilish lozim. Albatta, qarzdorlik qanday tartibda va sabablarga ko'ra vujudga kelishidan qat'iy nazar ularni doimiy ravishda hisobga olish va samarali boshqarishini tashkil etish zarur. Bu jarayonda asosiy e'tibor, dastlab qarzdorlikni vujudga kelish muddatlari bo'yicha aniq hisobni yuritish va nazoratni tashkil etish, qarz summalarini hisob-kitob shakllari bo'yicha guruhlash, qarzdorlarni moliyaviy holati ustidan monitoringni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

3. Qarz summalari bo'yicha vujudga kelishi mumkin bo'lgan zararni baholash va nazoratini tashkil etish. Ta'kidlash joizki, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati qarzдорligini modernizatsiyalashda tizimli tartibining dastlabki bosqichidan asosiy e'tibor qarz summalarining vujudga kelmasligiga qaratiladi. Agar uning birinchi bosqichida rejalashtirilgan chora-tadbirlar to'liq samara bermasa, buning natijasida qarzдорlik summasi vujudga keladi, shundan so'ng ikkinchi bosqichda qarzдор xo'jalik sub'ektlari moliyaviy faoliyati ustidan yanada chuqurroq tegishli nazoratni amalga oshirish orqali qarz summalarini bartaraf etish masalasi ko'riladi. Agar bu harakat ham tegishli natijani bermaydigan bo'lsa, mazkur bo'limdagi yo'nalish maqsadidan kelib chiqib, ushbu qarz summalari bo'yicha vujudga kelishi mumkin bo'lgan zararlar baholanadi va barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda zarar ko'rmaslik choralari, ya'ni debitorlik qarzlarni to'liq undirib olish yo'llari izlanadi. Bunda asosiy e'tibor debitor qarzlari mavjud xo'jalik subyektlarni mulkchilik va moliyaviy holatlari bo'yicha tasniflash, ulardan qarzlarni undirib olishning mavjud imkoniyatlari baholanadi va qarz summalarini muddatlari bo'yicha guruhlash kabi qator ishlar amalga oshiriladi.

4. Qarzдорlikni samarali boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati arzdorligini modernizatsiyalashning tizimli tartiblash orqali bartaraf etishning so'nggi bosqichida qarz summalarini undirishda qarzдорlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni joriy etish, mavjud muddati o'tgan qarzlarni kredit muassasalariga sotish kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, xalqaro tajribada xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni uchinchi shaxslarga o'tkazishning qator yo'llari mavjud bo'lib, ulardan asosiylaridan biri kredit muassasalari tomonidan korxonaning muddati o'tgan debitor qarzlarni sotib olish hisoblanadi. Bunda kredit muassasalari korxonaning debitorlik qarzlari bilan bog'liq hujjatlarni diskont asosida sotib oladi.

Ko'rinib turibdiki, korxonalar o'rtasida qarz summalarini bartaraf etish bilan bog'liq qator omillar mavjud bo'lishiga qaramasdan, mamlakatimiz xizmat

ko'rsatish korxonalari, xususan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatida debitor va kreditor qarz summolari yuzaga kelmoqda. ushbu qarzdorlikni bartaraf etish yuzasidan joriy yilda Samarqand viloyatiga jami 3,5 mlrd. so'm miqdorda kredit liniyalari ochilgan bo'lib, hozirgi kunda 1,7 mlrd. so'm kreditlar o'zlashtirilgan. Viloyat bo'yicha debitorlik qarzdorlik 700 mln. so'mni tashkil etmoqda.¹

Bizning nazarimizda, mazkur holatlarning ijobiy yechimini ta'minlash maqsadida xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati hamda ko'p qavatli uylarda istiqomad qilayotgan aholi o'rtasida oldindan to'lovni, jumladan o'zaro hisob-kitoblarda naqd pulsiz hisob-kitoblarning akkreditiv shaklini kengroq joriy etish va yirik kompaniyalarga hisob-kitoblarni amalga oshirishda veksellardan foydalanishga ruxsat berish lozim. Shuningdek, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining moliyaviy holati, likvidliligi, reytingi, to'lovga layoqatliligi va boshqa yo'nalish faoliyatlarini analitik-tahliliy jihatdan o'rganadigan tijorat maqomiga ega bo'lgan axborot agentliklari tashkil etish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari qarzdorligining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ularning asosiy tendensiyalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimiz korxona va tashkilotlari mavjud huquqiy-tashkiliy imkoniyatlardan foydalangan holda qarzdorlikni bartaraf etish muhim masallardan hisoblanadi, chunki uning ijtimoiy jihatdan salbiy oqibatlari nafaqat xizmat ko'rsatuvchi korxonaning moliyaviy faoliyatiga, balki iqtisodiyotning barcha jabhalariga, shu jumladan aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3.2. Xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini boshqarishning iqtisodiy-matematik modeli

Tahlilning iqtisodiy-matematik usullari vositasida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning bog'liqlik kuchini tadqiq etish, ularning qonuniyatlarini aniqlash va tajriba orqali kuzatish mumkin. Xozirgi kunda ushbu usullarni

¹ Samarqand viloyat Statistika boshqarmasining 2008-2013 yil ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitobi.

qo'llash jarayonini tezlashtiradigan va tahlilning ahamiyatli modelini tanlab olish imkonini beruvchi ko'p sonli dasturiy mahsulotlar yaratilgan. Biz quyida keltirilgan tahlilni MS EXCEL hamda SPSS ONLINE dasturi yordamida amalga oshirdik.

Magistirlilik dissertatsiya ishimizda tahlil obyekti sifatida o'rganilayotgan "Yunusobod kommunal sitora servis" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining sof foydasiga korrelyatsion-regression tahlil usullari yordamida tahlil qilish asosida omillar orasidagi bog'liqlik kuchini aniqlash hamda shirkat faoliyatini tahlil etish va baholash orqali ularning moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish va tartibga solish tadbirlari yo'nalishlari aniqlanadi.

Bunda model tuzilishining eng muhim bosqichi natijaviy, bashorat qilingan ko'rsatkichning tanlab olingan omillarga bog'liqligini tavsiflovchi ekonometrik ifodani tanlashdan iboratdir.

Bunda "Yunusobod kommunal sitora servis" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati *sof foydasini* natijaviy ko'rsatkich sifatida tanladik. Bunda natijaviy ko'rsatkich hisoblangan "sof foyda" – y ning $x_1, x_2, \dots, x_n$ omillariga bog'liqligini ko'rsatuvchi regression tenglamani aniqlash yoki matematik modelini topish dolzarb masala hisoblanadi.

24-jadval

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkat sof foydasiga ta'sir etuvchi omillar

Natijaviy ko'rsatkich: sof foyda – y	
Omillar	Belgi
Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha daromad (ming so'm)	x_1
Qayta moliyalashtirish foizi (%)	x_2
Shirkat debitorlik qarzadorligi (ming so'm)	x_3
Shirkat kreditorlik qarzadorligi (ming so'm)	x_4
Sotilgan mahsulot tannarxi (ming so'm)	x_5
Mahsulot sotishning yalpi foydasi (ming so'm)	x_6

Ushbu tadqiqot "Yunusobod kommunal sitora servis" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati sof foydasiga ta'sir etuvchi omillar sifatida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha daromad (ming so'm), qayta moliyalashtirish foizi (%), shirkat debitorlik qarzadorligi (ming so'm), shirkat kreditorlik

qarzdorligi (ming so'm), sotilgan mahsulot tannarxi (ming so'm), mahsulot sotishning yalpi foydasi kabi ko'rsatkichlarni tanlab oldik (24-jadval).

Korrelyatsion-regression tahlilga kiritilishi lozim bo'lgan omillar qiymatlari mos tartibda joylashtirib chiqamiz (25-jadval).

25-jadval

Korrelyatsion-regression tahlilga kiritilgan omillar qiymatlari

Yillar	x₁	x₂	x₃	x₄	x₅	x₆	y
2004	295,3	16	30 025 660,0	26 600 452,0	2 560,0	12 505,5	8 456,2
2005	367,9	16	32 880 200,0	28 215 400,0	2 890,0	13 598,7	9 006,3
2006	489,1	16	36 254 820,0	31 156 880,0	3 090,0	14 980,9	9 450,5
2007	621,2	14	38 255 015,0	33 550 400,0	3 569,0	15 875,2	9 880,2
2008	838,5	14	40 258 700,0	35 800 026,0	4 215,0	16 020,6	10 564,2
2009	1060,7	14	49 256 860,0	38 256 900,0	4 890,0	16 900,7	10 985,3
2010	1405,5	14	53 596 700,0	42 501 000,0	5 450,0	17 899,7	11 348,7
2011	1730,2	12	24 479 000,0	792 100,0	6 730,0	25 650,0	14 911,7
2012	2601,9	12	40 671 500,0	1 450 600,0	15 886,2	28 277,6	14 710,5
2013	3166,5	12	45 860,8	31 217,7	41 963,5	18 496,0	74,5
2014	3489,5	10	36 818,0	37 323,5	52 935,0	19 701,5	149,1

Omillar bog'liqligining ekonometrik modelini aniqlash uchun ko'p omilli korelyatsion-regression tahlil usulidan foydalaniladi. Ishda samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun quyidagi ekonometrik modellardan (ko'p omilli regressiya tenglamalardan) foydalanildi:

$$1) y = \beta_0 + \sum_{i=1}^m \beta_i x_i \quad (1) \text{ Chiziqli model ;}$$

$$2) y = \beta_0 + \sum_{i=1}^m \beta_i \ln x_i \quad (2) \text{ Logorifmik model;}$$

$$3) y = \beta_0 + \sum_{i=1}^m \frac{\beta_i}{x_i} \quad (3) \text{ Giperbolik model;}$$

$$4) \quad y = \beta_0 \prod_{i=1}^m x_i^{\beta_i} \quad (4) \text{ Ko'rsatkichli model.}$$

Bunda,

β_0 – ozod had;

y – shirkat sof foydasi ko'rsatkichisi;

x_i – shirkat sof foydasiga ta'sir etuvchi omillar;

β_i – ko'p omilli model parametrlari; ($i= 1,2,3....m$);

m – tanlangan omillar soni.

Berilgan $y = f(x_1, x_2, \dots, x_n)$ bog'liqlikni topish zarur. Ushbu bog'liqlikni aniqlashda eng kichik kvadratlar usulidan foydalanamiz.

26-jadval

Ko'p omilli regression tahlilda foydalanilgan belgilar

№	Nomi	Ifodalanishi
1	Konstanta, ozod had	β_0
2	Ko'p omilli korrelyatsiya koeffitsienti	R^2
3	Ko'p omilli regressiya tenglamasining noma'lum parametrlari	$B_1, \beta_2, \dots, \beta_k$
4	Baholashning standart xatosi	Qiymati qancha kichik bo'lsa model shuncha ahamiyatli hisoblanadi
5	Determinatsiya koeffitsienti	Qiymati qanchalik 1 sonida yaqin model adekvat hisoblanadi
6	F – Fisher koeffitsienti	$F_{haq} > F_{tabl}$ bo'lsa determinatsiya koeffitsienti ahamiyatli hisoblanadi
7	P-qiymat	(“nolli” gipotezaning ahamiyatliligini ko'rsatuvchi mezon) 0,05 dan kichik ko'rsatkich tegishli model ahamiyatli hisoblanadi

Ko'p omilli korrelyatsion bog'lanishning xususiyati shundaki, uning regressiya tenglamasida bir necha muhim va mohiyatli omillar ishtirok etadi. Bu omillardan eng mohiyatlisini to'g'ri tanlash va ularni regressiya tenglamasiga kiritish katta ahamiyatga egadir. Omillarni tanlash va sifat jihatdan nazariy tahlil qilishga asoslanadi va uch bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda (dastlabki tahlilda) omillar hech qanday shart qo'yilmasdan tanlanadi. Ikkinchi bosqichda

ular juft korrelyatsiya koeffitsientlaridan foydalangan holda tahlil qilinadi. Buning uchun belgilar $y_1, x_1, x_2, \dots, x_n$ o'rtasidagi juft korrelyatsiya koeffitsientlarining matritsasi tuziladi. Omillarni tahlil qilishning uchinchi bosqichida regressiya tenglamasi aniqlanadi va uning parametrlarining mohiyatli bo'lishi yoki bo'lmasligi maxsus mezonlar bilan baholanadi.

Ushbu omillarning natijaviy belgiga ta'sirini aniqlash uchun korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanish mumkin. Bunda juft korrelyatsiya koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

$$r_{ij} = \frac{(\sum x_i x_j - \sum x_i \times \sum x_j / n)}{\sqrt{(\sum x_i^2 - (\sum x_i)^2 / n)(\sum x_j^2 - (\sum x_j)^2 / n)}} \quad (5)$$

Qaysi omillarni regressiya tenglamasiga kiritish lozimligini aniqlash uchun omillar o'rtasidagi juft korrelyatsion koeffitsientlar matritsasini tuzamiz (18-ilova) (27-jadval).

27-jadval

Ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro juft korrelyatsion koeffitsientlar matritsasi

	x_1	x_2	x_3	x_4	x_5	x_6	y
x_1	1	-0,9242	-0,6612	-0,7979	0,9229	0,7666	-0,4900
x_2	-0,9242	1	0,5630	0,7483	-0,8606	-0,7159	0,3130
x_3	-0,6612	0,5630	1	0,7693	-0,8741	0,0020	0,7943
x_4	-0,7979	0,7483	0,7693	1	-0,8351	-0,6548	0,3088
x_5	0,9229	-0,8606	-0,8741	-0,8351	1	0,4295	-0,8270
x_6	0,7666	-0,7159	0,0020	-0,6548	0,4295	1	0,2779
y	-0,4900	0,3130	0,7943	0,3088	-0,8270	0,2779	1

Jadvalda r_{ij} x_i va x_j omillar o'rtasidagi juft korrelyatsiya koeffitsientidir. Ma'lumki, ko'p omilli regressiya tenglamasida o'zaro kuchli chiziqli korrelyatsion bog'langan omillar bir vaqtda ishtirok etmasligi kerak¹. Odatda, kuchli korrelyatsion bog'lanish sifatida uning kritik qiymati $r_{kr} = 0,7$ olinadi. Agar $|r| > 0,3$ – aloqa umaman kam; $0,3 \leq |r| \leq 0,7$ – aloqa o'rtacha; $0,7 \leq |r| \leq 0,9$ – aloqa kuchli; $|r| > 0,9$ – aloqa o'ta kuchli. Regressiya tenglamasida

¹ Abdullayev Y. Statistikaning umumiy nazariyasi. – T.: "Fan", 1993. 240-b.

qatnashuvchi omillarning o'zaro juft korrelyatsiya koeffitsienti kritik qiymatdan kichik bo'lishi lozim. Chunki ular bir-birini ma'lum darajada takrorlab, regressiya va korrelyatsiya ko'rsatkichlarining buzilishiga sabab bo'ladi. Agar yuqoridagi jadvalni tahlil qilsak, kritik qiymatdan r_{kr} katta bo'lgan o'zaro kuchli bog'langan omillarning mavjudligidan guvoh bo'lamiz. Shu sababli biz x_1 , x_4 va x_5 omillarni regressiya tenglamasiga kiritishni lozim topdik.

Keyingi bosqichda muhim va ahamiyatli omillarni tanlanadi. Bunda ushbu omillarni tanlash uchun P-miqdorining qiymati inobatga olindi (28-jadval).

28-jadval

Chiziqli regression modelga kiritilgan ahamiyatli omillar

	Standartlashtirilmagan koeffitsientlar		Standartlashtirilgan koeffitsientlar	t-mezon	P-miqdor
	B	Standart xato	Beta		
(Konstanta)	80,438	1,637		49,131	0,000
x_1	0,045	0,017	0,434	2,596	0,041
x_4	0,101	0,037	0,186	2,733	0,034
x_5	0,040	0,013	0,488	3,218	0,018

Tadqiqotimizda omillar soni uchtdan iborat to'rt noma'lumli normal tenglamalar tizimini tuzdik hamda noma'lum parametrlarni β_0 , β_1 , β_2 , β_3 aniqlashda "eng kichik kvadratlar" va K.F.Gauss usullaridan foydalandik.

Quyidagi jadvalda "Yunusobod kommunal sitora servis" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati sof foydasini oshirish va prognozlashtirish modellarining (ko'p omilli regressiya tenglamasining) asosiy iqtisodiy-statistik ko'rsatkichlari keltirilgan (29-jadval)

29-jadval

SPSS ONLINE yordamida olib borilgan hisoblashlarga ko'ra ekonometrik modellarning turi va ularning asosiy ko'rsatkichlari

Ekonometrik model turi	Model ko'rinishi	Baholash mezonlari			
		R^2	F	P-miqdori	Standart xato
Chiziqli	$y = 7247.41 + 4.99x_1 + 0.000734x_4 + 0.42x_5$	0,985	105,51	6,75E-6	0,135
Logarifmik	$y = 51,531 + 3,018 \ln x_2 + 3,610 \ln x_3 + 3,068 \ln x_5$	0,984	97,84	8,58E-6	0,141
Giperbolik	$y = 99,958 - 193,034/x_2 - 113,45/x_3 - 236,181/x_5$	0,981	86,942	9.81E-5	0,148
Ko'rsatkichli	$y = 4,047 x_2^{0,033} * x_3^{0,04} * x_5^{0,034}$	0,985	101,76	6.95E-6	0,001

Ushbu hosil qilingan modellarinig adekvatligini tekshirish uchun F - Fisher mezonidan foydalanamiz.

Bunda mezonning haqiqiy qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi¹:

$$F_{\text{хакикий}} = \frac{G_{\text{умумий}}^2}{G_{\text{колдик}}^2}; \quad (6)$$

bu yerda,

$$G_{\text{умумий}}^2 = \sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2 / (n-1); \quad (7)$$

$$G_{\text{колдик}}^2 = \sum_{i=1}^n (y_i - \tilde{y}_i)^2 / (n-m-1); \quad (8)$$

$$F = \frac{R^2}{1-R^2} \frac{(n-m-1)}{m} \quad (9)$$

y_i - natijaviy ko'rsatkichning berilgan qatori;

$\bar{y}$ - natijaviy ko'rsatkichning o'rtacha qiymati;

$\tilde{y}$ - natijaviy ko'rsatkichning ko'p omilli regressiya tenglamasi yordamida aniqlangan qatori;

n - to'plam miqdori;

m - ko'p omilli regressiya tenglamasidagi omillar (parametrlar) soni.

F - Fisher mezonining haqiqiy qiymati (F_{haqiqiy}) mezonning jadvaldagi (F_{jadval}) qiymati bilan taqqoslanadi (19-ilova). Agar $F_{\text{haqiqiy}} > F_{\text{jadval}}$ dan katta bo'lsa, u holda hosil qilgan model tadqiq etilayotgan bog'lanishni adekvatli to'g'ri ifodalaydi.

Yuqoridagi (5-jadval) ko'p omilli regressiya tenglamalarida (modellar) F - Fisher mezonining haqiqiy qiymati mos ravishda $F_{\text{haqiqiy}}=71,07$, $F_{\text{haqiqiy}}=44,06$, $F_{\text{haqiqiy}}=9,55$, $F_{\text{haqiqiy}}=105,51$, $F_{\text{haqiqiy}}=32,04$. Ammo erkin ko'rsatkichi surat bo'yicha ($\gamma_1=(m)$) $\gamma_1=3$ hamda maxraj bo'yicha ($\gamma_2=(n-m-1)$) $\gamma_2=10-3-1$ ga teng bo'lganda, F - Fisher mezonining jadval qiymati (mohiyatlik darajasi $p=0,95$)

¹Львовский Е.Н. Статистические методы построения эмпирических формул: Учеб. пособие для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М., 1988. – 70 с.

ikkala model uchun $F_{\text{jadval}} = 5,05$. Demak, hosil qilingan ko'p omilli regressiya tenglamalaridagi natijaviy ko'rsatkich va unga ta'sir etuvchi omillarning bog'lanishi adekvatli hisoblanadi. Shuningdek, ko'rib chiqqan to'rt xil regressiya tenglamalari ichidan chiziqli ko'rinishi "Yunusobod kommunal sitora servis" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati sof foydasi ko'rsatkichi bilan unga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rtasidagi bog'lanishni nisbatan ahamiyatliroq ifodalaydi hamda ishlab chiqilgan chiziqli regressiya modeli quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y = 7247.41 + 4.99 \cdot X_1 + 0.000734 \cdot X_4 + 0.42 \cdot X_5$$

Shunday qilib, "Yunusobod kommunal sitora servis" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati sof foydasiga ta'sir etuvchi omillar ichidan "aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad (ming so'm)", "shirkat kreditorlik qarzdorligi (ming so'm)", "sotilgan mahsulot tannarxi (ming so'm)" kabi omillarning ta'siri nisbatan ahamiyatlidir. Ushbu omillarning natijaviy ko'rsatkichga ta'sirini quyidagicha izohlash mumkin:

1. "Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromadi"ning 1 foizga oshishi "Yunusobod kommunal sitora servis" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati sof foydasining 0,0037 foizga oshishiga olib keladi;
2. "Shirkat kreditorlik qarzdorligi"ning 1 foizga oshishi "Yunusobod kommunal sitora servis" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati sof foydasining $5,8387 \cdot 10^{-6}$ foizga oshishiga olib keladi;
3. "Sotilgan mahsulot tannarxi"ning 1 foizga oshishi "Yunusobod kommunal sitora servis" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati sof foydasining 0,0047 foizga oshishiga olib keladi.

3.3. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini samarali tashkil etish mexanizmini takomillashtirish yo'llari

Xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasini samarali tashkil etishning amaliy ahamiyati xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar moliyaviy barqarorligini oshirishga oid me'yoriy hujjatlarni takomillashtirishda, uni oshirish bo'yicha ichki

imkoniyatlarni axtarib topish borasida zarur chora-tadbirlarni belgilashda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish mumkinligi bilan baholanadi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlaridagi bugungi holat bilan yaqindan tanishish, tizim faoliyatining moliyaviy samaradorligini oshirishga halaqit berayotgan kamchiliklarga oqilona yechim topish, jamoatchilik bilan hamkorlikda sohaga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish dolzarb masala ekanligi e'tiborli holatdir.

Ma'lumki, 2006-yilda yangi taxrirda kabul qilingan "Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, ko'p qavatli uylardagi xonadon egalarining umumiy ulushli mulkdagi o'z hissasiga muvofiq uning saqlanishi bo'yicha harajatlarda qatnashishi, turar-joy va noturar-joy mulkdorlari tomonidan umumiy mol-mulkdan foydalanish, uni birgalikda boshkarish va ta'mirlash soxdsidagi munosabatlar tartibga solingan edi.

Magistrlik dissertatsiya ishimizda keltirib o'tilgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, respublikamizda ayni paytda 29391 ta ko'p qavatli uylar mavjud bo'lib, ularga 4753 ta xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari xizmat ko'rsatmoqda. Tabiiyki, bu uylarning kariyb uchdan bir qismi poytaxtda joylashgan va ularga xizmat ko'rsatish uchun 2375 ta shirkat faoliyat olib bormoqda. Lekin ana shunday natijalarga qaramay, ayrim shirkatlarning moliyaviy holati talab darajasida emasligi e'tiborga molik.

Hozirgi kunda, respublikamizda shirkatlarga tegishli uylar atrofidagi yer maydonlari haligacha tuman yoki shahar hokimlari qarori bilan shirkatlar ixtiyoriga o'tkazilmagan. Vaholanki, qonunning 35-moddasida aynan ana shu talab aniq belgilab ko'yilgan.

Mavjud ahvolni o'nglash uchun mutasaddi idoralar qanday chora-tadbirlar ko'rmokdalar? Ularning samarali faoliyat olib borishlariga xalaqit qilayotgan omillar nimalardan iborat? Balki amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlarga o'zgartirish hamda ko'shimchalar kiritish zarurdir?

Amaldagi qonundan uy-joy mulkorlari shirkati uyushmaga ixtiyoriy ravishda ko'shiladi, degan jumla chikarib tashlanishi maqsadga muvofikdir.

Agar uyushma uy-joy mulkdorlari manfaatini ximoya kila olsa va ularga yordam ko'rsatish yuzasidan e'tiborga molik ishlarni amalga oshirsa, shirkatlar o'z-o'zidan uyushmaga a'zo bo'lishlari mumkin. Mabodo kaysidir shirkat mazkur tuzilmaga ko'shilishni istamayotgan ekan, buning sabablarini uyushma faoliyatidagi kamchiliklardan axtarish lozim.

Uy-joy mulkdorlari shirkati boshqaruviga hamda moliyaviy xo'jalik faoliyatiga buxgalteriya sohasida ko'p yillar mehnat faoliyatini olib brogan, katta xayotiy tajribaga ega bo'lgan va aholi hurmatiga sazovor bo'lgan insonlarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq ekanini ham ta'kidlash mumkin. Biroq bunday kishilar pensiya yoshida bo'lib, ularga nafaka pulidan ajralmagan hodda oylik maoshi olish imkoniyati yaratib berilsa, shaxsiy manfaatini ko'zlaydigan ayrim "uchar"larning shirkatlarga rahbar bo'lib qolishi va umumiy mol-mulkni talon-taroj qilish holatlari o'z-o'zidan barkam topishi aniq.

Albatta, davlat va jamoat ishlarida uzok yillar halol mehnat kilib, nafaqaga chikkan kishilarni to'lik oylik maoshi to'lash sharti bilan shirkat raisligiga hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini boshqarishga tavsiya etish masalasining yuqorida keltirib o'tilgan qonunga alokasi yo'q. Lekin uning dolzarb ekanini inobatga olgan holda bu muammoni boshka konunlarni qayta ko'rib chiqish orqali hal etish lozimligini kun tartibiga qo'yilishi muhim sanaladi.

Shunday ekan, ko'p qavatli uy-joylarda istiqomad qiluvchi aholiga xizmat ko'rsatuvchi xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari moliyaviy faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish va xukuqiy munosabatlarni tartibni solishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish maksadida "Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida"gi qonunni yanada takomillashtirish lozim, degan to'xtamga kelish ushbu faoliyat samaradorligiga katta turtki berishi aniq.

III bob bo'yicha xulosa

Bugungi kunda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va aholining bandlik masalasini hal qilish kabi muhim tadbirlaridan biri xizmat ko'rsatish va servis sohasi muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2012–2016-yillarda mamlakatda “Xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risda”gi Qarori ijrosi bugungi kunda eng tez fursatlarda amalga oshirib kelinayotgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bunga sabab mamlakat iqtisodiyotining YIMida ushbu sohaning o'rni juda katta ahamiyat kasb etadi.

Bob xulosasiga to'xtaladigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda to'siq bo'layotgan muammolardan biri faoliyatni kredit munosabatlari asosida moliyalash masalalarida yuzaga kelayotgan muammolar tashkil etmoqda. Bu muammolar nimalardan iborat ekanligini aniqlashda kredit samaradorligining mazmun-mohiyati jihatidan jamiyatning ayni paytdagi va kelajakdagi ehtiyojini qondiruvchi umuminsiniy faoliyat uzviyligini ta'minlab, iqtisodiy o'sishga zamin yaratuvchi vosita sifatida vaqtincha o'z egalari qo'lida bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish sharti bilan qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabat obyektlarining ishtirokchilar faoliyatida unumli foydalanilib, jamiyat taraqqiyoti uchun qo'shimcha qiymat yaratib, pirovard natijada muvaffaqiyatli yakunlanishidir. Umuminsoniy faoliyat va uning shaxsiy insoniy omiliga xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatini rivojlantirishda kreditlarning rolini oshirish va ular samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan mukammal amaliy takliflarni ishlab chiqish, kreditlash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarning tub mohiyatini o'rganib chiqish talab qilinadi. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha aniq ma'lumotlarga asoslangan hamda moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etilishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili yuzasidan iqtisodiy-matematik modelini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmat ko'rsatish korxonlari moliyaviy holatini tahlil qiladigan bo'lsak, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini yanada samarali tashkil qilish borasida yuqoridagi bobda keltirilgan bir necha muammolar to'sqinlik qilmoqda. Nima sababdan bunday holatlar sodir bo'lmoqda degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 30-mayda qabul qilingan “Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining namunaviy ustavini hamda xususiy

uy-joy mulkdorlari shirkati bilan ko'p kvartirali uydagi turar-joyga mo'ljallanmagan bino mulkdori o'rtasidagi namunaviy shartnomani tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori asosida tasdiqlangan "Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining namunaviy ustavi"ga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslar bilan tanlov asosida va qonun hujjatlariga muvofiq, shirkatning umumiy maydoni, yer uchastkasi va mulkini boshqarish, unga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek kommunal va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomalar tuzish vakolati belgilangan. Bunday shartnomalar aksariyat hollarda tuziladi ham. Biroq taraflarning o'zlariga yuklatilgan vazifani lozim darajada bajarmasligi oqibatida yuqoridagi bobda tilga olingan muammolar kelib chiqmoqda. Nazarimizda, jamoatchilik nazoratini institutining shirkatlar tomonidan qo'llanishi masalasiga ham jiddiy e'tibor berish kerak. Chunki jamoatchilik bilan munosabatlarni yaxshilash ijtimoiy ixtiloflarni o'z vaqtida hal qilish, jamiyatdagi keskinlikni bartaraf etishga xizmat qiladi.

XULOSA

Mamlakatimiz rahbari va hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni modernizatsiyalashtirish tufayli iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlanmoqda, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlanmoqda. Ammo bu degan so'z, tadbirkorlikni rivojlantirishda, ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasida barcha muammolar bartaraf etildi, degani emas. Shu o'rinda ba'zi muammolarga to'xtalsak.

Birinchidan, respublikamiz viloyat va hududlarida sifatli xizmat ko'rsatishga qaratilgan kadrlar tayyorlanishi yaxshi yo'lga qo'yilgan emas. Mavjud oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining faoliyat ko'rsatishiga qaramasdan, xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlar malakasini oshiradigan, ularni qayta tayyorlaydigan o'quv muassasalari hamon yetarli emas. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, xizmat sohasidagi tadbirkorlar qayerda nimani o'qishni bilmaydilar, hududlarda ularni o'qitadigan qisqa tayyorlov kurslari yetarli darajada tashkil qilinmagan. Faoliyat ko'rsatayotgan biznes maktablari va kasb-hunar kollejlari alohida mutaxassislar (menejerlar, marketologlar, huquqshunoslar, iqtisodchilar) emas, balki sohalar bo'yicha tadbirkorlarni, ya'ni uy xo'jaligi tadbirkori, fermer xo'jaligi tadbirkori, dehqon xo'jaligi tadbirkori, meva va sabzavotlarni qayta ishlash tadbirkori, xizmat sohasi tadbirkori kabilarni tayyorlash lozim. Bunday mutaxassislikni olgan yoshlar qayerga borishini, nima bilan shug'ullanishini yaxshi biladigan bo'lishlari kerak. Shuningdek, hozirgi xizmat ko'rsatish sohasiga o'rta ma'lumotli marketologlar emas, balki xizmatning ma'lum turi bilan mukammal shug'ullanadigan tadbirkorlar kerak. Ular tadbirkorlik sirlari bilan birga buxgalteriya hisobini, moliyaviy munosabatlarni, eng zarur bo'lgan huquqiy masalalarni ham bilishlari lozim.

Ikkinchidan, ko'plab xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlari juda qisqa vaqt oralig'ida yopilib ketmoqda. Buning sabablari tadqiq qilinganida shunga amin bo'ldikki, ularning ko'pchiligi o'z haq-huquqlarini yaxshi

bilmaydilar. Bundan ko'rinadiki, tadbirkorlar hayotini tartibga soluvchi, tez-tez o'zgarib turayotgan qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ularga yetkazish mexanizmini yaratish lozim. Ushbu muammoni hal etish yo'llaridan biri mazkur sohaga malakali advokatlik institutlari yoki masofadan o'qitish tizimini joriy etishdir.

Uchinchidan, hozirgi paytda mamlakatimiz hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan biznes maktablarida biznesmenlar emas, balki uning ayrim sohalari bilan shug'ullanadigan marketologlar, menejerlar, buxgalterlar, hatto huquqshunos kabi kadrlar tayyorlanmoqdaki, ular biznes maktabini tugatib, ishni nimadan boshlashni bilmaydilar. Chunki, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatida bor-yo'g'i 3-5 kishi ishlasa, unga alohida buxgalter yoki marketolog kerak emas. Fikrimizcha, hududlarda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati bo'yicha tadbirkorlik maktablarini ochish yoki ularni shu kasbga o'qitish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, xizmat sohasidagi xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining moliyaviy ta'minoti bilan bog'liq muammolar mavjud. Ushbu sohaga mamlakatimiz Prezidentining tashabbusi bilan 2006-yildan buyon tijorat banklari tomonidan imtiyozli mikrokreditlar berib kelinmoqda, ammo bundan barcha xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari bir xilda manfaaddor emaslar. Chunki, ayrim hududlarda tijorat banklari kredit berishni ko'p paysalga solganligi tufayli ba'zi tadbirkorlar ulardan bezib qolmoqda. Xizmat sohasi bilan shug'ullanadigan tadbirkorlarning kredit olishlariga to'sqinlik qilib turgan yana bir jihat xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining asosiy vositalarga ega emasligi yoki kredit uchun garov mulkining mavjud emasligi.

Magistrlik dissertatsiya ishining ushbu qismida yuqorida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalariga va ishni yozish jarayonida tahlil qilingan ma'lumotlar asosida, bugungi kunda xizmat ko'rsatish korxonalari moliyaviy faoliyatini, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati moliyaviy holatini samarali tashkil etish va ularni oqilona boshqarish masalalari yuzasidan asosiy xulosa va takliflarimizni quyida keltirib o'tamiz:

- ✓ xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining asosiy bo'g'inini tashkil qiladi;
- ✓ xizmat ko'rsatish korxonalari majburiyatlari korxonaning ishchi hodimlari, ta'sisчилari, boshqa xo'jalik sub'ektlari va moliyaviy tashkilot va muassalar bilan moliyaviy iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladi;
- ✓ xizmat ko'rsatish korxonalari debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarini samarali boshqarishda avvalo, uning tarkibi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish lozim. Korxona majburiyatlari tarkibini asosiy moddalari quyidagilardan iborat:
 - shirkatlarni joriy va uzoq muddatli kreditorlik qarzlari;
 - shirkatlarni byudjetga soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha qarzlari;
 - shirkatning ishchi hodimlari va pudrat tashkiloylari oldidagi majburiyatlari;
 - moliyaviy muassalar oldidagi majburiyatlar;
 - aholi majburiy badallari yuzasidan debitorlik qarzdorligi va boshqa qarzdorliklar.
- ✓ shirkatlar majburiyatlarini ko'p qismini tashkil qiluvchi, kreditorlik qarzlarning oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:
 - o'zaro shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning mas'ulligi va ularning shartnoma shartlariga qat'iy amal etishi;
 - muddati o'tkazib yuborilgan har qanday to'lovlar summasi bo'yicha huquqiy javobgarlik shartlarini belgilash;
 - hisob-kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;
 - dargumon qarzlari bo'yicha zaxiralar tashkil qilish mexanizmini ishlab chiqish va h.k.
- ✓ shirkatlar majburiyatlarini samarali boshqarishning asosiy yo'nalishlaridan biri, tijorat banklarining kreditlarini o'z vaqtida qaytarish ulardan maqsadli ravishda foydalangan holda xizmat ko'rsatish hisoblanadi. Hozirgi kunda

xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati majburiyatlarini samarali boshqarishda mavjud kamchiliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- korxonalarni kapitallashtirish darajasining pastligi;
- menenjment va marketingning mukammal tashkil etilmaganligi;
- taftish nazorati va jamoatchilik nazorati instituti tekshiruvlarining mukammal yo'lga qo'yilmaganligi;
- shirkat rahbarlarining malakasi yetarli darajada emasligi;
- xizmatlar bo'yicha raqobatbardoshlikning past darajadali.

O'ylaymizki bunga o'xshash kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab ularni bartaraf etish bo'yicha aniq choralar ishlab chiqish shirkat qarzdorligini samarali boshqarishni ta'minlaydi, buning natijasida xususiy uy-joy mulkdorlarini istiqbolda ishonchli va moliyaviy mustahkam holatda faoliyat yuritishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamiz markaziy hududlarida, ko'p qavatli turar-joy binolarida yashovchi aholiga xizmat qiluvchi xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati moliyaviy holatini samarali tashkil etilishida quyidagi takliflar inobatga olinsa shirkat moliyaviy faoliyatini yanada samarali tashkil qilinishiga katta hissa qo'shadi:

- ✓ ko'p qavatli uylarni ta'mirlash va saqlash bo'yicha shirkatlararo raqobatni kuchaytirish;
- ✓ shirkatlarda faoliyat ko'rsatadigan mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha maktabni shakllantirish;
- ✓ Ommaviy axborot vositalarini ko'proq xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatiga jalb qilish, ya'ni ijtimoiy roliklar, reklamalar va h.k.larni tashkil qilish;
- ✓ xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari boshqaruvida taftish komissiyasi tarkibini malakali mutaxassislardan shakllantirish va ularning nazoratini kuchaytirish;

- ✓ xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari tasarrufida qo'shimcha daromad manbalarini joriy etish (pulli avtotransport saqlash joylari, bolalar sport maydonlari, mobil aloqa dillerligi va shunga o'xshash b.);
- ✓ xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatida jamoatchilik nazorati institutlari faoliyatini kuchaytirish;
- ✓ xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatida asosiy vositalarini shakllantirish;
- ✓ ortiqcha talon-tarojlarni oldini olish maqsadida xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tasarrufida qurilish-ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanuvchi brigadani shakllantirish;
- ✓ uy-joy mulkdorlari bilan kelishgan holda shirkat ta'sis shartnomasini shakllantirish;
- ✓ xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati faoliyatida yagona axborot ba'zasini shakllantirish;
- ✓ ko'p qavatli uy-joylar tom ustidan televizion kabel aloqasini uzatish uchun foydalanish bo'yicha XUJMSH bilan shartnomalar tuzishni shakllantirish;
- ✓ ko'p qavatli uy-joylar tom ustida uyali aloqa kompaniyalarining antenna vositalarini o'rnatish bo'yicha XUJMSH bilan shartnomalar tuzishni shakllantirish;
- ✓ ko'p qavatli uy-joylarda foydalanilayotgan liftlarda reklama vositalaridan foydalanish maqsadida XUJMSHning reklama agentliklari bilan shartnomalar tuzishini yo'lga qo'yish.

Muxtasar qilib aytganda, xizmat ko'rsatish korxoanalari moliyasini samarali tashkil etish bo'yicha mamlakatimizda yechimini kutayotgan ko'plab masalalar mavjudligini ko'rib guvohi bo'moqdamiz, shu tufayli mazkur sohada moliyaviy samaradorlikni oshirishga har tomonlama e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2014 (qo'shimchalar va o'zgartirishlar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining Solik Kodeksi, – T.: “O'zbekiston”, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Budget Kodeksi, – T.: “O'zbekiston”, 2013.
4. O'zbekiston Respublikasining Uy-joy Kodeksi, – T.: “O'zbekiston”, 1999.
5. O'zbekiston Respublikasining “Korxonalar to'g'risida”gi Qonuni, 1993-yil 7-may.
6. O'zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida”gi Qonuni. 1993-yil 7-may.
7. O'zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to'g'risida”gi Qonuni, 1993-yil 28-dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasining “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida”gi Qonuni, 1993-yil 28-dekabr.
9. O'zbekiston Respublikasining “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni, 1996-yil 24-aprel.
10. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni, 1996-yil 30-avgust.
11. O'zbekiston Respublikasining “Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida”gi Qonuni, 2006-yil 12-aprel, O'RQ-32-son.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kommunal xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to'g'risida”gi Farmoni, 2001-yil 17-aprel, PF-2832-son.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyatini rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni, 2002-yil 26-fevral, PF-3038-son.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kommunal xizmatlar tariflarining asossiz ravishda o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik hamda ular uchun o'z vaqtida va to'liq hisob-kitob qilinishi uchun iste'molchilarning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, 2005-yil 11-fevral, PQ-5-son.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “1991-yilgacha qurilgan ko'p xonadonli turarjoy binolarining umumfoydalanadigan joylari va muhandislik kommunikatsiyalari kapital ta'mirlanishini yakunlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, 2006-yil 27-iyul, PQ-425-son.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston «O'zkommunxizmat» agentligi faoliyatini takomillashtirish va kommunal xo'jalik korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, 2006-yil 17-avgust, PQ-445-son.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Qarori, 2012-yil 10-may, PQ-1754-son.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013 – 2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2013-yil 17 -aprel, PQ-1957-son.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270 sonli Qarori, Toshkent sh., 2014-yil 4-dekabr.
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Konsepsiyasi", 1998-yil 3-noyabr, 461-son.
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uy-joy mulkdorlari shirkatining namunaviy ustavini va uy-joylarni xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati boshqaruviga berish va uy-joy fondini saqlash va tuzatish masalalarida davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori, 1999 -yil 4-oktyabr, 454-son.
22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, 1999-yil 3-sentyabr, 414-son.
23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uy-joy mulkdorlari shirkatlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2002-yil 1-mart, 74-son.
24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va turar-joylarga xizmatlar ko'rsatishning aniq bozorini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, 2006-yil 12-aprel, 64-son.
25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining namunaviy ustavini hamda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati bilan ko'p kvartirali uydagi turar joyga mo'ljallanmagan bino mulkdori o'rtasidagi namunaviy shartnomani tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2006-yil 30-may, 100-son.
26. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, O'zbekiston "O'zkommunxizmat" agentligining "Umumiy mol-mulkni, yer uchastkasini va xususiy uy-joy mulkdorlari

shirkatining mol-mulkini saqlash bo'yicha joy mulkdorlarining majburiy badallarini shakllantirishda harajatlar tarkibini aniqlash hamda uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha pudrat tashkilotlarining xizmatlari uchun rentabellikning cheklangan darajasini joriy etish bo'yicha nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, "O'zkommunxizmat" agentligining 2006-yil 25-dekabrda 104, 17, 01-371-son qarori bilan tasdiqlangan.

27. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Tijorat banklari tomonidan uy-joy mulkdorlari shirkatlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi Qarori, 2015-yil 25-aprel, 11/3-son.
28. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: "O'zbekiston", 1995-yil.
29. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. –T.: "O'zbekiston", 2008.
30. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: "O'zbekiston", 2009.
31. Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". – T.: "O'zbekiston", 2010.
32. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston". 2011-yil.
33. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisdagi ma'ruzasi, Xalq so'zi, 2015-yil, 17-yanvar.
34. Abdullayev Y. Statistikaning umumiy nazariyasi. – T.: "Fan", 1993.
35. Aminov Z.Y. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi. Dis. avtoreferati. – Samarqand: SamISI, 2009.
36. Bo'tayev O'. Agrar sohani moliyalashtirishda investitsiyalarning ahamiyati. Maqola, T.: "Iqtisod-Moliya", 2014-yil.
37. Bo'tayev O'. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda xizmat ko'rsatish korxonalari moliyasining ahamiyati. Maqola. Moliya-bank tizimini modernizatsiyalashning dolzarb masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. T.: "Iqtisod-moliya", 2015.

38. Fayziyev J. Servis tizimi faoliyati asoslari. Ma'ruza matni. – Samarqand: SamISI, 2006-yil.
39. Haydarov N.H. Xizmat ko'rsatish sohasida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish. Maqola. O'zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. I qism, T.: "Iqtisod-moliya", 2015.
40. Jo'rayev A.T. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida majburiyatlar hisobi" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T. 21-22 may 2010-yil.
41. Kenjayeva G.N. "Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy masalalari" ilmiy amaliy konferensiya materiallari – T., 26-27 may 2011-yil.
42. Malikov T. Haydarov N., "Moliya: umumdavlat moliyasi" o'quv qo'llanma – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009-y.
43. Malikov T., Xaydarov N., "Byudjet: tizimi, tuzulmasi, jarayoni" o'quv qo'llanma, – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008-y.
44. Malikova G, Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari tajriba va muammolar. Huquq va burch. №4/2014, 49-b.
45. Norqulov A., Bo'tayev O'. Xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishda soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish. Maqola, – T.: TMI "Tahririyat nashroyot" bo'limi, 2014-yil.
46. Ortiqov O.A. Xizmatlar bozori va uning rivojlanish tendensiyasi. Maqola. O'zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. T.: "Iqtisod-moliya", 2015.
47. Qurbanova R.J. Servis korxonalarini modernizatsiyalash va ularda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish. Monografiya. – T.: "Iqtisod-moliya", 2013.
48. Toshev A. QULAY, SIFATLI VA TEZKOR yoki xizmat ko'rsatish sohasining taraqqiyoti xususida. – "Ishonch" gazetasi, 2015-yil, 10-fevral.
49. Vahobov A., Malikov T. "Moliya: umumnazariy masalalar" o'quv qo'llanma Toshkent, "IQTISOD-MOLIYA", 2008.
50. Vahobov A., Malikov T. Moliya. Darslik. – T.: "Noshir", 2011-y.
51. Vahobov A., Jumaev N., Burxonov U. Chet mamlakatlar moliyasi. Monografiya. – T.: "Yangi asr avlodi", 2003.
52. Vahobov.A., Jumaev N., Burxonov U. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. – T.: "Yangi asr avlodi", 2003.

53. Vaxobov A., Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti. O'quv qo'llanma. – T.: “Moliya”, 2002.
54. Ziyodinov M. XIZMAT KO'RSATISH VA SERVIS SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH aholi turmush tarzini yuksaltirishning muhim omili, – “Xalq so'zi” gazetasi, 2013-yil 7-avgust.
55. Барулин С.В. Финансы. – М.: КНОРУС, 2011 г.
56. Боди З., Мертон Р.К. Финансы Пер. с англ. : Уч. Пос. – М.: Изд. дом “Вильямс ” 2009.
57. Василев В.И. и др. Принципи предприимателского творчества. МГТУГА. М. 2005.
58. Владимирова М.П. и др. Финансы. – Москва: “Кнорус”, 2006.
59. Ворохалина Л.П. Экономические механизмы развитие малых предпринимательских структур в российской экономике: РАН Институт экономики.- М. 2006.
60. Деловая среда в Узбекистане глазами представителей малого и среднего бизнеса. По итогам 2009 г. Всемирный банк. – Т., 2006.
61. Дробозина Л.А. Финансн. Учебник. - М: ЮНИТИ, 2003.
62. Заяц Н.Е., Василевская Т.И. Финансы предприятий. – Минск: “Вышэйшая школа”, 2005.
63. Кадомцева С.В. Государственные финансы. – М.: ИНФРА – М, 2010 г.
64. Как ликвидироват предприятие (Практическое пособие).-М.: Финстатинформ, 2006.
65. Киреев А.П. Международная экономика. Ч. 1. – М.: “Международные отношения”, 2000.
66. Крисин А.В. Безопасност предпринимательской деятельности. М: Финанси и статистика. 2006.
67. Лушина С.И., Слеова В.А. Государственные и муниципальные финансы. – М.: “Экономист ”, 2007 г.
68. Львовский Е.Н. Статистические методы построения эмпирических формул: Учеб. пособие для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М., 1988.
69. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципи, проблеми и политика.– М.: ИНФРА-М, 2008.
70. Макроэкономические проблемы переходного периода в Узбекистане. “Проблемные исследования в экономике”. Изд.дом “Мир экономики и права”, 2007,
71. Огоньянц Б.А. “Организация работы предприятия по погашению дебиторской задолженности”. Т., 11 октябрь 2011 г., Материалы МНПК.

72. Поляка Г.Б. Государственные и муниципальные финансы. – М.: Юнити, 2008 г.
73. “Экономика Узбекистана” информационно-аналитический бюллетень. – Т.: “Экономическое ободрение”, 2015.
74. H.Chesbrough, J.Spohrer, A Research Manifesto for Services Science. Comm. ACM, July 2006.
75. R.Lusch, S.Vargo, eds., The Service – Dominant Logic of Marketing: Dialog, Debate and Directions. M.E. Sharpe, 2006.

Internet tarmog'i bo'yicha veb-saytlar:

<http://www.cbu.uz>
<http://www.edu.uz>
<http://www.gov.uz>
<http://www.imf.org>
<http://www.lex.uz>
<http://www.mf.uz>
<http://www.mineconomy.uz>
<http://www.natlib.uz>
<http://www.press-service.uz>
<http://www.soliq.uz>
<http://www.standart.uz>
<http://www.stat.uz>
<http://www.uz24.uz>
<http://www.uza.uz>
<http://www.uzkommunhizmat.uz>
<http://www.worldbank.com>
<http://www.xujmshuyushma.uz>